

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM  
VAZIRLIGI**

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

**qo'lyozma huquqi asosida**

**ABDULLAYEVA HAFIZA BOTIROVNA**

**XVIII-XIX asrlarda O'rta Osiyoda ma'muriy boshqaruv va davlat tuzilishi  
(manbalar asosida qiyosiy tahlil)**

**5A120302 –Tarix (Mintaqalar va mamlakatlar bo'yicha)**

**Magistr  
akademik darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya**

**Ilmiy rahbar:**

**t.f.n., dots. M.M.Matyakubova**

**URGANCH 2017**

**Mavzu: XVIII-XIX asrlarda O'rta Osiyoda ma'muriy boshqaruv va davlat tuzilishi (manbalar asosida qiyosiy tahlil)**

**MUNDARIJA:**

|                                                                                                                                                                                     |              |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------|
| <b>KIRISH.....</b>                                                                                                                                                                  |              |
| <b>I BOB. O'RTA OSIYO DAVLATLARINING MA'MURIY BOSHQARUVI VA DAVLAT TUZILISHIGA DOIR MANBALAR, ULARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI</b>                                                 |              |
| 1.1 Xiva xonligi tarixi manbashunosligi.....                                                                                                                                        | 9-17         |
| 1.2 Buxoro amirligi tarixi manbashunosligi.....                                                                                                                                     | 17-25        |
| 1.3 Qo'qon xonligi tarixi manbashunosligi.....                                                                                                                                      | 25-34        |
| <b>II BOB. XIVA XONLIGI, QO'QON XONLIGI VA BUXORO AMIRLIGIDA SIYOSIY-IJTIMOY BOSHQARUV: MANSAB, UNVON EGALARI VA ULARNING VAZIFALARIGA DOIR MA'LUMOTLARNI MANBALARDA AKS ETISHI</b> |              |
| 2.1 Xiva xonligi, Qo'qon xonligi va Buxoro amirligi siyosiy hayoti .....                                                                                                            | 35-44        |
| 2.2 Xiva xonligi, Qo'qon xonligi va Buxoro amirligida yer egaligi, soliq va majburiyatlar.....                                                                                      | 45-52        |
| 2.3 XVIII-XIX asrlarda O'rta Osiyo davlatlaridagi mansab egalari va ularning vazifalari.....                                                                                        | 52-68        |
| <b>III BOB. O'RTA OSIYO DAVLATLARINING MA'MURIY TUZILISHI: QIYOSIY TAHLIL (MANBALAR ASOSIDA)</b>                                                                                    |              |
| 3.1 O'rta Osiyo davlatlarining ma'muriy bo'linishi va undagi boshqaruv (manbalar asosida qiyosiy tahlil) .....                                                                      | 69-73        |
| 3.2 O'rta Osiyo davlatlari: Xiva xonligi, Qo'qon xonligi va Buxoro amirligining beklik va noibliklarga bo'linishi .....                                                             | 73-81        |
| <b>XULOSA .....</b>                                                                                                                                                                 | <b>82-83</b> |
| <b>ADABIYOTLAR RO'YHATI.....</b>                                                                                                                                                    | <b>84-91</b> |
| <b>ILOVALAR.....</b>                                                                                                                                                                |              |

## Kirish

**Mavzuning asoslanishi va dolzarbligi** Mustaqillikka erishganimizning ilk kunlaridanoq tariximizni xolisona yoritishga katta e'tibor berildi. Chunki, tariximizni bilmasdan kelajagimizni qura olmas edik. Bu oldinda turgan ilk masalalardan biri edi. O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch" asarida aytib o'tganlaridek, - "O'z tarixini bilmaydigan, kechagi kunini unutgan millatning kelajagi yo'q".<sup>1</sup> Shunday ekan tariximizni bilish, uni har tomonlama mukammal o'rganish ushbu jannatmakon yurtida yashayotgan har bir fuqaroning burchi hisoblanadi. Hozirgi vaqtga kelib ham muhtaram prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Miromonovich o'zining "Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz" asarida tarixga bo'lgan ishonch va hurmatlarini quyidagicha bildirib o'tganlar, - " Jo'shqin Amudaryodan suv ichib, muqaddas va tabarruk Xorazm tuprog'ida, unib-o'sgan xalqimiz tarixida o'chmas iz qoldirgan Abu Rayhon Beruniy, Muhammad Muso Xorazmiy, Mahmud Zamaxshariy, Najmiddin Kubro, Pahlavon Maxmud, Nosiriddin Rabg'uziy, Sulaymon Boqirg'oniy, Sakkokiy, Munis, Feruz, Ogahiy, Bayoniy va boshqa ko'plab allomalar, shoir va mutafakkirlarning nomlari jahon sivilizatsiyasi tarixiga haqli ravishda oltin harflar bilan bitilgan".<sup>2</sup> Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, "XVIII-XIX asrlarda O'rta Osiyoda ma'muriy boshqaruv va davlat tuzilishi" (manbalar asosida qiyosiy tahlil) mavzusi orqali O'rta Osiyoda mavjud bo'lgan uchta davlatning ya'ni Xiva xonligi, Buxoro amirligi va Qo'qon xonliklarining siyosiy-ma'muriy tuzilishi, boshqaruvi hamda davlat boshqaruvidagi mansab va unvonlar, ularning vazifalari ilmiy asosli tarzda manbalarga tayangan holda imkoniyat doirasida ochib berilgan. Mavzuning davriy chegarasi XVIII-XIX asrlar bo'lib, shu davrdagi ma'muriy boshqaruv va davlat tuzilishi manbalarning qiyosiy tahlili asosida tadqiq qilingan. Ya'ni

---

<sup>1</sup> I.A.Karimov Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch.Toshkent."Ma'naviyat".2008.B-4

<sup>2</sup> Sh.M.Mirziyoyev Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz biln birga quramiz.Toshkent."O'zbekiston".2017.B-281

XVIII-XIX asrlarda O'rta Osiyo davlatlari tarixi, davlat tuzilishi, ma'muriy boshqaruv, mansab, unvonlar va ularning egalarini vazifalarining keng qamrovli tarzda o'rganish, o'z o'rnida Xiva va Qo'qon xonligi hamda Buxoro amirligi mansab va unvonlari bilan qiyosiy tahlil qilish mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

**Tadqiqotning obyekti va predmeti** O'rta Osiyo davlatlarining ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayoti, ma'muriy boshqaruvi va davlat tuzilishi ishning obyekti tashkil qilsa, uni ilmiy asosli ya'ni tarixiy manba va arxiv hujjatlari asosida o'rganish, ma'lum darajada, imkon qadar fanga yangi ma'lumotlarni yangilik sifatida kiritish, o'z o'rnida tahlil (qiyosiy) etish tadqiqotning predmeti hisoblanadi.

**Tadqiqot maqsadi va vazifalari** Tadqiqot ishining maqsadi XVIII-XIX asrlarda O'rta Osiyo davlatlarining tarixini manbalar va arxiv hujjatlariga tayangan holda amirlikda mansab va unvonlar, ularning egalarining vazifalari, lavozim egalarining davlat boshqaruvidagi o'rni ko'rsatib o'tish (imkon bo'lsa ismi sharifi bilan keltirish) ishning maqsadini belgilaydi. Ishning maqsadidan kelib chiqib quyidagi vazifalar belgilandi:

birinchidan, Xiva xonligi tarixi manbashunosligiga e'tibor qaratish;

ikkinchidan, Buxoro amirligi tarixi manbashunosligini o'rganish;

uchinchidan, Qo'qon xonligi tarixi manbashunosligini tahlil qilish;

to'rtinchidan, Xiva xonligi, Qo'qon xonligi va Buxoro amirligi siyosiy hayotini yoritish;

beshinchidan, Xiva xonligi, Qo'qon xonligi va Buxoro amirligida yer egaligi, soliq va majburiyatlarni o'rganishga e'tibor qaratish;

oltinchidan, XVIII-XIX asrlarda O'rta Osiyo davlatlaridagi mansab egalari va ularning vazifalarini qiyosiy tahlil qilish;

yettinchidan, O'rta Osiyo davlatlarining ma'muriy bo'linishi va undagi boshqaruvini o'rganish;

sakkizinchidan, O'rta Osiyo davlatlari: Xiva xonligi, Qo'qon xonligi va Buxoro amirligining beklik va noibliklarga bo'linishini yoritib berish.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** XVIII-XIX asrlar O'rta Osiyo davlatlari ya'ni Xiva xonligi, Buxoro amirligi va Qo'qon xonligi davlat boshqaruvi va davlat tuzilishi bir-biriga qiyosiy tahlil qilingan holda mahalliy va siyosiy tarixchilar xulosalari bilan solishtirildi.

**Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari** O'rta Osiyo davlatlarining ma'muriy boshqaruvi va davlat tuzilishiga doir manbalar, ularning o'ziga xos xususiyatlari, Xiva xonligi, Qo'qon xonligi va Buxoro amirligida siyosiy, ijtimoiy

boshqaruv: mansab, unvon egalari va ularning vazifalariga doir ma'lumotlarni manbalarda aks etishi, O'rta Osiyo davlatlarining ma'muriy tuzilishi: qiyosiy tahlil (manbalar asosida) hisoblanib, undan kutilayotgan farazlar yuqoridagilardan kelib chiqqan holda ushbu masalalar keng yoritilib qo'llanma sifatida maktabda yuqori sinf o'quvchilari uchun, litsey va kollej hamda oliy ta'lim bilim yurtlarida qo'shimcha adabiyotlar sifatida o'qitilishi mumkin.

**Tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlar sharhi (tahlili)** Xiva xonligi tarixini o'rganishda "XIX asr Xiva davlat xujjatlari"<sup>3</sup>, Muhammad Yusuf Bayoniyning "Shajarai Xorazmshohiy"<sup>4</sup>, Said Xomid Tura Komyobning "Tavorix ul – xavonin"<sup>5</sup>, Воҳидов Ш., Холикова Р. "Марказий Осиёдаги давлат бошқаруви тарихидан"<sup>6</sup>, Зиёев Х.З. "Ўзбекистон мустақиллиги учун курашларнинг тарихи" (милoddan олдинги асрлардан то 1991 йил 31 августгача)<sup>7</sup>,

Зияев Х. "Завоевание Бухарского и Хивинского ханства царизмом // Общественные науки в Узбекистане"<sup>8</sup> asarlari , Xiva xonligi tarixini o'rganish va targ'ib qilishda san'atshunos olimlarning borligini ham e'tirof

---

<sup>3</sup> XIX asr Xiva davlat xujjatlari II tom.-Toshkent, 1960.

<sup>4</sup> Muhammad Yusuf Bayoniy SHajarai Xorazmshohiy-Toshkent,1994

<sup>5</sup> Said Xomid Tura Komyob Tavorix ul – xavonin-Toshkent, Akademiya , 2002

<sup>6</sup> Воҳидов Ш., Холикова Р. Марказий Осиёдаги давлат бошқаруви тарихидан. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2006.

<sup>7</sup> Зиёев Х.З. Ўзбекистон мустақиллиги учун курашларнинг тарихи. (милoddan олдинги асрлардан то 1991 йил 31 августгача).<sup>7</sup> – Тошкент: Шарк, 2001.

<sup>8</sup> Зияев Х. Завоевание Бухарского и Хивинского ханства царизмом // Общественные науки в Узбекистане. – Ташкент, 1990. – № 8.

qilish lozim. Jumladan, I.I.Notkin<sup>9</sup>, L.YU.Mankovskaya<sup>10</sup>, V.A.Bulatova<sup>11</sup> kabi san'atshunoslar Xiva shahri arxitektura yodgorliklarini o'rganish asosida bir qator rangli albomlarni nashr qildirdilar.

O'rta Osiyo, jumladan, Xiva xonligi tarixi bo'yicha yuqorida nomlari tilga olingan olimlardan tashqari chet ellik olimlarning bir qancha asarlarini ham tilga olish mumkin. Ular qatoriga jurnalist Mak-Gaxan<sup>12</sup>, Yu.Bregel<sup>13</sup>, M.Olvort<sup>14</sup>, S.Bekker<sup>15</sup>, J.Uiler<sup>16</sup> kabi olimlarning mavzuga oid asarlarini ko'rsatish mumkin. Xorijiy tadqiqotchilarning asarlaridan XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Xiva xonligi tarixi, bu davr madaniy muhiti tarixi yoritilgan.

Xiva xonligi tarixi yoritilgan rus sharqshunoslari va ingliz mualliflarining asarlarining o'ziga xos o'rni bor. Bu manbalar orqali xonlikning siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy tarixini o'rganish mumkin.

Buxoro xonligi (amirligi) tarixini o'rganishda dastlabki manbalar qatorida Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma"<sup>17</sup> asari, Hofiz Tanish Buxoriyning "Sharafnomayi Shohiy", Mir Muhammad Amin Buxoriy "Ubaydullanoma", Ahmad Donish "Risolai yo muxtasari az tarixi saltanati xonadoni mangitiya"<sup>18</sup>, Mulla Maxdum Xoji "Tarixi Turkiston"<sup>19</sup>, Mirza Abdulazim Somiy "Tarixi salatini Mangitiya" (история Мангитских государств)<sup>20</sup>, Muhammad Ali ibn Muxammad Sayid Baljuvoni "Tarix – i

<sup>9</sup> Булатова В.А., Ноткин И.И. Хиванинг архитектура ёдгорликлари. Йўл кўрсаткич. – Т.: Ўздавнашр, 1963.

<sup>10</sup> Маньковская Л. Хива Хоразм наққошлиги хазинаси. Альбом. – Тошкент-Дрезден, 1982. – 264 б.

<sup>11</sup> Маньковская Л.Ю., Булатова В. Памятники зодчества Хорезма. – Т.: Фафур Фулям, 1968.

Ўқуздаги ҳарбий ҳаракатлар ва Хиванинг истило қилиниши. – СПб., 1875. О.Абдуллаев таржимаси. –Т., 2000; Яна муфассал қаранг: Хива хонлигининг хориж тилларидаги тарихнавислиги т.ф.н. О.Масалиева томонидан ўрганилган. Қар: Масалиева О. XX аср инглиз-америка тарихшунослигида Бухоро, Хива ва Қўқон хонликлари тарихи. Тарих фан. ном. дисс... – Т., 1999.

<sup>13</sup> Bregel Y. Bibliography of Islamic Central Asia. Compiled and edited by Yuri Bregel. Indiana University. Part II. Descriptions and Travel; Written Sources for Central Asian History; Ethnography; Folklore; Folk Entertainments; Physical Anthropology. 1995.

<sup>14</sup> Holdeworth M. Turkistan in the nineteenth century: A brief history of the Khanates of Bukhara, Kokand and Khiva. – London, 1959.

<sup>15</sup> Becker S. Russias protectorates in Central Asia: Bukhara and Khiva, 1865-1924. – Cambridge. MA: Harvard University, 1968.

<sup>16</sup> Wheeler G.E. The modern history of Soviet Central Asia. – London-New York, 1964.

<sup>17</sup> Zahiriddin Muhammad Boburning Boburnoma Toshent, 1989

<sup>18</sup> Ahmad Donish Risolai yo muxtasari az tarixi saltanati xonadoni mangitiya. Dushanbe, 1960.

<sup>19</sup> Mulla Maxdum Xoji Tarixi Turkiston.Qarshi, 1992.

<sup>20</sup> Mirza Abdulazim Somiy Tarixi salatini Mangitiya (история Мангитских государств), М.1962

nofei”<sup>21</sup>, Amir Sayid Olimxon “Buxoro xalqining xasrati tarixi”<sup>22</sup>, Ziyoyev X. “O‘zbekiston mustaqilligi uchun kurashlar tarixi (Miloddan avvalgi asrlardan to 1991 yil 31 avgustgacha)”<sup>23</sup>, Ziyoyev X. “Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash”<sup>24</sup>, Ozodayev F. “Toshkent tarixidan ocherklar”<sup>25</sup>, A‘zamxujayev S. “Turkiston muxtoriyati”<sup>26</sup>. Shulardan N.I. Veselovskiy, V.V. Bartold, I.P. Petrushevskiy, M.S. Ivanov, P.P. Ivanov, M.R. Arunova va K.Z. Ashrafyan<sup>27</sup> larning tadqiqotlari Xiva xonligining qo‘shni mamlakatlar bilan o‘zaro savdo-iqtisodiy aloqalarni yoritishga yordam bergan adabiyotlar sifatida qayd etilsa bo‘ladi.

Qo‘qon xonligi tarixi manbalari o‘rganish bo‘yicha ko‘pgina olimlarimiz ilmiy izlanishlar olib bordilar. Ularning tadqiqot ishlari o‘rganilayotgan davr tarixini o‘rganishda muhim va birlamchi manba bo‘lib xizmat qiladi. Sh.Vohidovning “Qo‘qon xonligida tarixnavislik”<sup>28</sup>, Azamat Ziyoning “O‘zbek davlatchiligi tarixi”<sup>29</sup>, Ziyoyeva D. muharrirligi ostida nashr etilgan “O‘zbekistonda harbiy ish tarixidan”<sup>30</sup>, Sh.Vohidov, R. Xoliqova. “Markaziy Osiyodagi davlat boshqaruvi tarixidan”<sup>31</sup>, Abdurasulov A. “Xiva”<sup>32</sup>, Davlatyor Rahim, Shixnazar Matrasul “Feruz shoh va shoir qismati”<sup>33</sup>, Murodov A. “O‘rta Osiyo xattotlik

<sup>21</sup> Muhammad Ali ibn Muxammad Sayid Baljuvoni. Tarix – i nofei. Dushanbe, 1992.

<sup>22</sup> Amir Sayid Olimxon .Buxoro xalqining xasrati tarixi. Toshent: Fan, 1991.

<sup>23</sup> Ziyoyev X. O‘zbekiston mustaqilligi uchun kurashlar tarixi (Miloddan avvalgi asrlardan to 1991 yil 31 avgustgacha). Toshkent, 2000.

<sup>24</sup> Ziyoyev X. Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash. Toshent, 1998.

<sup>25</sup> Ozodayev F. Toshkent tarixidan ocherklar. Toshent, 1960.

<sup>26</sup> A‘zamxujayev S. Turkiston muxtoriyati. Toshent: Ma‘naviyat, 2000.

<sup>27</sup> Веселовский Н.И. Очерк историко-географических сведений о Хивинском ханстве с древнейших времен до настоящего. – Спб., 1877. – 364 с.; Ёша муаллиф. Памятники дипломатических и торговых сношений Московской Руси с Персией. – Спб., 1890. Т. I. – 462 с; Бартольд В.В. Очерк истории туркменского народа // Туркмения. – Л., 1929. Т. I. – С. 56-67; Ёша муаллиф. Узбекские ханства / Сочинения. – М., 1963. Т. II (I). – С. 268-293; Петрушевский П.П. Очерки по истории феодальных отношений в Азербайджане и Армении в XVI – начале XIX вв. – Л., 1949. – 384 с.; Иванов М.С. Очерк истории Ирана. – М., 1952. – 468 с.; Гулямов Я. История орошения Хорезма с древнейших времен до наших дней. – Т., 1957. – 313 с.; Иванов П.П. Очерки по истории Средней Азии (XVI- середина XIX в.) – М., 1958. – 246 с.; Арунова М.Р., Ашрафян К.З. Государство Надиршаха Афшара. (Очерки общественных отношений в Иране 30-40 – х годов XVIII века) – М., 1958. – 283 с

<sup>28</sup> Вохидов Ш. Қўкон хонлигида тарихнавислик. Т.: Академнашр. 2010.

<sup>29</sup> Azamat Ziyoyev. O‘zbek davlatchiligi tarixi. T.: Sharq, 2000.

<sup>30</sup> Зиёева Д. Мухаррирлиги остида нашр этилган Ўзбекистонда ҳарбий иш тарихидан. Тошкент: Шарқ, 2012.

<sup>31</sup> Sh.Vohidov, R. Xoliqova. Markaziy Osiyodagi davlat boshqaruvi tarixidan. Yangiasravlodi. T.: 2006

<sup>32</sup> Абдурасулов А. Хива. Ўзбекистон, 1997.

<sup>33</sup> Давлатёр Раҳим, Шихназар Матрасул. Феруз шоҳ ва шоир қисмати. Т.: 1997.

san'ati tarixidan"<sup>34</sup>, Hakimjon Mas'udali "Xatti mu'allimiy (arab yozuvining vujudga kelishi va turlari)"<sup>35</sup>, "Adabiy meros kitobi"<sup>36</sup>, Nabiev N. "Iz istorii Kokandskogo xanstva"<sup>37</sup>, Sultonov O'. Muhammad Solihxo'ja va uning "Tarixi jadidai Toshkand"<sup>38</sup>, Muhammad Aziz Marg'iloniy "Tarixi Aziziy"<sup>39</sup> kabi asarlar xonlik tarixi bo'yicha ma'lumot beruvchi asarlar hisoblanadi.

**Tadqiqotda qo'llangan metodikaning tavsifi** Mavzu bo'yicha to'plangan ma'lumotlardan ilmiy tadqiqot olib boruvchi, oliy o'quv yurtida o'tiladigan tanlov fanlar qamrovida hamda ijtimoiy–gumanitar fan o'qituvchilari va talabalari, magistrantlar, bakalavriyat talabalari, akademik litsey va kasb-hunar kollej o'qituvchilari va o'quvchilari, hamda umumta'lim maktabi o'qituvchilari va yuqori sinf o'quvchilari, foydalanishi mumkin. Tadqiqot bo'yicha olib borilgan ishlar, tadqiqot natijasi sifatida davriy nashrlarda ilmiy maqolalar orqali keng omma e'tiboriga havola etildi. Tadqiqotni olib borishda uch bob asosida bir-biriga taqqoslash, qiyoslash va solishtirish metodlaridan keng foydalanildi.

**Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati** Mavzuga oid bo'lgan manba va arxiv hujjatlari o'rganildi hamda adabiyotlar tahlil qilindi. Tarixiy reallik xolislik asosida ish olib borildi, analiz, sintez va ilmiy tahlil usullaridan foydalanildi.

**Ish tuzilmasining tavsifi** Ish kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat. Tadqiqotning asosiy mazmuni 91 betda yoritib berildi.

---

<sup>34</sup> Муродов А. Ўрта Осиё хаттотлик санъати тарихидан. Тошкент, "Фан", 1971.

<sup>35</sup> Ҳакимжон Масъудали. Хатти муъаллимий (араб ёзувининг вужудга келиши ва турлари) Т.: Мехнат, 1991.

<sup>36</sup> Адабий мерос китоби. Т., 1973.

<sup>37</sup> Набиев Н. Из истории Кокандского ханства. Т., 1973.

<sup>38</sup> Султонов Ў. Муҳаммад Солиххўжа ва унинг "Тарихи жадидаи Тошканд. 1999.

<sup>39</sup> Муҳаммад Азиз Марғилоний. Тарихи Азизий. 1999.

## **I BOB. O‘rta Osiyo davlatlarining ma‘muriy boshqaruvi va davlat tuzilishiga doir manbalar, ularning o‘ziga xos xususiyatlari**

### **1.1 Xiva xonligi tarixi manbashunosligi**

Xiva xonligi tarixida bo‘lib o‘tgan siyosiy jarayonlar besh asrga yaqin davrni o‘z ichiga oladi va uning manbashunosligi hamda tarixshunosligi masalasi alohida bir tadqiqot yo‘nalishini tashkil qiladi. Xiva xonligi tarixini o‘rganishga birinchi navbatda mahalliy tarixchilar jiddiy e‘tibor qaratishgan. Ular orasida Xivada yashagan va xonlikda amalga oshirilgan iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy jarayonlarning shaxsan guvohi bo‘lgan, O‘temish Hoji Abulg‘ozi Bahodirxon, Munis, Ogahiy, Bayoniy, Komyob va ulardan keyingi tarixchilarning ilmiy meroslari muhim o‘rin egallaydi.

Xiva xonligida xonlikning ijtimoiy-siyosiy tarixini xolisona yoritish tarixnavislikning bosh maqsadi hisoblangan. Bu haqda tarixchi Muhammadyusuf Bayoniyning shunday so‘zlari bor: «Tarix kitobi yozishni bir sharti bor. Tarixiy voqealarni yozuvchi tarafdorlik etmasdan bo‘lgan voqealarni rostlik bilan bayon etishi kerak. Agar rostlik bilan bayon etmasa uning so‘zlari hech bir odamga ma‘qul bo‘lmaydi».<sup>40</sup>

Bundan tashqari “Xonlar tarixi”, “Sayyid Muhammadxon tarixi”, “O‘rta Osiyo”, “Xivada osori-atiqalar tarixi”, “Xorazmning ta‘rifi”, “Xiva shahri va uning atrofining ma‘muriy bo‘linishi”, “Tarix bo‘yicha Risola” (Jumaniyoz Xoji Xorazmiy al-Xivaqiy ibn Boboniyoz qalamiga mansubdir); “Xiva xonligi bo‘yicha tarixiy ma‘lumot”, “Xorazmni o‘rganishga oid hujjatlar” (Matkarim Otajonov tomonidan yozilgan), “Xorazm tarixi”, “Xorazm xonligi haqida tarixiy hujjatlar”, “Xorazmni boshqargan xonlarning avlodlari, kelib chiqishi, shajarasi, mol-mulki, o‘zbek podsholarining yurish-turishlari va urf-odatlarini”, “Xorazmdagi quldorchilik voqealariga oid”, “Asfandiyorxon hukmronlik qilgan davrlarda bo‘lib o‘tgan ba‘zi bir voqealar haqida” (muallifi Bobojon Safarov), “Saodat gulshani” asarlarining materiallari katta ahamiyatga egadir.

---

<sup>40</sup> Баёний. Хоразм тарихи // Қўлёзма. ЎзФА ШИ. 5-6 вар.

Bu asarlarda Xorazmdagi siyosiy, ijtimoiy va xo‘jalik hayoti, madaniyati tilga olingan.

Xiva xonligi tarixini o‘rganish va yoritishga rus va ingliz tadqiqotchilari katta hissa qo‘shganlar. Ularning ayrimlari sayyoh va diplomat sifatida xonlik hududlariga kelgan vaqtda yo‘llar, quduq, manzil-makonlar, istehkomlarni sinchkovlik bilan kuzatib, barcha belgilarni eslab qolishga harakat qilganlar. Natijada Xiva xonligi haqidagi josuslik ma’lumotlari to‘plana boshlangan va ulardan kelgusida amalga oshiriladigan harbiy maqsadlarda keng foydalanilgan. Bunday manbalar qatoriga Rossiyadagi ingliz savdo agenti Antoniy Jenkinsonning xotiralari, Aleksandr Bekovich–CHerkasskiy harbiy ekspeditsiyasi haqidagi ma’lumotlar, harbiy vrach Blankennagel va kapitan Nikolay Muravevning sayohati tafsilotlari hamda podpolkovnik G.I.Danilevskiy va polkovnik N.P.Ignatev ekspeditsiyalarining hisobotlari kiradi.

Rus sharqshunosi P.Ivanov va o‘zbek tarixchisi M.Yo‘ldoshevlarning izlanishlari natijasida O‘rta Osiyo xonliklariga tegishli talaygina arxiv hujjatlari topilgan. Tadqiqot jarayonida yuqorida nomlari ko‘rsatilgan tarixchilar tomonidan topilgan arxiv materiallari Rossiyaga olib ketilgan xon arxiv xujjatlarining bir qismigina xolos. O‘rta Osiyo xonliklari kabi Xiva xonligidan ham xonlikning ijtimoiy-siyosiy hayoti haqida ma’lumot beruvchi xon arxiv hujjatlarining Rossiya hududiga olib ketilganligi bizga ma’lum. Bu haqda K.Nurjonov shunday deb yozgan: «Xiva xonligining bebaho tarixiy va madaniy merosi hisoblanmish arxiv materiallari hanuzgacha Orenburg, Ufa, Qozon, Moskva, Sankt-Peterburg qo‘lyozmalar fondlari, kutubxonalari va shaxsiy arxivlarda o‘rganilmay yotganligi aniqdir»<sup>41</sup>.

Xiva xonligi tarixini haqqoniy yoritish ishiga taniqli rus olimlaridan akademik V.V.Bartold katta hissa qo‘shdi. Uning qalamiga mansub asarlarda Xorazm tarixining ko‘plab sahifalari xolisona yoritildi. Bundan tashqari V.V.Bartoldning shaxsiy fondidagi (68–fond) hujjatlar orasida Xiva shahri tarixi va xonlikning hayotiga oid 200 varaqdan ko‘proq noyob materiallar

---

<sup>41</sup> Нуржонов К. Маданиятимиз дурдоналарини излаб. // Хоразм ҳақиқати. 1990 йил. 18 март.

saqlanmoqda.

Xiva xonligining Rossiya bilan olib borgan 300 yillik savdo-sotiq va diplomatik munosabatlari sahifalari prof. S.V.Jukovskiyning 1915-yilda nashr qilingan asaridan o‘rin egalladi. Mazkur rus olimining ushbu asari biroz shovinistik qarashlardan xolis bo‘lmasada Xiva xonligi tarixini yoritishda juda katta ahamiyat kasb etadi.

Sho‘rolar davrida Xiva xonligi tarixini o‘rganish ishiga Ya.G‘.G‘ulomov, P.P.Ivanov, M.Yo‘ldoshev, O.Sodiqov, I.V.Pogorelskiy, G‘.Napesov, M.Muhammadberdiev, N.Qalandarov, T.G.To‘xtametov, D.Yu. Yusupova kabi olimlar ham katta hissa qo‘shdilar. O‘z davrida arxivlarda saqlangan xujjatlarni o‘rgangan va ularni taxlil qilish asosida ilmiy asarlar yozgan mazkur olimlar obyektiv voqelikni yoritishga erishganlar.

Manbalar va ilmiy adabiyotning bir turkumini Xivaning qo‘shni malakatlar bilan olib borilgan munosabatlari va aloqalariga bag‘ishlangan. Xivaning xalqaro miqyosidagi faoliyati va o‘rni ko‘rsatish uchun ulardan keng foydalanildi. Xiva xonligini qo‘shni davlatlar, jumladan, Eron, Rossiya, Buxoro va Qo‘qon xonligi o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarning ayrim jihatlarini aks ettirgan ilmiy adabiyotlarda Xiva xonligi va Eronning ichki siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti; ikki davlatning o‘zaro siyosiy aloqalari; iqtisodiy aloqalar; ikki davlatning etnomadaniy hayotida yuz bergan jarayonlar hamda o‘zaro aloqalarga xizmat qilgan karvon yo‘llari tarixi yoritiladi.

Shulardan N.I. Veselovskiy, V.V. Bartold, I.P. Petrushevskiy, M.S. Ivanov, Ya.G‘. G‘ulomov, P.P. Ivanov, M.R. Arunova va K.Z. Ashrafyan, K.M. Munirov, O.E. Efendiev, G.A. Agzamova, A.F. Fayziev, N.D. Mikluxo-Maklay, B.S. Mannonov, P.P. Bushev, O.E. Ekaev va I.K. Pavlova, zamonaviy Eron tarixshunoslari hamda D.V. Valieva, N.B. Baykova, M.Y. Yo‘ldoshev va Yu.N. Abdullaev, O.A. Amantiev, M.A. Annanepesov, R.G. Mukminova, G.A. Mixaleva, O. Bertonlarning tadqiqotlari Xiva xonligining qo‘shni mamlakatlar bilan o‘zaro savdo-iqtisodiy aloqalarni yoritishga yordam bergan adabiyotlar sifatida qayd etilsa bo‘ladi.

A. Xoroshxin, G.A. Pugachenkova, A.M. Matveev, A.A. Madaev, E. Mamedova, N.G. G'oyibov I.G. Nizomutdinov, X.G. Go'ro'g'li, L.M. Epifanova, G. Eshchonova, A. Jumaev tadqiqotlari Xiva-Eron o'zaro munosabatlarining ikki davlat etnomadaniy hayotida aks etishi va mintaqadagi etnodemografik, etnointegratsion jarayonlarning o'zaro ta'sir holatlari haqida tushuncha beruvchi ilmiy adabiyotlar sifatida tahlil qilindi.

XIX asrda Xorazmda yozilgan tarixiy asarlarda Qo'qon xonligi bilan bo'lgan diplomatik munosabatlarga oid materiallar ham keltirilgan. Jumladan, 1259/1843 yili «zu-l-qa'da oyining o'n to'rtida chahorshanba kuni Rahimquli Xo'qand elchisi Qorabosh dodxohg'a Bobobekni elchilik yo'suni bila qo'shub, muhabbatnoma bilan Xo'qand viloyatiga yubordi»<sup>42</sup>.

Xiva xonligi tarixini o'rganish va targ'ib qilishda san'atshunos olimlarning xizmatlari borligini ham e'tirof qilish lozim. Jumladan, I.I.Notkin, L.YU.Mankovskaya, V.A.Bulatova kabi san'atshunoslar Xiva shahri arxitektura yodgorliklarini o'rganish asosida bir qator rangli albomlarni nashr qildirdilar.

Xiva xonligi va Xiva shahri tarixi chel el tarixshunosligida ham katta o'rin egallaydi. Akademik E.V.Rtveladzening tadqiqotlariga qaraganda ushbu mavzuga ozmi-ko'pmi e'tibor bergan g'arb olimlari orasida J.Xenvey, G.Gens (Graf. Xelmerson nashri), R.Shekspir, A.Vamberi, Mishel, F.Barnabi, J.Abbot, X.Landedel, X.Mozer, X.Kollet, E.Zaxau, F.SHvars, R.Gink i K.Kombas, Yu.Goldshteyn, K.Pander yana Mak-Gaxan, Yu.Bregel, M.Olvort, S.Bekker, J.Uiler kabi mutaxassislar ham bor. Ularning rang barang albomlari va qiziqarli kitoblari dunyodagi ko'pgina mamlakatlar o'quvchilarida Xorazm vohasi tarixi haqidagi dastlabki tasavvurlarni shakllantirishga yordam berdi.

Xiva xonligi O'rta Osiyoda mavjud bo'lgan uchta xonlikdan ancha ilgari 1511-yilda tashkil topib, 1920-yilgacha mavjud bo'lgan va to'rt asr davomida iqtisodiy, siyosiy, madaniy hayotida yuksalish, rivojlanish va inqirozli davrlarni ham boshdan kechirgan. Qo'ng'irotlar sulolasi hukmronligi davrida xalqaro

---

<sup>42</sup> Веселовский Н.И. Очерк историко-географических сведений о Хивинском ханстве. – № 5364/III., – 404<sup>a</sup>.

munosabatlar kuchayib, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotda ko'pgina o'zgarishlar bo'lgan. Jumladan, XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab bu yerda madaniy hayotning rivojlanishi, ilmiy-adabiy muhitning shakllanishi, turli sohalarga doir asarlarning yaratilishi, mahalliy san'at turlarining yanada taraqqiy topishini ko'rish mumkin.

G.I. Danilevskiy Xiva shahri aholisi haqida: "Xivadagi erkak-u ayollar soni 4000 dan ortiq emas. Ular asosan amaldorlar, dindorlar va savdogarlardan iborat. shaharliklar orasida o'zbeklar va forslar ko'pchilikni tashkil qiladi"<sup>43</sup>, deb qayd etgan.

Xiva xonligining diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlikni Muhammad Rahimxon II ning hukmronligi davrida Xivaga kelgan nemis mennonitlariga qaratilgan e'tiborda ham kuzatish mumkin. V.Girshfeld va M.N.Galkin: "Nemislar Saratov guberniyasida yashaganlar, ular 36 hovli, 142 kishi bo'lishgan. Ular Xiva xonining akasi Otajon to'radan qurilish uchun yer ijaraga olganlar"<sup>44</sup>, deb yozsalar, N.S.Likoshin esa: "Nemislar 24 hovlidan iborat, uychalari tig'iz qurilgan bo'lib, kichik, tor ko'chalarda joylashgan. Bu aholining turmushi tashqaridan qaraganda, ko'proq allaqanday kichkina nemis shaharchasining chekkasini eslatardi"<sup>45</sup> deb ta'riflagan.

Shermuhammad Munis (Munis adabiy taxallusi bo'lib, "ulfat", "do'st"ma'nosini bildiradi) 1778 yilda Xivaning Qiyot qishlog'ida badavlat oilada tug'ilgan. Otasi Avazbiy va bobokalonlari ham xon saroyida bosh miroblik vazifasida ishlagan ma'rifatparvar kishilardan bo'lgan. Munis XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida ijod qilgan atoqli tarixchi, iste'dodli shoir, tarjimon va taniqli davlat arboblardan bo'lgan. U o'zbek tilida bitilgan ajoyib tarixiy va adabiy asarlarini bizga meros qoldirgan. Fors tilida yozilgan ko'p asarlarni o'zbek tiliga mohirlik bilan tarjima qilgan. Munis Xivada madrasa ta'limini olgan, u yoshligidan ilmga, ayniqsa, tarix, adabiyot, she'riyat va

---

<sup>43</sup> Данилевский Г.И. Описание Хивинского ханства // Записки русского географического общества. – М.1851.

<sup>44</sup> Гиршфельд В., Галкин М.Н. Военно-статистическое описание Хивинского оазиса. –с. 82.

<sup>45</sup> Лыкошин Н.С. О современном состоянии Хорезмского ханства ЦГА РУз, ф.2, оп.1, д 314, л.48.

boshqa ilmlarga juda ixlos qo'ygan. Madrasada arab va fors tillarini tez fursatda mukammal egallab, o'zidan ilgari o'tgan allomalarning tarix va adabiyotga doir asarlarini zo'r havas bilan mutolaa qilgan. Munis yoshligida, ayniqsa Nizomiy, Xisrav Dehlaviy, Hofiz SHeroziy, Lutfiy, Firdavsiy, Sa'diy, Jomiy va Navoiy kabi so'z san'atkorlari ijodidan bahra olganligini mamnuniyat bilan tilga oladi. Munis otasining vafotidan keyin, 1806 yilda Muhammad Rahimxon I farmoni bilan bosh mirob vazifasiga tayinlanadi.

Munis o'z she'rlari va asarlarida saroydagi xizmatidan mamnun emasligini, umri qiyinchilikda o'tganligi, saroydagi ayrim mulozimlarning adolatsizligi, axloqsizligi, shuhratparastligi va molparastligi unda nafrat va g'azab uyg'otganligini o'kinch bilan tilga oladi. Zero, saroydagi ana shunday yaramas shaxslar Munisni har jihatdan chetlab, tahqirlab kelganlar. Lekin shunga qaramay, Munis o'zidan avval o'tgan tarixchi va shoirlarning asarlarini qunt bilan o'rgangan, xizmat vazifasidan qutilgan paytlarida olimu fozillar suhbatida ishtirok etib, ijodiy ish bilan mashg'ul bo'lib kelgan. Munis xonlikda bosh miroblik vazifasi bilan birga tarixnavislik, tarjimonlik, she'riyat va bastakorlikda ham juda shuhrat qozongan allomalardan bo'lgan. Munis 1809-yilda Muhammad Rahimxon topshirig'i bilan o'zining mashhur asari "Firdavs ul-iqbol" ("Iqbolnoma") ni yozishga kirishadi. Munis o'z asarida Xorazm tarixini Abulg'ozixonidan keyin biror alloma tomonidan yozilmaganini qayd etib tubandagilarni bayon qiladi: - "Ma'lum bo'lsinki, Xorazm diyorida podsholik qilgan CHingiz avlodining voqiyati Abulg'ozixon binni Arabxondin so'ng yozilmay qolgan ekan. SHuningdek, Eshmuhammadbiy va Muhammad Amin Inoqning davridagi voqealar ham yozilmay qolgan edi. Men (Munis) u davrda bo'lib o'tgan voqealarni kuchim yetguncha tekshirib va aniqlab yozdim". Munisning "Firdavs ul-iqbol" asari muqaddima, xotima va besh bobdan iborat bo'lib, unda Xorazm tarixining qadim zamondan to 1813-yilgacha bo'lgan ijtimoiy-siyosiy, madaniy va xo'jalik hayotiga doir voqealar qimmatli dalillar asosida bayon etilgan. Umuman, Munisning "Firdavs ul-iqbol" asarida o'zbek, turkman va qoraqalpoqlar tarixi haqida juda boy ma'lumotlar berilgan.

SHuningdek, Munis Xorazmning sugʻorilish masalalariga doir "Ornolar" asarini ham yozib qoldirgan.

Atoqli tarixchi, shoir va tarjimon boʻlgan Munis 1828-yilda vabo kasalidan vafot etadi. Uning bevaqt vafoti bilan "Firdavs ul-iqbol" ("Iqbolnoma") asari tugallanmay qoladi. Keyinchalik ushbu asar Munisning jiyani Ogahiy tomonidan davom ettiriladi va nihoyasiga yetkaziladi.

Munis va Ogahiy qalamiga mansub "Firdavs ul-iqbol" asarining bir necha qoʻlyozma nusxasi Oʻzbekiston Fanlar Akademiyasining Sharqshunoslik instituti qoʻlyozmalar fondida hamda Rossiya FA Sharqshunoslik institutining Sankt-Peterburg boʻlimida, yana bir nusxasi esa AQSHda Markaziy Osiyo instituti fondida saqlanmoqda.

Xiva xonligida shajaraviy tarixnavislik maktabi shakllangan boʻlib, uning yirik namoyondalari sifatida Shermuhammad Munis, Muhammadrizo Ogahiy va Muhammad Yusuf Bayoniylarni keltirish mumkin. Ular tomonidan yuksak mahorat bilan yozilgan tarixiy asarlar oʻz mazmuni, keltirilgan maʼlumotlarning koʻpligi va rang-barangligi bilan ajralib turadi.

Muhammadrizo Ogahiyning tarixga oid asarlaridan biri «Riyoʻz ud-davla» asari boʻlib, u 1825- yildan 1842-yilgacha Xorazmda boʻlgan voqealarni oʻz ichiga oladi. Asar Ogahiy tarafidan 1260/1844 yilda yozilgan. Ogahiy bu asarni yozishda oʻsha davr tarixchilarining anʼanasiga muvofiq hamd va naʼt bilan boshlaydi. Dastlab oʻz hayoti haqida qisqacha gapirib, Xiva xoni Olloqulixonga maqtovlar bagʻishlaydi. Undan soʻng tarix ilmiga taʼrif berib, bu asarning yozilishiga sababchi boʻlgan shaxslar haqida gapiradi. Soʻngra Olloqulixonning tugʻilishidan boshlab, to vafotigacha Xorazmda boʻlgan tarixiy voqealarni bayon etadi. Asar orqali Ogahiyning hayot yoʻli va ijodiy faoliyatini ham oʻrganish mumkin. XIX asr Xorazm tarixiga oid asosiy qoʻlyozma manbalardan yana biri 1262 (1845-1846) yili Ogahiy tarafidan yozilgan «Zubdat ut-tavorix» asaridir. Asar «Riyoʻz ud-davla» asaridan keyingi davrni, yaʼni 1843-yildan 1846-

yilgacha Xorazmda boʻlgan tarixiy voqealarni oʻz ichiga oladi.<sup>46</sup> Ogahiyning yana bir asari 1846-yildan 1855-yilgacha Xorazmda boʻlgan tarixiy voqealarni bayon etuvchi “Jome ul-voqeoti sultoni” nomli asaridir. “Gulshani davlat” Ogahiyning Xorazm tarixiga bagʻishlagan toʻrtinchi asaridir. Mazkur asarda 1856-yildan 1865-yilgacha boʻlgan voqealar oʻz aksini topgan.<sup>47</sup> Yozilish tarixi haqida muqaddimada quyidagi maʼlumotlar keltirilgan: “Bu kitob oʻquvchilarga va mutolaa etuvchilarga maʼlum boʻlsinki, men Erniyozbekning oʻgʻli Muhammadrizo mirob laqabim Ogahiy koʻp vaqtlardan beri Xorazm tarixini yozish bilan oʻz qatorlarim ichida xursand edim. Sayyid Muhammadxon davrida bu asarimni yozishga boshladim va uni “Gulshani davlat” nomi bilan atadim”.<sup>48</sup> Ogahiyning Xorazm tarixiga oid asarlaridan oxirgisi 1865- yildan 1872-yilgacha Xorazmda boʻlgan voqealarni bayon etuvchi “Shohid ul-iqbol” nomli asaridir. Asar 1872-yilgi voqealarni bayoni bilan tugagan. Asar 277 varaqdan iborat boʻlib, oʻlchovi 14x25 sm.<sup>49</sup> “Shohid ul-iqbol” asarini Ogahiy Muhammad Rahimxon II davriga atab yozishga kirishgan. Bizga maʼlumki, mazkur asarning yagona nusxasi 1873-yili saroy talon-toroji vaqtida Sankt-Peterburgga olib ketilgan. V.V.Stasov 1886-yili Xivadan keltirilgan asarlar bilan qiziqib, A.L.Kunga murojaat qilgan. A.Kun unga shunday javob yozgan: “1876-yilga qadar men Shahrisabz, Xiva va Qoʻqon harbiy safarlarida K.P.Klutlan huzurida kollektor sifatida qatnashganman. Mening qoʻlimda Xiva xonlarining toʻliq tarixi, sharq qoʻlyozmalari, qadim zamonlardan tortib to 1873- yilga qadar voqealarni bayon qilgan qoʻlyozmalar bor, lekin bularning hammasi Peterburgda saqlanmoqda va shu sababdan men ular haqida maʼlumot berolmayman”<sup>50</sup>. Xivadan olib ketilgan tarixiy asarlar oʻsha vaqtda A.L.Kunning Peterburgdagi kvartirasida saqlangan. 1882-yilda u Xiva xonlari arxivini va nodir qoʻlyozmalarni bir qismini xalq kutubxonasiga (bugungi Saltikov – Shedrin

<sup>46</sup> Атокли шоир, тарихнавис, таржимон.. – Т.: А.Қодирий, 1999. – Б.126.

<sup>47</sup> Огаҳий асарларининг тавсифи (каталог). – Т., 1986. – Б.30-31.

<sup>48</sup> Огаҳий. Гулшани давлат // Қўлёзма. ЎзФА ШИ. – № 7572. – Б. 54-55.

<sup>49</sup> Муниров К, Огаҳий. Илмий ва адабий фаолияти. –Т.: ЎзФА нашри, 1959. – Б.25-26.

<sup>50</sup> Йўлдошев М.Й. Хива хонлигида феодал ер эгаллиги ва давлат тузилиши. –Т., 1959. – Б. 19.

nomli davlat kutubxonasiga) topshirgan. Biroq uning tuhfası unchalik qimmatli sanalmay, bu hujjatlarga o'sha davrlarda unchalik ahamiyat berilmagan<sup>51</sup>.

Xonlikdan olib ketilgan ma'naviy boyliklar orasida Xiva xonlarining arxivi taqdiri ham nihoyatda achinarli bo'lgan, K.Nurjonov 1873 -yili ruslar Xivani zabt etganidan so'ng madaniy va ma'naviy merosni talon-taroj qilish jarayonida Xiva xonlari arxivi ham olib ketilgan va u Sankt-Peterburgga keltirilgach, qariyb 50 yil davomida e'tibordan chetda qolganligini yozadi. 1936-yildagina rus sharqshunosi P.Ivanov Leningraddagi Saltikov – Shedin nomli kutubxonaning katalog va rasmiy fondlarida qayd etilmagan Xiva xonlarining arxivini topishga muvaffaq bo'lgan<sup>52</sup>. Akademik M.Yo'ldoshevning yozishicha, ushbu qimmatli tarixiy manba 1873-yilgi Xiva yurishidan so'ng avval Toshkentga keltirilgan. Xiva safarida rus qo'shinlari bilan birga bo'lgan A.Kun saroydagi qo'lyozma va arxiv hujjatlarning mazmuni bilan shaxsan tanishgach general – gubernator Kaufman nomiga maxsus maktub yo'llagan va ushbu arxivni Rossiya Fanlar Akademiyasining Osiyo muzeyiga va Sankt-Peterburgdagi xalq kutubxonasiga jo'natishni so'ragan. Xiva xonining mazkur arxivi shu tariqa 1876-1882 yillarda markazga jo'natilgan. Ushbu ishning tashkilotchisi Aleksandr Kun edi. P.Ivanovning «Arxiv Xivinskix xanov» nomli asari 1940-yil e'lon qilinib, ushbu asarda tarixchi Bayoniy va rus sharqshunosi A.Kun yozib qoldirgan ma'lumotlardan ham o'n hissa ortiq ya'ni, 3000 nusxa kitob, har biri 90 varaqli katta formatli rus daftariga bitilgan Xiva arxiv materiallari topilganligini qayd etib o'tilgan.

### **1.2 Buxoro amirligi tarixi manbashunosligi**

XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab mang'it sulolasining namoyandalari hukmronlik qilgan. Buxoro amirligi mang'itlar davri tarixi turli mahalliy manbalar va ilmiy adabiyotda yoritilgan. Jumladan, Mirzo Olim Maxdum hoji o'zining «Tarixi Turkiston» nomli asarida mang'itlar sulolasining namoyandalarini taxt ustiga kelishlarini shunday bayon qiladi: «Abu-l-

---

<sup>51</sup> Ўша асар. – Б. 20.

<sup>52</sup> Нуржонов К. Маданиятимиз дурдоналарини излаб // Хоразм ҳақиқати, 1990 йил. 18 март.

Fayzxondin keyin salotini chingiziya nasli munaqqit bo‘lub, mang‘it toifasidin Abu-l-muzaffar Rahimxon ibn Hakimbiy ibn Xudoyor ibn Xudoyquli podshoh bo‘lub, SHahrisabz, Hitori Shodmon, Ko‘lob, Xo‘jand va Toshkand tasarrufidin chiqdi. Vaziri eronlik Davlat *qo‘shbegi* bo‘lub, mamlakat tamomi halli uqdi aning yadi tasarrufida edi<sup>53</sup>.

Bu sulolaning asoschisi Rahimbiy ibni Hakimbiy atoliq ibni Xudoyorxon ibn Xudoyquli biy ibn Keldiyor ibn Chovush bo‘ladi<sup>54</sup>. Sadri Ziyo Chovushni «mang‘itiya elotiyasi ichida moldor va sohibi e‘tibor kishi edi va Abdullohxon bilan zamondosh bo‘lgan», deb aytadi.

Buxoro amirligi boshqaruv ishlarida yirik sarkardalar, qo‘shin boshliqlari, qo‘mondonlar va amirlarning harbiy mahorati katta ahamiyatga ega. Amirlikda ichki va tashqi xavfni bartaraf etish, davlat sarhadlarini kengaytirish hamda qilinadigan yurishlarda qo‘shinlarning soni, harbiy tayyorgarligi, jang usullari, qurol-yarog‘lar, qo‘shin boshliqlarining harbiy mahorati kabilarga katta e‘tibor qaratganlar. Davlatda qo‘shin to‘plash, qo‘shinning ta‘minoti, uning tarkibi, qo‘shinni jangga tayyorlash, qurol-aslahalar, harbiy va qorovullik xizmatini o‘tash, harbiy harakatlarni olib borish odat tusiga kirgan. Amirlikning siyosiy hayoti, boshqaruv tartibi, ma‘muriy tuzilishi va harbiy siyosati to‘g‘risida tarixiy manbalarda ma‘lumotlar keltirib o‘tilgan<sup>55</sup>. Quyida ana shunday manbalar va ularning mualliflariga to‘xtalamiz.

“Tarixi Abulfayzxon” asarini Ubaydallaxon va Abulfayzxon (1711-1747 yy.) saroyida xizmat qilgan munajjim, shoir va tarixchi olim Abdurahmon Davlat yozgan. Muallif ko‘proq Abdurahmon Tole nomi bilan mashhur. Mazkur asar hajm jihatdan kichik, 161 varaq bo‘lib, “Ubaydullanoma”ning davomi hisoblanadi va Buxoro xonligining 1711-1723 yillar orasidagi ijtimoiy-siyosiy tarixini o‘z ichiga oladi. Ma‘lumki, XVIII asrning birinchi choragida Buxoro

---

<sup>53</sup> Мирзо Олим махдум хожи. Тарихи Туркистон. Сўзбоши ва изоҳлар муаллифи Ш. Ҳ. Воҳидов. Араб ёзувидан таъдил Ш. Воҳидов ва Р. Холикова. Масъул муҳаррир З. Чориев. Тошкент: Янги аср авлоди, 2008. – Б. 167.

<sup>54</sup> Муҳаммад-Шарифжон Садри Зиё. Силсилаи салотини манғитийа. Мажмуа. // Қўлёзма, ЎЗР ФА ШИ. – № 2193. 188<sup>6</sup> вар.

<sup>55</sup> Воҳидов Ш., Холикова Р. Марказий Осиёдаги давлат бошқарув тарихидан. Тошкент: Янги аср авлоди, 2006. – Б.24.

xonligining iqtisodiy va siyosiy ahvoli zaiflashadi, ulus boshliqlarining, ya'ni mahalliy hukmdorlarning mustaqillik uchun olib borgan harakati kuchaydi, ularning ayrimlari, masalan, Balx va Samarqand markaziy hukumatga bo'ysunmay qo'ydilar, Farg'ona XVIII asr boshlarida, 1709 -yili Ashtarxoniylar davlatidan ajralib chiqdi va o'lkada mustaqil Qo'qon xonligi tashkil topdi, 1722-yili Samarqand ham mustaqillik e'lon qildi va Rajabxon ismli kimsani xon qilib ko'tardilar (1722-1728 yy.), o'zaro urushlar boshlanib ketdi.<sup>56</sup> “Tarixi Abulfayzxon” asarida mana shu masalalar keng yoritib berildi. Bundan tashqari, asarda Buxoro xonligining ma'muriy tuzilishi, harbiy san'ati va taktikasi hamda o'zbek xalqining o'sha yillardagi etnik tarkibi haqida ham ayrim, diqqatga sazovor dalil va ma'lumotlar bor. “Tarixi Abulfayzxon”ning to'la ruscha tarjimasi, zarur izohlar bilan 1959-yili A.A.Semenov tarafidan Toshkentda nashr qilingan.

“Silsilat us-salotin” Xoji Mir Muhammad Salimning asaridir. Uning qo'lyozma nusxalari juda kamyob bo'lib, bir nusxasi Angliyaning Oksford shahridagi Bodli kutubxonasida (raqami № 269) saqlanmoqda. “Silsilat us-salotin” asarini Nosiruddin Muhammadshohning topshirig'i bilan yozgan. “Silsilat us-salotin” 1731-yilda yozilgan bo'lib, muqaddima va to'rt qismdan iborat. Muqaddimada asarning yozilishi haqida so'z boradi va muallifning 1711-yildan keyingi hayoti haqida ayrim, diqqatga sazovor ma'lumotlar keltiriladi.

“Silsilat us-salotin”ning III-IV qismlari favqulodda ahamiyatga ega bo'lib, O'rta Osiyo, xususan O'zbekistonning XVI-XVIII asrning birinchi choragidagi ijtimoiy-siyosiy tarixini bayon qiladi. Asarda Buxoro xonligining Eron, Hindiston va Koshg'ar bilan bo'lgan aloqalari, Buxoro xonligida hokimiyatning Shayboniylardan Ashtarxoniylar qo'liga o'tishining aniq tafsiloti, XVII asrda Balx va Badaxshon, shuningdek, O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy, harbiy siyosati va madaniy hayoti, Shohijahonning Balx va Buxoro xonligi ichki ishlariga qurolli aralashuvi va Boburiylar qo'shinining Balx va unga tobe bo'lgan yerlarni bosib olishi davomida qo'llanilgan harbiy san'at turlari, Xoji

---

<sup>56</sup>. Ахмедов Б. А. Ўзбекистон тарихи манбалари. - Тошкент: “Ўқитувчи”. 2001. Б. 45

Mir Muhammad Salim Buxoro xonlari, Abdullaxon II, Abdulmo‘minxon, Dinmuhammadxon, Imomqulixon, Abdulazizxon, Subhonqulixonning Hindiston, Eron va Turkiya hukmdorlari bilan yozishmalarining 20 nafar maktubi nusxalarini ham keltirgan. Bu maktublar, shubhasiz, Buxoro xonligi bilan mazkur mamlakatlar o‘rtasidagi munosabatlar tarixini o‘rganishda ahamiyatlidir.<sup>57</sup>

“Tuhfat ul-xoniy” (“Xonning tuhfası”) yoki “Tarix Rahimxoniy” (“Muhammad Rahimxon tarixi”) nomli asar Buxoro xonligining 1722-1782 yillar orasidagi ijtimoiy-siyosiy tarixini o‘z ichiga oladi. Uni tarixchi olim Muhammad Vafoyi Karminagiy (1685-1769 yy.) yaratgan. Tarixchining to‘la nomi Mulla Muhammad Vafo ibn Muhammad Zohir Karminagiy bo‘lib, Buxoroning o‘qimishli va taniqli kishilaridan biridir. Karminagiy nisbasiga qaraganda, asli Buxoroning Karmana tumanidan bo‘lgan. “Ubaydullanoma” kitobining muallifi Mir Muhammad Amin Buxoriyning guvohlik berishicha, Muhammad Vafoyi Karminagiy Ashtarxoniylardan Ubaydullaxon saroyida kitobdor bo‘lib xizmat qilgan. Mulla Muhammad Vafo Karminagiy “qozi Vafo” nomi bilan ham mashhurdir. U qozilik lavozimiga yangi sulola-Mang‘itlar sulolasining asoschisi Muhammad Rahimxon (1753-1759 yy.) zamonida erishgan.

Muhammad Vafo Karminagiy 1769-yili “Tuhfat ul-xoniy” nomli asarida faqat 1722-1768 yil voqealarini o‘z ichiga olgan qisminigina yozib ulgurgan, xalos. Uning davomini, ya’ni 1768-1782 yillar voqealarini bayon etuvchi qismini nasaflik domla Olimbek ibn Niyozqulibek yozgan. Asar mang‘it hukmdorlarining uluslar va qabilalarni bo‘ysundirish maqsadida olib borgan tinimsiz urushlari va uning asosiy sabablarini aniqlashga yordam beradi. Asarda yana o‘zbek qavmlari, ulug‘lari va ularning ijtimoiy-siyosiy hayotda tutgan o‘rni, Ashtarxoniylar va Mang‘itlar hukmronligi davrida o‘zbek qo‘shini va mang‘itlar davlatining tuzilishi, 1722-1782-yillarda Buxoro xonligining Eron, Afg‘oniston, Qozoq va Qo‘qon xonliklari hamda Koshg‘ar bilan olib borgan

---

<sup>57</sup> Мадраимов А., Фузайлова Г. Манбашунослик. Тошкент. 2008. - Б. 123.

siyosiy munosabatlari haqidagi ham e'tiborga molik ma'lumotlar ko'p uchraydi. "Tuhfat ul-xoniy" asarining qo'lyozma nusxalari ko'p. Masalan, faqat Sankt-Peterburg, O'zbekiston, Tojikiston kutubxonalarida undan 23 qo'lyozmasi mavjud. Asar biron tilga to'la tarjima qilinmagan ham. Asardan kichik bir parcha, ya'ni Muhammad Rahimxonning 1747-yili Saraxs atrofida Eron qo'shinlari bilan to'qnashuvi va jang olib borish uslubi rus tilida 1938-yili e'lon qilingan.<sup>58</sup>

"Tarixi Amir Haydar" XVIII asrning ikkinchi yarmi va XIX asrning birinchi yarmida o'tgan buxorolik olimlar asaridir. Kitobning noma'lum muharrir tomonidan qisqartirilgan nusxasi yetib kelgan bo'lib, qo'lyozma O'zRFA Sharqshunoslik institutida 1836 raqami ostida saqlanmoqda. "Tarixi Amir Haydar" kichik hajmdagi asar, jami 96 varaqdan iborat, muhim tarixiy manbalar asosida yozilgan, Buxoro xonligining Ashtarxoniylar, shuningdek, asosan, Mang'itlar sulolasidan bo'lgan amir Haydar hukmronligi (1800-1826 yy.) davridagi ijtimoiy-siyosiy tarixini o'z ichiga oladi. Asar 81 bob yoki dostonidan iborat. 7-81-boblarida Buxoro amirligi amirzoda Haydarning tug'ilishidan to uning 1826-yil 6-oktyabridagi vafotigacha bo'lgan tarixi hikoya qilinadi. Kitob 50- yillarda A.A.Semenov tomonidan rus tiliga tarjima qilingan.

"Fathnomayi sultoniyy" ("Sulton fathnomasi") asari muallifi Mir Olim Buxoriy bo'lib, kitobini Amir Nasrulloh davri (1826/27 – 1869/79 yy.)da G'uzor hokimi bo'lgan Muhammad Olimbekning xizmatida bo'lgan va uning topshirig'i bilan yozgan. "Fathnomayi sultoniyy" amir SHohmurod (1785/86-1800 yy.) davridan to Nasrulloh hukmronligining dastlabki yillarigacha Buxoro amirligida bo'lib o'tgan voqealarni o'z ichiga oladi, lekin Shohmurod va amir Haydar davrlari qisqacha<sup>59</sup> Nasrulloh davri esa batafsil yoritilgan. Mazkur qo'lyozma asarning birinchi jildi bo'lib, ikkinchisi bizga ma'lum bo'lmagan sabablarga ko'ra yozilmay qolgan. "Fathnomayi sultoniyy"ning birinchi qismi

<sup>58</sup> Рукописная книга в культурах народов Востока. Книга первая.-Москва: "Наука". 1987.-С. 330-406.

<sup>59</sup> ЎЗР ФА ШИ қўлёзмаси, инв. № 1838, вв. 76-556

marhum O.D.Chexovich tarafidan rus tiliga tarjima qilingan. Tarjima qo‘lyozmasi O‘zR FA Sharqshunoslik instituti kutubxonasida saqlanmoqda.<sup>60</sup>

”Tarjimai ahvoli amironi Buxoroyi sharif az amir Doniyol to asri amir Abdulahad” (“Buxoroyi sharif amirlarining tarjimai ahvoli. Amir Doniyoldan to amir Abdulahadgacha”) asarining muallifi Ahmad Donish yoki Ahmad Kalla nomi bilan mashhur bo‘lgan, XIX asrda ko‘zga ko‘ringan mutafakkir shoir, adib, olim va diplomatdir. Ahmad Donish sermahsul ijodkor bo‘lib, ilohiyot, ilmi nujum, geografiya, adabiyot va tarixga oid 20 ga yaqin asar yozib qoldirdi. “Manozir ul-kavokib” (“Sayyoralarning manzaralari”), “Navodir ul-vaqoe” va ”Tarjimai ahvoli amironi Buxoroyi sharif” (1885-yildan keyin yozilgan) asarlari ana shular jumlasidandir. O‘zbekistonning XIX asrdagi ijtimoiy-siyosiy hayotini o‘rganishda olimning so‘nggi asari katta ilmiy ahamiyatga ega. Kitobda katta so‘z boshi, sayyoralarning inson taqdiridagi ahamiyati, din va uning jamiyatdagi o‘rni to‘g‘risidagi fikrlardan keyin qisqa tarzda amir Doniyol (1758-1785 yy.), Shohmurod (1785-1800 yy.), Haydar va amir Nasrulloh hukmronligi yillarida bo‘lib o‘tgan voqealar bayon etilgan. Asarning katta va so‘nggi qismi amir Muzaffarga bag‘ishlangan. ”Tarjimai ahvoli amironi Buxoroyi sharif” asarining qo‘lyozma nusxalari Toshkent, Samarqand, Buxoro kutubxonalarida mavjud. Asarning matni A.Mirzoev tomonidan chop etilgan. 1960-yili kitobning qisqartirilgan ruscha tarjimasi Dushanbeda nashr qilingan.<sup>61</sup>

“Tarixi salotini Mang‘itiya” (“Mang‘it sultonlarining tarixi”) asari buxorolik mashhur tarixchi olim va shoir Mirzo Abduazim Somiy Bo‘stoniy (1838/39-1914 yildan keyin) qalamiga mansubdir. Somiyning “Tuhfayi shohiy” (“Podshohning tuhfasi”), “Tarixi salotini Mang‘itiya” asarlari tarix ilmi uchun ahamiyatlidir. 1900-1902 yillar orasida yozilgan “Tuhfayi shohiy” va 1907-yili yozib tamomlangan “Tarixi salotini Mang‘itiya” bir davr, Buxoro xonligining amir Muzaffar davridagi tarixga bag‘ishlangan. Biroq ular ma’lum darajada bir-biridan farq qiladi.

---

<sup>60</sup>Мадраимов А., Фузаилова Г. Манбашунослик. Тошкент. 2008.- Б. 125.

<sup>61</sup> Аҳмедов Б. А. Ўзбекистон тарихи манбалари. - Тошкент: “Ўқитувчи”. 2001. Б. 45

“Tarixi salotini Mang‘itiya” esa nisbatan xolisona yozilgan. Asarning ilmiy ahamiyati shundaki, unda Buxoro amirligining iqtisodiy va siyosiy ahvoli, shuningdek, Buxoro-Rossiya munosabatlari birmuncha keng yoritilgan. Kitobning qo‘lyozma nusxalari ko‘p. Uning o‘zbekistonlik olimi L.M.Epifanova tomonidan qilingan ruscha tarjimasi, so‘zboshi va zarur izohlari bilan birga, 1962-yili Moskvada chop etilgan.<sup>62</sup>

“Tarixi Salimiy” (“Salimiyning tarixi”) asari muallifi XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning birinchi choragida o‘tgan Mirza Salimbek bo‘lib, uning to‘la ismi Mirza Salimbek ibn Muhammad Rahimdir. Olim 1850-1851 yillari Buxoroyi sharifda badavlat va nufuzli xonadonda tavallud topgan. Mirza Salimbek bir necha yirik tarixiy asar yozib qoldirgan. «Tarixi Salimiy» shular jumlasidandir.

Tarixchilar uchun eng muhimi uning so‘nggi asari «Tarixi Salimiy»dir. N.Norqulovning fikriga qaraganda, XX asrining 20- yillarida yozilgan. Uning bosh qismi, Chingizxondan to amir Muzaffar davrigacha bo‘lgan tarix umumlashtiruvchi xarakterga ega. Asarning 1860-1920 yillar voqealarini o‘z ichiga olgan katta qismi butunlay yangi bo‘lib, muallifning o‘zi bu voqealarning guvohi bo‘lgan. Asarda amir Muzaffar davrida Hisor, Ko‘lob, Baljuan, Qorategin va Darvozda bo‘lib o‘tgan voqealar, Buxoro-Qo‘qon va Buxoro-Rossiya munosabatlari, shuningdek, Buxoro amirligining XIX asrning ikkinchi yarmidagi umumiy ahvoli va ma‘muriy tuzilishi haqida qimmatli ma‘lumotlar bor.

Yuqorida keltirilgan tarixiy asarlar Buxoro amirligining siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy hamda harbiy san‘ati to‘g‘risida asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Jumladan, ushbu manbalarda XVIII asrning ikkinchi yarmi – XIX asr boshlarida Buxoro amirligining ichki va tashqi siyosati, o‘zaro munosabatlarda harbiy qo‘shin muhim ahamiyat kasb etgan.

---

<sup>62</sup> Б.А.Ахмедов. Историко-географическая литература Средней Азии. ХУ1-ХУ111 вв. (Писменные памятники).-Ташкент: “Фан”, 1985. С.56.

Buxoro tarixchilarining asarlari, jumladan, qozi Homid Baqoxo‘ja o‘g‘li, Mir Muhammad Siddiq ibni amir Muzaffar «Hashmat», Muhammad Sharif ibni qozi Abdushukur qozi kalon Sadri Ziyolarning muhim va tarixiy ma‘lumotlarga boy bo‘lgan asarlari, ayniqsa Buxoroning oxirgi qozikaloni Sadri Ziyoning (1867-1932) va Hashmatning ilmiy-adabiy meroslari bizni qiziqtirayotgan masalalarni yechishga yaqindan yordam beradi. Sadri Ziy tomonidan yozilgan asarlardan «Zikri salatanati podshohoni mang‘it dar Mavorounnahr» (Mavorounnahrda hukm surgan mang‘it podshohlarining zikri), «Ro‘znoma» (Kundalik)<sup>63</sup>, Muhammad Ali ibni Muhammad Sayid Baljuvoni qalamiga mansub "Tarixi nofei" (Foydali tarix) nomli asari topilganini olimlar ta‘kidlaydilar<sup>64</sup>. "Tarixi nofei" Buxoro amirligi tarixiga oid muhim manba bo‘lib<sup>65</sup>, unda mang‘itlar sulolasi davrida Buxoro mamlakatining boshqaruv tartibi, ma‘muriy tizimi, ichki nizomi, amal va mansablarning joriy etilishi va boshqa masalalar keng yoritilgan<sup>66</sup>.

Buxoro amirligi boshqaruv ishlarida yirik sarkardalar, qo‘shin boshliqlari, qo‘mondonlar va amirlarning harbiy mahorati katta ahamiyatga ega. Amirlikda ichki va tashqi xavfni bartaraf etish, davlat sarhadlarini kengaytirish hamda qilinadigan yurishlarda qo‘shinlarning soni, harbiy tayyorgarligi, jang usullari, qurol-yarog‘lar, qo‘shin boshliqlarining harbiy mahorati kabilarga katta e‘tibor qaratganlar. Davlatda qo‘shin to‘plash, qo‘shinning ta‘minoti, uning tarkibi, qo‘shinni jangga tayyorlash, qurol-aslahalar, harbiy va qorovullik xizmatini o‘tash, harbiy harakatlarni olib borish odat tusiga kirgan. Amirlikning siyosiy

---

<sup>63</sup> Садри Зиё меросини Ўзбекистонда ўрганиш яқин йилларда бошланди. Қар.: Vohidov Shodmon, Erkinov Aftondil. Le fihrist (catalogue) de la bibliothe`que de Sadr-I Ziya : une image de la vie intellectuelle dans le Mavarannahr ifin XIX - de`but XX sie`cles // Cahie d` Asie Centrale. № 7, 1999, – P.141-173; Вахидов Ш., Чориев З. Садри Зия и его библиотека. Из истории книги и книжной культуры в Бухаре в начале XX века. Серия «Книги, библиотеки, каталоги». Т.: Янги аср авлоди, 2007. – 352 с.

<sup>64</sup> Вохидов Ш. "Тарих-и нофеи" Бухоро амирлиги тарихига оид муҳим манба. // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. 1997. №№ 9-10-11; Яна қар.: Мухаммад Али Балжувоний. Тарихи Нофеии. (Тожиқ тилидан таржима, сўзбоши ва изоҳлар муаллифлари Ш.Воҳидов, З.Чориев)-Тошкент: Академия, 2001. – 94б.

<sup>65</sup> Мухаммад Али ибн Мухаммад Сайид Балжувони. «Тарих-и нофеи». – Душанбе, 1994. – 120 бет.

<sup>66</sup> Вохидов Ш. "Тарих-и нофеи" Бухоро амирлиги тарихига оид муҳим манба. // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. 1997. №№ 9-10-11.

hayoti, boshqaruv tartibi, ma'muriy tuzilishi va harbiy siyosati to'g'risida tarixiy manbalarda ma'lumotlar keltirib o'tilgan<sup>67</sup>.

### **1.3 Qo'qon xonligi tarixi manbashunosligi**

XVIII asrning boshlarida Farg'ona vodiysida shakllangan yangi davlat – Qo'qon xonligiga mahalliy aholi vakillari bo'lgan ming urug'i asos soldi. Chunonchi, XVII asrning oxiri – XVIII asr boshlarida ashtarxoniylarning siyosiy va ijtimoiy hayotida yuz bergan tushkunlik, Farg'ona vodiysi iqtisodiy mustaqilligining o'sishi hamda 1704-yilda Chodak xo'jalarining isyon ko'tarib, Farg'onaning bir qismini egallashi bunga shart-sharoit yaratib berdi. Ammo, Farg'onaning shimoli va shimoli – g'arbidagi Koson, Asht, Chodak hududlari xo'jalar qo'l ostida bo'lsa – da, ular mustaqil davlatga asos sola olmadilar.

Ma'lumotlarga ko'ra, ming urug'ining boshlig'i, taxminan 1669-1670 yillarda tug'ilgan Shohruhbiy ibn Ashur Muhammad (1709-1721 yy.) Chodak xo'jalari qo'lida bo'lgan siyosiy hokimiyatni kuch bilan tortib olib, 1709-1710 yilda Farg'ona vodiysidagi minglar sulolasi hukmronligiga asos soldi. Ammo, uning hokimiyati hali ashtarxoniylardan to'la yoki batamom mustaqil emas edi. Chunki, manbalarda Shohruhbiyning nomi ashtarxoniy Abulfayzxondan so'ng tilga olinib, Shohruhbiyga Buxoro xoni tomonidan otaliq unvoni berilgani eslatiladi. Bu haqda tadqiqotchilarning ham fikrlari munozaralidir. Nima bo'lganda ham, Shohruhbiy Buxoro xonligidan mustaqil ravishda (nisbatan bo'lsa ham) siyosat olib borishga harakat qilib, minglar sulolasi tasarrufidagi yerlarni kengaytira boshladi. Shohruhbiy hukmronligi davrida Qo'qon, Namangan, Marg'ilon, Konibodom, Isfara va ularning atroflaridagi qishloqlar minglar sulolasi qo'lida bo'lgan.

Shohruhbiyning o'g'li va vorisi Muhammad Abdurahimbiy (1721-1733 yy.) taxtga o'tirganidan so'ng minglar tasarrufidagi yerlar yana kengaya boshladi. Abdurahimbiy 1724-yilda Andijonni, 1725-yilda Xo'jandni, 1726-yilda O'ratepani bosib olib, xonlik hududlariga qo'shib oldi. U qisqa muddat

---

<sup>67</sup> Вохидов Ш., Холикова Р. Марказий Осиёдаги давлат бошқарув тарихидан. Тошкент: Янги аср авлоди, 2006. – Б.24.

bo'lsa-da Buxoroga qarashli Samarqand va Kattaqo'rg'onni egallab, Shahrisabzga ham tahdid solgan. Abdurahimbiy Qo'qon (Xo'qand) qishlog'i o'rni va atrofida yangi shaharga (dastlab Qal'ai Rahimbiy deb nomlangan, keyin esa Qo'qon) asos soladi va bu shahar xonlikning poytaxtiga aylanadi.

XIX asrda Xorazmda yozilgan tarixiy asarlarda Qo'qon xonligi bilan bo'lgan diplomatik munosabatlarga oid materiallar ham keltirilgan. Jumladan, 1259/1843 yili «zu-l-qa'da oyining o'n to'rtida chahorshanba kuni Rahimquli Xo'qand elchisi Qorabosh dodxohg'a Bobobekni elchilik yo'suni bila qo'shub, muhabbatnoma bilan Xo'qand viloyatiga yubordi»<sup>68</sup>.

1733-1750 yillarda hukmronlik qilgan Muhammad Abdulkarimbiy ibn Shohruhbiy asosiy e'tiborini mudofaa ishlariga qaratdi. U xonlikning poytaxti Qo'qonda Isfara, Qatag'on, Marg'ilon, Haydarbek nomli darvozalar qurdirib, shahar atrofini mustahkam devor bilan o'ratib oldi. Shu bilan birga u 1741-1745 yillardagi qalmoqlar (jung'orlar) ning Farg'onaga qilgan hujumlariga zarba berdi. Abdulkarimbiy qalmoqlarga qarshi kurashda qirg'iz-qipchoqlar va O'ratepa hokimi Fozilbiy yuz yordamiga tayandi hamda xonlik mustaqilligini saqlab qoldi.

Abdulkarimbiy 1750-yilda vafot etganidan so'ng xonlik taxtiga uning o'g'li Abdurahmon o'tirdi. Ammo, u taxtga to'qqiz oy o'tirib, so'ng Marg'ilonga hokim etib jo'natildi hamda taxtga Abdurahimbiyning ikkinchi o'g'li Erdonabiy o'tirdi. 1753-yilda qalmoqlarning tazyiqi va talabi bilan ularning qo'lida garov sifatida ushlab turilgan Bobobek xonlik taxtiga ko'tarildi. Lekin, oradan bir yil ham o'tmay O'ratepa yurishi vaqtida Bobobek Beshariqda o'ldirildi hamda Erdonabiy (1755-1769 yy.) qayta Qo'qon taxtini egalladi. Xitoylik geograflarning ma'lumotlariga ko'ra, uning hukmronligi davrida, 1759-1760-yillarda Farg'ona to'rtta mulk: Andijon, Namangan, Marg'ilon va Qo'qonga bo'lingan bo'lib, ular ichida Qo'qon yetakchilik qilgan. Erdonabiydan so'ng taxtga Shohruhbiyning uchinchi o'g'li Shodibekning farzandi

---

<sup>68</sup> Веселовский Н.И. Очерк историко-географических сведений о Хивинском ханстве. – № 5364/III., – 404<sup>a</sup>.

Sulaymonbek o'tiradi. Uning taxtni egallashida urug' oqsoqollarining ko'magi katta bo'lgan bo'lsada u atigi 6 oy hukmdorlik qildi.

1770-yilda Qo'qon taxtiga Abdurahmonbiyning o'g'li Norbo'tabiy (1770-1801 yy.) o'tiradi. Norbo'tabiy markaziy hokimiyatni mustahkamlashda, bo'ysunmas hokimlar qarshiligini bostirishda nisbatan muvaffaqiyat qozonadi. U Chust va Namangandagi g'alayonlarni bostirganidan so'ng, bu shaharlarga o'z odamlarini hokim etib tayinlaydi. Norbo'tabiy bir qancha urinishlardan so'ng Andijon, O'sh, Xo'jand va yaqin atrofdagi qo'shni hududlarni bosib oladi. U 1799-yilda Toshkentni ham bosib olishga harakat qildi, ammo, uning yuborgan qo'shinlari mag'lubiyatga uchradi.

Norbo'tabiydan so'ng uning o'g'li Olimxon (1801-1810 yy.) taxtga o'tirib, Qo'qon xonligining siyosiy qudratini mustahkamlash, mamlakat hududlarini kengaytirishga alohida e'tibor berdi. Natijada Qo'qon xonligining siyosiy mavqei oshib bordi. Olimxon davriga kelib Qo'qon xonligidagi davlat boshqaruvi oldingi davlatlar boshqaruv tizimidan deyarli farq qilmas edi. Uning davrida Qo'qon davlati kuchayib borishi bilan davlatning siyosiy maqomi ham o'zgaradi. Agar Qo'qonning dastlabki hukmdorlari "biy" va "bek" unvoni bilan mamlakatni idora qilgan bo'lsalar, Olimxon davridan boshlab (1805-yil) hukmdorlar rasman "xon" deb yuritila boshlandi.

O'z davrida Olimxon harbiy yurishlar qilib o'ziga yangi viloyatlarni, jumladan, Ohangaron vohasi, Toshkent, Chimkent, Turkistonni bo'ysundirishga muvaffaq bo'ldi. Qisqa muddat O'ratepani ham egalladi, Jizzax va Zominga yurishlar qildi. Harbiy islohatlar o'tkazib, markazlashgan va kuchli davlat tuzish uchun harakat qilayotgan Olimxonning siyosatidan norozi bo'lgan ayrim zodagonlar guruhi unga qarshi fitna tayyorlay boshladilar. Olimxon o'z hokimiyatini mustahkamlash maqsadida ukasi Rustambekni, bir nechta sarkardalarni, din peshvolarini o'ldirtirib yuboradi. Manbalarning ma'lumot berishicha, bu voqealardan so'ng kuchayib ketgan fitnachilarga Olimxonning ukasi Umarbek boshchilik qilgan. Natijada, 1810-yilda Olimxon Toshkentdan

Qo‘qonga qaytayotganda, Oltiqush mavzesida o‘g‘li Shohruhbek bilan birga Qambar Mirza tomonidan otib o‘ldiriladi.

Manbalarga ko‘ra, Umarxon (1810-1822 yy.) hukmdorligi davrida yirik yer egalari, harbiy sarkardalar va ruhoniylarning mavqei yanada oshadi. U davlat boshqaruvi ishlarida izchil tartib, qonun – qoidalar o‘rnatdi va diniy ishlarni tartibga soldi. Natijada, 1818-yilda Umarxon ruhoniylarning roziligi bilan “amir al-muslimin” unvonini olib ham diniy, ham dunyoviy hokimiyatga ega bo‘ladi.

Muhammad Hakimxon ma’lumotlariga ko‘ra, Umarxon davrida Amir Temur va Sulton Husayn Boyqaro zamoniga taqlidan unvon va lavozimlar joriy etilib, ularga hokimiyatga yaqin shaxslar tayinlanadi. Shuningdek, Olimxon zulmidan qochib ketgan ayrim amaldorlar Umarxon xizmatiga qaytib kelib, lavozimlarni egallaydilar.

XIX asrda Xorazmda yozilgan tarixiy asarlarda Qo‘qon xonligi bilan bo‘lgan diplomatik munosabatlarga oid materiallar ham keltirilgan. Jumladan, 1259/1843 yili «zu-l-qa’da oyining o‘n to‘rtida chahorshanba kuni Rahimquli Xo‘qand elchisi Qorabosh dodxohg‘a Bobobekni elchilik yo‘suni bila qo‘shub, muhabbatnoma bilan Xo‘qand viloyatiga yubordi»<sup>69</sup>. Yoki «1260 1844 yili jumodi-l-avval oyining o‘n to‘qqizida juma kuni Xo‘qandga ketgan elchilar, ya’ni Bobobek va Yaxshimurodbek mazkur viloyatning hukmroni Sheralixonning qo‘shg‘on elchisi Qorabosh dodxoh va yuborgan tuhfalarin Xivaga keltirdilar»<sup>70</sup>.

Manbalarning guvohlik berishiga qaraganda, Qo‘qon xonligining O‘rta Osiyo mintaqasidagi siyosiy jarayonlar va o‘zaro munosabatlarga faol aralashuvi ham Umarxon davridan boshlanadi. O‘z darvida Umarxonning elchilari Xiva, Xitoy va Turkiya davlatlariga jo‘natilganligi ma’lum.

N.Petrovskiy Umarxon hukmronligi davri haqida quyidagi ma’lumotlarni beradi: “Umarning xonligi ham oldingi xonlarnikidek davom

<sup>69</sup> Веселовский Н.И. Очерк историко-географических сведений о Хивинском ханстве. – № 5364/III., – 404<sup>a</sup>.

<sup>70</sup> Огахий. Огахий. Зубдат ут-таворих // Қўлёзма. ЎзФА ШИ. – № 5364/III, 405<sup>a</sup> вар.

etdi, ya'ni, u o'z yerlarini kengaytirdi. Bu xon davrida Turkiston viloyati musulmonlarning Hazrat (Sulton al-orifin Ahmad Yassaviy dafn etilgan Turkiston) shahri bilan birga zabt etildi. Umarxon xalq sevib ardoqlagan xonlardan biri bo'ldi. Qo'qonda ikki qator she'r tarqalgan bo'lib, unda Umarxon haqida juda iliq va yaxshi so'zlar aytilar edi".

1822-yilda Umarxon kasallanib vafot etganidan so'ng taxtga uning o'g'li Muhammadalixon (Madalixon, 1822-1842 yy.) o'tiradi. Uning hukmronligi davrida Qo'qon xonligining hududi yanada kengayib, qirg'izlarning ba'zi tumanlari xonlikka qo'shib olinadi hamda Ko'lob, Hisor, Badaxshon, Darvoz, Maschoh kabi viloyatlar Muhammadalixon hukmronligini tan oladilar.

Manbalarga ko'ra, Muhammadalixon hukmronligining dastlabki yillari yaxshi va odilona kechgan. U 1826-1831 yillar davomida Qashg'arga yurishlar qilib, bu yerdagi musulmonlarni xitoyliklar zulmidan ozod qildi hamda 70 ming uyg'ur musulmonlarini Andijon viloyatiga ko'chirib keltirdi. Natijada din peshvolari Muhammadalixonga "G'oziy" ("din homiysi", "din yo'lida kurashuvchi") unvonini berdilar.

1840-yilda Muhammadalixonning bosh maslahatchisi, davlatni boshqaruv ishlarida katta tajribaga ega bo'lgan Haqquli mingboshining tuhmatga uchrab xon tomonidan qatl etilishi shusiz ham qaltis bo'lib turgan vaziyatni yanada keskinlashtirib yubordi. Undan tashqari xon davlat ishlariga loqayd bo'lib, asosiy vaqtini haramida o'tkaza boshladi. Natijada davlatni boshqaruv ishlarida suiste'molliklardan umumiy noroziliklar boshlanib, xonni ag'darish uchun fitna tayyorlana boshlandi.

Lekin o'z kuchlari bilan fitnani amalga oshirishga ko'zi yetmagan bir guruh Qo'qon amaldorlari boshqa xon saylash maqsadida Buxoro amiri Nasrulloga noma yozib, undan yordam so'rashdi. Qo'qon yurishi uchun bahona topolmay turgan Amir Nasrullo bu taklifni tezda qabul qilib, 1842-yil aprelda Qo'qonni bosib oldi. Qo'qondan oilasi bilan Namangan tomonga qochgan Muhammadalixon tutib keltirilib, oilasining bir qismi bilan qatl ettirildi.

Amir Nasrullo Qo‘qon xonligining Buxoroga qo‘shib olinganligini e‘lon qilib, Qo‘qonda o‘z noibi Ibrohim dodhoh Mang‘itni qoldiradi. Ammo, Ibroxim dodhohning Qo‘qon xalqiga o‘tkazgan jabr-zulmi, soliqlarning haddan tashqari oshib ketishi natijasida aholi qo‘zg‘olon ko‘tarib, Buxoro hukmronligidan ozod qilish uchun qipchoqlarni yordamga taklif etadilar. Qipchoqlar Muhammadalixonning qarindoshi Sherali boshchiligida Qo‘qonga kelib, buxoroliklarni tor-mor etdilar hamda Sheralixon (1842-1845 yy.) taxtni egalladi. Qipchoqlar esa shu vaqtdan boshlab uzoq vaqt xonlikda yetakchi mavqega ega bo‘ldilar.

Qo‘qonda bo‘lgan voqealardan xabar topgan amir Nasrullo 1842 -yilning kuzida yana Qo‘qonga yurish qildi, ammo bu safar unga omad kulib boqmadi. Muhammadalixon davrida yuzboshi bo‘lgan Musulmonquli qipchoq Nasrulloning ishonchiga kirib Qo‘qonga keladi va qo‘qonliklarni taslim bo‘lishga ko‘ndirish o‘rniga bir tan - bir jon bo‘lib amir Nasrulloga qarshi kurashga chorlaydi. Uning maslahatiga ko‘ra Qo‘qonda himoya vositalari kuchaytirildi. Bir oydan ziyodroq Qo‘qonni qamal qilgan amir Nasrullo o‘ziga qarshi suiqasd uyushtirilayotligi hamda xivaliklar chegaraga joylashgan Buxoro qishloqlariga hujum qilayotganligi haqidagi xabarni olib Buxoroga qaytishga majbur bo‘ldi.

Buxoroliklarning ketishi bilan Qo‘qon xonligida bir muddat tinchlik va osoyishtalik hukm surdi. Sheralixon keksa odam bo‘lib oqko‘ngil va muloyim inson edi. Uning davrida barcha davlat lavozimlarini qipchoqlar egallab, davlat boshqaruvini o‘z qo‘llariga oldilar. Ammo, 1845-yilda Buxoroda bo‘lgan Olimxonning o‘g‘li Murodxon (Qo‘qonda 11 kun xon bo‘lgan) amir Nasrulloning yordami bilan Qo‘qonga kelib Sheralixonni qatl etadi va taxtni egallaydi. Bu paytda Namanganda bo‘lgan mingboshi Musulmonquli bu voqeadan xabardor bo‘lgach Sheralixonning besh o‘g‘lidan biri Xudoyorxonni olib Qo‘qonga keladi hamda uni xonlik taxtiga o‘tqazadi (1845-1853, 1863, 1865-1875 yy.). 16 yoshga kirgan Xudoyorxonning yoshligidan foydalangan Musulmonquli mamlakatni deyarli o‘zi boshqardi. Xudoyorxonning birinchi

xonligi davrida ikkita kuch – o‘troq aholi va ko‘chmanchi turkiy qabilalar o‘rtasidagi hokimiyat uchun kurash xonlikning asosiy muammosiga aylandi.

XIX asrda Qo‘qonda tarixnavislik sezilarli ravishda o‘sib borganini ko‘ramiz. Oldinlari yozilgan bir necha tarixiy asarlar fors va arab tillaridan o‘zbek tiliga tarjima qilindi va Qo‘qon xonligiga oid yangi kitoblar yozildi. Bu yangi asarlarning o‘ziga xos xususiyatlari ham bor edi, ularning ayrimlari she‘riy yoki qisman she‘riy yo‘lda yozildi. Bu esa qo‘qonlik tarixchilarning adabiyotni yaxshi bilibgina qolmay, o‘zlari ham she‘riyatda qalam tebratganliklarini ko‘satadi. Ayrimlari esa o‘z davrining mashhur shoiralaridan bo‘lgan. Ayrim mualliflar asli qo‘qonlik bo‘lishmasa ham, ammo ko‘p vaqtlar Qo‘qon shahrida yashab shu yerda o‘z asarlarini yozganlar.

Qo‘qon tarixnavislari qatorida Abdulkarim Fazliy Namangoniyni keltirish joiz. U Umarxonning topshirig‘i bilan “Shohnoma” (“Umarnoma”, “Zafarnoma”) ni yozgan. Bu Umarxon davriga oid she‘riy (5000 baytdan ko‘proq) tarixiy asar bo‘lib, 1822-yil may oyida tamomlangan. “Shohnoma”da Norbo‘tabiy, Olimxon hukmronlik qilgan davrlar qisqa bayon qilinib, Umarxon davri esa to‘liq keltirilgan.<sup>71</sup>

Shunday rivoj holatini madaniyat sohasida ham ko‘rish mumkin. To‘g‘ri, mamlakatning uchga bo‘linib ketishi, siyosiy qarama-qarshiliklar va ayniqsa, Rossiya bosqini tufayli siyosiy mustaqillikning qo‘ldan ketishining umumiy manzarasida bu sohadagi ahvol ilgarigi, masalan, temuriylar zamonidagi kabi bo‘lmagan. Ammo bir narsa aniqki, bu bosqichda fan va madaniyat har holda bir yerda to‘xtab qolmagan. XVIII-XIX asrlarda o‘zbek xalqining bu sohalardagi tarixini sovet davri tarixshunosligida iloji boricha bo‘yab ko‘rsatishga intilib, o‘lkani madaniy qoloqlikda ayblab, bu bilan Rossiya bosqinining O‘zbekiston uchun “progressiv ahamiyatini” isbotlashga atayin harakat qilingan.

O‘tgan sulolalar kabi mang‘itlar, qo‘ng‘irotlar, minglardan chiqqan namoyandalar ham o‘z davri va doiralarida o‘qimishli shaxslar bo‘lganlar.

---

<sup>71</sup> Стори Ч.А. Персидская литература, ч. II, Москва, 1972, 1187-1188-бетлар. Бошқа тарихчилар ҳақидаги маълумотларнинг кўпи қискартирилиб, Ч.П.Сторининг ушбу асаридан (1188-1201-бетлардан) фойдаланилди.

Masalan, Qo'qon xoni Umarning «Amiriy», malika Mohlaroyimning «Nodira», «Komila», «Maknuna», Xiva xoni Muhammad Rahimxon II ning «Feruz», uning akasi Otajon To'ra Murodning «Murodiy» taxallusida she'r bitganlarini, Abdulg'oziy Bahodirxonning «Shajarayi turk», «Shajarayi tarokima» kabi o'zbek tilida yozgan asarlarini eslaylik. Fazliy, Mushrif, Qoziy, Afsus, Somdiq, Xijolat, Hoziq, Xatif, Mahmur, Gulxaniy kabi yetuk qalam sohiblari Farg'ona vodiysida yashab ijod qilganlar. Shunigdek «Afzal at-tavorix», «Tarixi Umarxon», «Risolayi askariya», «Muntaxab at-tavorix», «Tarixi Shohruhiy», «Tarixi Jahonnamoyi», «Xusolat al-axbor», «Tasnifi G'arib», «Tarixi jadidayi Toshkand» kabi boshqa ko'plab tarixiy asarlar ham xuddi shu davrda Qo'qon xonligi doirasida yozilgan.<sup>72</sup>

Tarixnavis Xo'ja Muhammad Hakimxonto'ra bin Sayid Ma'sumxon. 1824-yilda Hakimxonto'ra Orenburgda rus imperatori Aleksandr I bilan uchrashgan edi. Bu uchrashuv haqida muallif o'zining «Muntaxab at-tavorix» nomli asarida batafsil yozgan. Muallif Rossiyadan keyin Turkiya, Suriya, Falastin, Misr orqali Makka va Madinaga borgan. Hakimxonto'raning «Muntaxab at-tavorix» nomli asari Buxoro amirligi va Qo'qon xonligi tarixiga oid muhim manbalardan biri hisoblanadi. Buxoro va Qo'qon xonliklarining tashkil topishidan boshlab XIX asrning 40-yillarigacha bo'lgan tarixi to'liqroq tasvirlangan.<sup>73</sup>

«Majmuai shoiron» tazkira (1821) asarda hamd, na't va yuzdan ortiq shoirga qisqacha she'riy tavsifnoma, Amiriyga bag'ishlangan qasidalar va uning she'rlariga nazira tarzida yozilgan payrovlar berilgan, masnaviy, qasida, g'azal, ruboiy janrlaridan namunalar keltirilgan. Kitobda Amiriy, uning vaziri Qosim beklarbegi, Shayxulislom Sultonxonto'ra Ahroriy (Ado), Buxoro amirzodasi Husayinbek, Oqsuyak Sayid G'ozixonto'ra, Xo'jakalon kabilar ijodiga keng o'rin ajratilgan holda taraqqiyparvar shoirlar ijodidan faqat Amiriy g'azallariga bog'lagan naziralargina berilgan. Asar o'sha davr adabiy muhitini o'rganishda

<sup>72</sup> Azamat Ziyo.O'zbek davlatchiligi tarixi.T.,»Sharq»,2000,298-301-betlar.

<sup>73</sup> Ўзбек Совет Энциклопедияси, 7-жилд, 426-бет.

muhim manbadir. “Majmuai shoiron”ning nusxalari O‘zR FA Sharqshunoslik institutida saqlanmoqda (inv. № 9139, 7510, 5235, 2371)<sup>74</sup>.

Qo‘qon xonligi tarixiga bag‘ishlangan yana bir asar “Tarixi Shohruhiy” asari bo‘lib, muallifi Mullo Niyoz Muhammad Ho‘qandiy Niyoziy bin Mullo bin Ashur Muhammad Ho‘qandiydir. Niyoz Muhammadning dunyoqarashi Qo‘qon xonligidagi madaniy va siyosiy jarayonlar ichida shakllanadi. U iste’dodli tarixchi va adabiyotchi ham edi. Shuning uchun ham o‘z davridagi siyosiy ahvolga va xalqning turmushiga to‘g‘ri baho bera olgan.<sup>75</sup> Mullo Niyoz Muhammad Ho‘qandiyning “Tarixi Shohruhiy” nomli kitobi 1885-yili N.Pantusov tomonidan chop etilgan. Shu nom bilan kitob ilmiy muomalaga kirgan. Kitob matnida asar nomi “Tavorixi Shahruxiya” deb ko‘rsatilgan. Qo‘lyozmaning asl nusxasida esa muallif bu kitobning nomini “Tarixi sayyidi Xudoyorxon” deb ataydi. Asar aslida Xudoyorxonning topshirig‘iga binoan yozilgan bo‘lib, Shohruh davridan boshlab to 1872-yilgacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Kitobda muallif o‘zi ishtirok etgan, o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan va bilgan voqealarni bayon etgan.<sup>76</sup>

Mirza Aziz bin Muhammad Rizo Marg‘loniy Muhammad Alixon, Sheralixon, Xudoyorxon va Mallaxon davrlarida Qo‘qonda davlat mansablarida xizmat qilgan voqeanavislardandir. Shuning uchun ham u xon saroyidagi kutubxonaning noyob kitoblaridan foydalanib, aniq ma’lumotlar to‘plashga muvaffaq bo‘lgan. Uning “Tarixi Aziziy” asari Qo‘qon xonligiga bag‘ishlangan bo‘lib, uni uch qismga bo‘lish mumkin: 1. Mo‘g‘ullar tarixi va O‘rta Osiyo davlatlari haqida ocherklar. 2. Qo‘qon xonligi tarixi. 3. Marg‘ilon shahri tarixidir.<sup>77</sup> Ushbu qismlar orqali xonlik tarixi bayon qilingan.

Hakimxonto‘raning “Muntaxab at-tavorix” nomli asari Buxoro amirligi va Qo‘qon xonligi tarixiga oid muhim manbalardan biri bo‘lib hisoblanadi. Bu asar

---

<sup>74</sup> Ўзбек Совет Энциклопедияси, 6-жилд, 513-бет.

<sup>75</sup> Бейсембиев Т. “Тарихи Шахрухий” как исторический источник. Автореферат. Ташкент, 1983, 8-9-бетлар.

<sup>76</sup> Миклухо-Маклай Н.Д. Описание персидских и таджикских рукописей института востоковедения. Выпуск 3, М., 1975, 331-332-бетлар.

<sup>77</sup> Валидов А.З. Восточные рукописи в Ферганской области ЗВОРАО, т. 22, Петроград, 1915, 302-320-бетлар.

o‘zining janri bo‘yicha o‘ziga xos uch xil janrni mujassamlashtirgan: jahon tarixi, lokal (mahalliy) tarix va memuar (esdalik). Asar rejasiga ko‘ra tipik jahon tarixidir. Ammo uning hajmi va ahamiyatiga qarab, mazmunan O‘rta Osiyo tarixiga oid bo‘lganligi tufayli birinchi navbatda unga lokal (mahalliy) tarix sifatida qarash mumkin.

“Muntaxab at-tavorix”ning o‘zbek va fors tillaridagi variantlari mavjud. Unda payg‘ambarlar haqidagi rivoyatlar, qadimiy Eron, Arab xalifaligi, somoniylar, saljuqiylar, xorazmshohlar, mo‘g‘ullar, temuriylar va boburiylar davri tarixidan qisqacha ma’lumotlar berilgan. Shuningdek, Buxoro va Qo‘qon xonliklarining tashkil topishidan boshlab XIX asrning 40-yillarigacha bo‘lgan tarixi to‘liqroq tasvirlangan.

Asarda muallifning Rossiya, arab mamlakatlari va Eronga qilgan sayohatlari natijasida olgan taassurotlari va shu jumladan mazkur mamlakatlar xalqlarining turmushi, urf-odatlariga oid ma’lumotlar ham o‘rin olgan. “Muntaxab at-tavorix” XIX asrda O‘rta Osiyodagi mavjud ijtimoiy-siyosiy tuzum va madaniy hayotni o‘rganishda muhim manbadir<sup>78</sup>.

---

<sup>78</sup> Ўзбек Совет Энциклопедияси, 7-жилд, 426-бет.

## **II BOB. Xiva xonligi, Qo‘qon xonligi va Buxoro amirligida siyosiy, ijtimoiy boshqaruv: mansab, unvon egalari va ularning vazifalariga doir ma’lumotlarni manbalarda aks etishi**

### **2.1 Xiva xonligi, Qo‘qon xonligi va Buxoro amirligi siyosiy hayoti**

XVI-XIX asrlar davomida Xiva xonligi hududlari doimo o‘zgarib turgan. Dastlab, xonlik hududi Xorazm vohasidagina joylashgan bo‘lsa, keyinchalik uning chegarasi kengaygan. Xonlik janubda Eron, sharqda Buxoro amirligi, g‘arbda Kaspiy dengiz, shimolda qozoq juzlari bilan chegaradosh edi. Suvsiz va poyonsiz Qoraqum, Qizilqum sahrolari Xiva xonligini geografik jihatdan boshqa mamlakatlardan ajralib qolgan edi. Ruslar bosqinidan keyin Amudaryoning chap qirg‘og‘ida 62237,2 km<sup>2</sup> yer maydoniga ega kichik vassal davlatga aylanib qolgan.<sup>79</sup> Amudaryo sohillarida joylashgan Xiva, Urganch, Kat, Ko‘hna Urganch, Xazorasp, Qo‘ng‘irot, Xo‘jayli, Kurdar (hozirgi Chimboy shaharlari xonlikning yirik shaharlari hisoblanar edi, O‘rta Osiyoning eng boy savdo markazlaridan biri bo‘lgan Xiva shahri 2 qism –Ichan qal’a(shaharning ichki qismi-Shahriston) va Dishan qal’a(shaharning tashqi qismi)dan iborat edi. Ichan qal’ada xon qarorgohi va harami, 17 ta masjid, 22 ta madrasa, karvonsaroy va bozor joylashgan. Xivaning rabod qismi Dishan qal’ada hunarmandlar, savdogarlar, mardikorlar, qisman dehqonlar istiqomat qilganlar.

Xiva shahri esa xon , bosh vazir (inoq) va qushbegining izmida bo‘lgan. Shahar ichki tartiblari va osoyishtaligi mirshabboshi, jinoiy ishlarni ko‘rish va jazo tayinlash shahar qozisi poytaxtni tasodifiy hujumlardan himoyalash to‘pchiboshi va ichan qal’a va dishan qal’a kutvoli zimmasida bo‘lgan.

Shohniyozi xonlik maqomiga ega bo‘lgach o‘z homiysidan yuz o‘girib, mustahkam tayanch qidirib, Rossiya humdori Pyotr I ga xat yo‘llab, Xivani Rossiya tarkibiga qo‘shib olishni so‘raydi. Sharqda ta’sir o‘tkazishni maqsad qilib qo‘ygan rus podshosi 1703-yilda Xivaning Rossiya hududiga qo‘shib olingani haqida yorliq jo‘natadi. Lekin, 1702-1715-yillarda xonlik qilgan Arab Muhammad bunga ahamiyat bermadi. Bu rus podshosining O‘rta Osiyoga

---

<sup>79</sup> R.Shamsutdinov,X.Mo‘minov.O‘zbekiston tarixi.”Sharq”nashriyoti.T.:2013.B-326

e'tiborini qaratdi. U Xiva xonligini rasman tobe qilish maqsadida Aleksandr Bekovich-Cherkasskiy rahbarligida Xivaga harbiy ekspeditsiya tayyorlaydi. Arab Muhammad va uning vorisi Sherg'ozixon (1715-1728) davrida xonlikdagi siyosiy nizolar mamlakatning iqtisodini ham izdan chiqardi. Sherg'ozixon 6 ming rus askari bilan 1717-yilda xonlik hududiga kirib qolgan rus harbiy ekspeditsiyasini yaxshi kutib oldi. Uning maslahati bilan Bekovich-Cherkasskiy qo'shinlarini 3 ga bo'lib joylashtirdi. Qulay vaziyatdan foydalangan xivaliklar rus qo'shinlarini butunlay qirib tashlashdi. Natijada rus harbiy ekspeditsiyasi samarasiz yakunlandi. 1728-yilda hokimiyatni qo'lga olgan Elbarsxon (1728-1740) ichki nizolarni bostirib, qo'shni hududlarga bosqinchilik yurishlarini uyushtira boshladi. Xiva qo'shinlarining bosqinchilik yurishlari va ularning Buxoro xonlariga bergan yordamlari tufayli 1740-yilda Eron shohi Nodirshoh Xorazmni butunlay o'ziga bo'ysundirdi. 1741-yilda ko'tarilgan qo'zg'olon sababli Xiva eroniylar zulmidan ozod bo'ldi. Lekin Nodirshohning o'g'li Nasrullo katta qo'shin bilan Xorazmga kelgach, Nuralixon (1741) taxtni tashlab qochdi va eroniylar 1747-yilga qadar Xiva xonligida hukmronlik qildilar. 1747-yilda qozoq sultoni G'oyibxon taxtga o'tqazildi. Uning davrida qozoq sultonlarining mavqei oshishi Xivada qo'zg'olon ko'tarilishiga sabab bo'ldi. 1757-1758-yillarda Xiva taxtini uning ukasi Abdullaxon boshqargan. Xiva xonligidagi siyosiy parokandalikdan foydalangan Buxoro hukmdori Muhammad Rahimbiy o'z odami Temur G'ozixonni (1758-1763) Xiva taxtiga o'tqazadi. Shu davrdan boshlab Xiva xonligida qo'ng'irotlar urug'ining mavqei mustahkamlanib borgan.

Xorazm tarixchilari Abulg'oziy, Munis, Ogahiy, Bayoniy asarlaridan yozilishicha, Abulg'oziy akalaridan qochib ketayotganda otidan ayrildi. Shunda qo'ng'irotlar urug'idan bo'lgan O'nboy degan yigit unga o'z otini berib, qutilib ketishga yordam bergan. Abulg'oziy keyinchalik Erondan qochib kelgach, ularning urug' boshliqlariga inoq unvonini beradi. Shu davrdan boshlab Xiva xonligida qo'ng'irotlar urug'larining mavqei ortib borgan. XVIII asrning 60-

yillarida badavlat shaharliklar va ruhoniylarning qo'llab-quvvatlashiga erishgan qo'ng'iroq urug'lari Xiva xonligida hokimiyatni qo'lga ola boradilar.<sup>80</sup>

Inoq Muhammad Amin (1763-1790) 1770-yillarda turkmanlarning, 1782-yilda buxoroliklarning hujumini qaytarib, Xiva xonligida qo'ng'iroqlarning amaldagi holimiyatni mustahkamladi. Avaz Inoq (1790-1804) davrida Xiva xonligida markaziy hokimiyat mustahkamlanib, xonlikdagi iqtisodiy ahvol yaxshilandi. Bu XIX asr boshlarida qo'ng'iroqlar sulolasining hokimiyatni rasman egallashlariga zamin bo'ldi. 1804-1806-yillarda hukmronlik qilgan Eltuzarxon Inoq Xiva taxtiga o'tirgan qo'ng'iroqlar sulolasining birinchi xoni hisoblanadi. Uning vorisi Muhammad Rahimxon I (1806-1825) Xiva xonligini birlashtirishni nihoyasiga yetkazdi. 1811-yilda bo'ysunmas orolliklar-qoraqalpoqlarning ham Xiva tarkibiga qo'shib oldi. U o'tkazgan siyosiy, iqtisodiy, ma'muriy islohotlar natijasida boshqaruv tizimini takomillashtirib, soliqlar tartibga tushdi. Xazina daromadlari ko'paydi.

Olloqulixon (1825-1842), Rahimqulixon (1842-1845) va Muhammad Aminxon (1845-1855) davrlarida Xiva qo'shinlarining Xurosonga yurishlari kuchaydi, Marv shahri uchun Buxoro amirligi bilan tez-tez urushlar bo'lib turadi. Xiva xonlari bu davrda Sirdaryoning Orol dengiziga quyiladigan joyidan Turkmaniston hududidagi Kushkagacha bo'lgan yerlarni boshqarganlar. 1855-yilda Seraxsni qamal qilish paytida Muhammad Aminxonning halok bo'lishi mamlakatda parokandalikka sabab bo'ldi. Abdullaxon (1855-1856), Qutlug'murodxon (1856) 6 oydan ko'p hukmronlik qilmaslaridan o'ldirildilar. 1856-yilda taxtni Sayid Muhammadxon (1856-1864) egalladi. U bo'ysunmas turkmanlar va qoraqalpolarga qarshi urush uyushtirganligi natijasida bu xalqlarning ko'pchiligi ko'chib ketdilar. 1859-yilda Muhammad Panoh Orenburgdan yordam olib, Orol bo'yida mustaqil davlat tuzish uchun qilgan harakati bo'ldi.

Xiva xonligidagi so'nggi mustaqil hukmdor Feruz taxallusi bilan ijod qilgan Muhammad Rahimxon II (1864-1910) bo'ldi. Uning davrida xonlikning

---

<sup>80</sup> Murtazayeva R.H. O'zbekiston tarixi. T.: 2003. - B-325

siyosiy, iqtisodiy, madaniy jihatdan yuksalishi ko'zga tashlandi. Lekin 1873-yilda Rossiya Xivani bosib oldi, Muhammad Rahim II va Kaufman imzolagan Gandimiyon shartnomasiga ko'ra Xiva xonligi Rossiyaga qaram davlatga aylanib qoldi.

Shuningdek, Qo'qon xonligida ham siyosiy hayot o'ziga xos bo'lib, xonlikdagi aholi soni haqida manbalar turli ma'lumotlar beradilar. Bu ma'lumotlarga ko'ra, XIX asrning boshlarida xonlikda (Toshkent va Turkistonni ham qo'shib hisoblaganda) aholi soni 1 million, XIX asrning o'rtalarida 1,5-2 million, XIX asrning ikkinchi yarmida 3 million kishi bo'lgan bo'lsa, Rossiya imperiyasi tomonidan ko'plab hududlarning bosib olinishi hamda ularning bosqinchilar ma'muriyati tarkibiga kirishi natijasida xonlik tasarrufidagi Farg'ona vodiysida 2 millionga yaqin aholi qolgani taxmin qilinadi.

Aholi tarkibida o'troq aholi ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi aholiga nisbatan ko'pchilikni tashkil etgan. XIX asr boshlarida aholining 40 foizdan ortig'i ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi bo'lsa, shu asrning oxiriga kelib ular 15 foizni tashkil etgan. Xo'jalik mashg'ulotlariga ko'ra, o'troq aholining asosiy qismi dehqonchilik, hunarmandchilik, kosiblik hamda savdo-sotiq bilan band bo'lsa, ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi aholi chorvachilik bilan shug'ullangan.

Qo'qon xonligi aholisining ko'pchiligi o'zbeklar bo'lib, mamlakat shahar va qishloqlarida tojiklar ham yashagan. Xonlikda yana qirg'izlar va qipchoqlar ham istiqomat qilganlar. Ular Sirdaryoning boshlanish joylaridan Balxash ko'ligacha bo'lgan tog'li rayonlardan to Qashg'ar chegarasigacha bo'lgan yerlarda, Yettisuv, Talas vodiysi, Oloy tog'lari, Badaxshon, Farg'ona vodiysi hududlarida ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi hayot kechirishgan. Bundan tashqari, Farg'ona vodiysida qoraqalpoqlar, Andijon atroflarida uyg'urlar, Toshkent atroflarida qozoqlar, xonlikning sharqiy qismida, Qo'qon xonligini Buxoro va Rossiyadan ajratib turadigan cho'llarda ko'chmanchi qozoqlar yashaganlar.

Manbalarning ma'lumotlariga ko'ra, XIX asrning boshlarida qirg'izlar, qalmoqlar, uyg'urlar, qoraqalpoq, qozoq va qipchoqlar Xitoy hukumati tazyiqi ostida Sharqiy Turkistondan Farg'ona vodiysigacha ko'chib kelishga majbur bo'lganlar. Shuningdek, xonlikning ayrim shaharlarida lo'lilar, hindlar, afg'onlar, arablar va boshqa Osiyo xalqlari istiqomat qilganlar. Turkiston general-gubernatorligi tashkil topganidan so'ng ruslar, yahudiylar, armanlar va boshqa millat vakillari ham yashaganlar.

Qo'qon xonligida Qo'qon, Toshkent, Andijon, Namangan, Marg'ilon, Chimkent, Jizzax, O'sh, Xo'jand, O'ratepa kabi aholisining soni jihatidan katta, hunarmandchilik va savdo rivojlangan, mamlakat ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan o'nlab shaharlar mavjud bo'lgan. Xonlikning poytaxti Qo'qon shahri bo'lib, u mamlakatning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy markazi edi.

XIX asrda xonlikning chegara hududlarini bir necha qal'a va istehkomlar muhofaza qilgan. Ular jumlasiga Oqmasjid, Avliyoota, Pishpak, To'qmoq, Qurtka, Niyozbek, Mahram kabilarni kiritish mumkin. Chu vodiysi bo'ylab bunyod etilgan istehkomlar esa nafaqat chegara muhofazasi uchun, balki ularning atrofidagi shahar va qishloqlarni itoatda ushlab turish uchun ham xizmat qilgan. Ushbu shahar va qal'alarda harbiy qism hamda ularga boshliq bo'lgan botirboshilar bo'lgan. Mudofaa maqsadlari uchun qurol va aslahalar saqlangan.

Xonlik tarkibiga kiruvchi hududlar aholisining joylashuvi va turmush tarzi bir – biridan farq qilgan. Toshkent vohasi va Farg'ona vodiysining sug'orilib dehqonchilik qilinadigan qismi aholi joylashuvi jihatidan zich bo'lib, ular o'troq hayot kechirganlar. Sahro, tog' va tog' oldi tekisliklaridan iborat hududlarda ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi aholi yashagan.

Umuman olganda, XIX asrning o'rtalariga kelib Qo'qon xonligidagi siyosiy jarayonlar hamda ichki ahvol yanada og'irlashgan edi. So'nggi tadqiqotlarga ko'ra, buning sababi birinchidan, o'troq aholi ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi bo'lgan qipchoqlar hokimiyatini tan olmaganlar. Xonlik

hududlaridagi ba'zi viloyat hukmdorlari Musulmonqulga qarshi chiqdilar. Ikkinchidan, hokimiyatda yuqori mavqeni egallash hamda xonga ta'sir o'tkazish uchun qipchoqlar orasida ham o'zaro kurashlar borardi. Bu kurashlarda qipchoqlarning qulon urug'idan bo'lgan Musulmonquli ham faol ishtirok etgan. Uchinchi sabab esa, qipchoqlarning o'troq aholiga nisbatan yuritgan siyosati edi. Qipchoqlar o'troq aholiga nisbatan bepisandlik nazari bilan qarab, boshqa elat va etnik guruhlarini kamsitganlar. To'rtinchidan esa, tashqi omil – Rossiya imperiyasining asta-sekinlik bilan xonlik hududlariga bostirib kirishi siyosiy jarayonlarning yanada keskinlashuviga sabab bo'lgan edi.

1852-yilga kelib, Musulmonquli va qipchoqlarga qarshi kurash uchun o'troq mulkdorlar va toshkentlik zodagonlar Xudoyorxon atrofida birlashdilar. Bu kuchlar yordamida Xudoyorxon Musulmonqulini 1853-yilda qatl etib, uning tarafdorlarini yo'q qilgani bilan taxt uchun kurashlarga barham bera olmadi. Bunday vaziyatda xonlikning ichki ahvoli og'irlashib, u faol tashqi siyosatdan ham ancha orqada qoldi. 1858-yilda Sheralixonning ikkinchi xotinidan bo'lgan o'g'li Mallaxon Xudoyorxonni taxtdan ag'darib, o'zini xon deb e'lon qildi. Mallaxon va Aliquli qirg'iz boshchiligida yangidan tiklangan ko'chmanchilar guruhi uzoq hukm surmadi. Aynan shu guruh a'zolari Mallaxonga qarshi til biriktirib, 1863-yil 25-fevralda uni o'ldirdilar. Taxtga esa Xudoyorxonning akasi Sarimsoqbekning o'g'li Shohmurod o'tqazildi. Lekin, qo'shin boshliqlari va saroydagi ko'pchilik amaldorlar unga qarshi fitna uyushtirib, Xudoyorxonga yana taxtga o'tirishni taklif etib, odam yuboradilar.

Bu payda Mallaxon o'limini eshitgan Xudoyorxon Amir Muzaffarning ruxsati bilan Buxorodan Jizzaxga kelgan edi. Turkiston hokimi Qanoatshoh yordamida qo'shin yig'ib, 1863-yilning mart oyida Jizzaxdan Toshkentga kelgan Xudoyorxon Qo'qonga qarshi yurish uchun Toshkent qo'shini bilan Xo'jandga keladi. Bu orada amir Muzaffar ham Buxoro lashkari bilan Xo'jandga keladi. Xudoyorxon Qo'qonga hujum qilishni rejalashtirayotgan paytda, ya'ni, 1863-yilning 5-mayida shahar aholisi unga shimoliy darvozalarni ochib berdilar. Natijada Qo'qonda qirg'in boshlanib, Shohmurodxon o'z

tarafdorlari bilan Marg'ilonga qochdi. Xudoyorxon ikkinchi marta (1863 y.) taxtni qo'lga kiritdi.

Ammo, xonlikdagi qirg'iz-qipchoqlar Koson va Chust atroflarida qo'zg'olon ko'tardilar va To'raqo'rg'onga hujum qildilar. Ular, hatto Toshkent atroflaridagi qabila boshliqlariga noma yuborib madad berishni so'radilar. Oqibatda Toshkent atrofida qozoqlar qo'zg'olon ko'tarib, Toshkentni qamal qildilar. Xudoyorxon tomonidan yuborilgan qo'shinlar bu isyonlarni bostirishga muvaffaq bo'ldilar. Ammo, mag'lubiyatga uchragan qirg'iz-qipchoq boshliqlari taxt uchun kurashni davom ettirdilar. Xususan, Shodmonxo'ja, Said Mahmudxonto'ra, Aliqulilar Sulton Saidxon boshchiligida Marg'ilon tomondan kelib Andijonni bosib oldilar va uning atroflaridagi Baliqchi, Quva, Asaka, Shahrixon, O'sh, Poytug' mavzellarini talon-taroj qildilar. 1863-yil 26-aprelda Sulton Saidxonning qo'shini Mingtutga kelib, Qo'qonni qamal qildi. Amir Muzaffarning Xudoyorxonga yordami tufayli qirg'iz-qipchoq lashkari Asaka tomonga ketib, Qo'rag'ulcha darasida himoyaga o'tdi. Qattiq kurashlardan so'ng 1863-yilning 24-iyulida Sulton Saidxon Qo'qon taxtini (1863-1865 yy.) egalladi. Xudoyorxon esa yana Buxoroga qochdi.

Xonlikdagi ichki nizolar tashqi dushmanlarga nihoyatda qo'l kelgan edi. Bunday vaziyatdan unumli foydalangan chor Rossiyasi qo'shinlari 1864-yilda Turkiston va Chimkentni bosib oldi. 1865-yil bahorida ular Toshkentga yaqinlashib, Niyozbek qal'asini egalladilar. Uzoq qamaldan so'ng 17-iyunda Toshkent egallandi.

Qo'qondagi sarosimaliklardan foydalangan Xudoyorxon 1865-yilning yozida amir qo'shinlari yordamida so'ngi marta Qo'qon taxtini qo'lga kiritdi. Shundan so'ng u amirning talablariga boshqa itoat etmay qo'ydi. Xudoyorxon 1867-yil yanvar oyida Rossiya bilan savdo bitimini, 1868-yil 13-fevralda Qo'qon va Rossiya shartnomasini imzoladi. Xudoyorxon 1868-1873-yillar oralig'ida Rossiya bilan munosabatlarini yaxshilash maqsadida Toshkentga ko'plab sovg'a-salomlar yubordi. Shuningdek, Rossiya savdogarlari uchun

qulay shart-sharoitlar yaratib berdi. Natijada Qo‘qon xonligi amalda Rossiyaning vassaliga aylanib qoldi.

Xonlik hududida hukm surgan nisbiy osoyishtalik 1873-yilgacha davom etgan bo‘lsa ham, hukmdor, uning yaqinlari va mahalliy hokimlarning jabr-zulmi hamda qirg‘iz-qipchoqlarning qayta bosh ko‘tarishi natijasida bu yerlarda o‘zaro nizolar, xalq chiqishlari boshlandi. Xususan, 1873-yilda Po‘latxon (asli ismi Mulla Ishoq Hasan o‘g‘li) qirg‘izlar tomonidan xon qilib ko‘tarilib, u boshchiligida qo‘zg‘olon ko‘tarildi. Saroydagi nufuzli amaldorlardan biri Abdurahmon oftobachi Xudoyorxonni taxtdan ag‘darish va uning o‘g‘li Sayid Nasriddinbekni xon taxtiga o‘tqazish maqsadida Po‘latxon bilan til biriktirdi va O‘rdada isyon ko‘tardi. Sayid Nasriddinbek Abdurahmon oftobachi ko‘magida xon deb (1875-1876yy.) e‘lon qilindi. Xudoyorxon Nasriddinbek foydasiga taxtdan voz kechib, avval Xo‘jandga, undan Toshkentga qochdi.

Nasriddinbekning hokimiyat tepasiga kelishi ham mamlakatdagi siyosiy vaziyatning keskinligini bartaraf eta olmadi. Buni tushunib yetgan Abdurahmon oftobachi xonlik aholisini Rossiyaga qarshi kurashga safarbar qilmoqchi bo‘ldi. Ammo, ruslarning qattiq qarshiligiga duch kelib Mahram yaqinidagi jangda ulardan yengildi. Po‘latxon ham ruslarga qarshi kurashish maqsadida Qo‘qonga hujum qilmoqchi bo‘lib turgan vaqtda, ya‘ni 1875-yil 25-sentyabrda Nasriddinxon Rossiya imperiyasi hukumati bilan bitim tuzdi. Bu xabar tezda butun Qo‘qonga yoyilib aholi yana isyon ko‘tardi va O‘rdaga hujum qildi. Nasriddinxon taxtni tashlab Xo‘jandga qochdi. Marg‘ilonda Rossiya imperiyasi askarlariga qarshi aholini safarbar qilayotgan Po‘latxon qo‘shiniga shaharliklar, madrasa talabalari va ko‘chmanchi aholi vakillari kelib qo‘shildi. Ularga qo‘zg‘olon vaqtida bosqinchilar bilan hamkorlik qilgan kishilar va xon oilasi vakillarini qatl etish buyurildi.

Bu paytda Namanganda bo‘lgan Skobelev Rossiya imperiyasining topshirig‘iga asosan 1876-yil fevralida Qo‘qon xonligini butunlay bosib olishga kirishdi. Abduraxmon oftobachi va Po‘latxon qo‘lga olindi. Abduraxmon oftobachi Rossiyaning Ekaterinoslav guberniyasiga, Nasriddinxon esa Vladimir

guberniyasiga surgun qilindi. Shu tariqa, 1876-yil 19-fevralda 150 yildan ko'proq hukm surgan Qo'qon xonligi tugatilib, hududlari Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olindi va uning o'rniga Farg'ona viloyati tashkil etildi.

Buxoro amirligida ham siyosiy hayot o'ziga xos tarzda kechgan bo'lib unda, mang'itlar sulolasi hukmdorlari Buxoro davlatini amir unvoni bilan boshqardilar. Mang'itlar sulolasi asoschisi Muhammad Rahim va uning vorisi Doniyolbiy (1759-1784 yillar) Buxoro davlati hududini ancha kengaytirishga erishdilar. Shohmurod (Doniyol biyni o'n ikkita farzandi bo'lgan) 1785 - yili Buxoroda "amir (ul-mo'minin)" unvoni bilan taxtga ko'tarildi. Sadri Ziyov va Ahmad Donishlar amir Shoh Murodga nisbatan o'z xayrxohliklarini asarlarida bildirganlar. Ular amir Doniyol davridagi inqirozdan chiqishda amir Shoh Murod xizmatini yuqori baholaydi.

Tarixda "Amir Mas'um" deb nom qoldirgan bu hukmdor (1785-1800 yillar) markaziy hokimiyatni mustahkamlab, Buxoro amirligi sarhadlarini ancha kengaytirdi. Mamlakat iqtisodi yaxshilandi. 1800 - yili Buxoro taxtiga Amir Haydar o'tiradi. Amir Haydar hukmronligi davri ham ichki va tashqi kurashlar bilan o'tadi. 1804 - yil Amir Haydar O'ratepaga yurish qiladi. 1806- yili Xiva xoni Eltuzar qo'shinlari Buxoroga bostirib keladi. Ammo Amir Haydar ularning hujumini bartaraf etib, g'alabaga erishadi. Amir Haydar hukmronligi davri tarixi "Tarixi amir Haydar" va "Tarixiy Shohruhiy" asarlarida amirlik tarixi to'g'risida quyidagi ma'lumotlar keltirilgan: "Qo'qon hukmdorlari 1805-yili Xo'jandni, 1809-yili Toshkentni, 1816-yili esa Turkistonni ishg'ol etib, xonlik doirasiga kiritadilar. 1806-1813-yillari O'ratepaga, 1806-yili Jizzaxga, 1821-yili Samarqandga tahdid solganlar. Xullas, amir Haydar hukmronligi ancha tahlikali bo'lib markaziy hokimiyat qudrati susaygan edi". 1826-1860-yillarda amir Nasrullo Buxoroda hukmronlik qildi. Nasrulloxon davrida Buxoroning harbiy qudrati ancha oshdi. Shahrisabz va Hisor bekliklari bo'sqindirildi, Qo'qon xonligiga tegishli katta hududlar bosib olindi. Tarixchi Ahmad Donish amir Nasrullo haqida shunday yozadi: "U vazmin, qo'rqmas, qattiqqo'l va zukko

hukmdor edi. El va ulusda fitna chiqarishda nom chiqargan yo ilgarigi amirlarga nisbatan ko'namaklik qilganning barchasini jazoladi, o'z tarafdorlarini siyladi".

Amir Shohmurod vafotidan keyin amir Haydar, amir Husayin, amir Umar, amir Nasrulloh, amir Muzaffar, amir Abdulahad, amir Olimxon Buxoro amirligida hukmronlik qilganlar. Oxirgi amir Olimxon 1920-yili sentyabrida taxtdan tushirildi va u 1944-yili 29-aprelda olamdan o'tadi. Qabri Qobul shahrining "Shuhadoyi solihin" qabristonidadir<sup>81</sup>. Amir Nasrulloh Bahodurxon Buxoro taxtiga o'tirdi. Sadri Ziyoning ta'kidlashicha «Amir Nasrulloh Buxorog'a podshoh bo'lgandin<sup>82</sup> keyin barodar va aqoriblarini tamom mahv va nobud qildi. Zabir va Jahongir to'ralarning volidalari Jo'yboriy xo'jalardin edi. Ularni Chorjo'y tarafig'a yuborib, i'dom qildi. Akobiri davlatlardin Hakim qo'shbegi va Ismatullohbek va Ayozbekg'a o'xshash bir necha ulug' martabadagi odamlarni qatl va amvollarini g'orat qildi»<sup>83</sup>.

Lekin Amir Muzaffar hukmronligi davrida (1880-1885 yillar) amirlikning katta qismi, Zarafshon vohasi ruslar tomonidan zabt etildi va Buxoro Rossiyaga tobe davlatga aylandi. Muzaffar otasining davrida Karmanaga voliy bo'lgan. Uning Abdumalik ismli o'g'li Qarshiga noib bo'lgan, ammo u otasiga muxolifatda bo'lganligi uchun mamlakatdan badarg'a qilinadi. Abdulfattoh ismli o'g'li Petrograd shahrida bo'lgan. Amir Muzaffar Qo'qon ishlariga aralashib, bir necha marotaba zarar va ixtilol etgan vaqtda Xudoyorxonga inoat tariqasida askari bilan Qo'qonga kirib borib, xutbalarda nomini zikr qildirib, Buxoroga qaytdi va Hisor shahrini zabt etib, voliyi Abdul-Karimbiyni qatl qildi. Rossiya bilan Erjar (Egrijar) va Samarqand mag'lubiyatidan so'ng Buxoroning sarhaddari Kattaqo'rg'ondan belgilanadi va ruslar bilan sulh shartnomasini tuzadi.

---

<sup>81</sup> Хотираҳои Амир Олимхон. (Амир Олимхон хотиралари). - Душанбе: Адиб. 1992. – Б.3.

<sup>82</sup> Садри Зиё бу жулус тарихини пайшанба кунӣ, рамазон оӣи, 1242/ 29 март, 1827 йили деб беради. Қаранг: Муҳаммад Шарифжон Садри Зиё. Мажмуа. // Қўлёзма, Абу Райхон Беруний нмидаги Шарқшунослик институти, № 2193. 198<sup>a</sup>.

<sup>83</sup> Мирзо Олим маҳдум ҳожи. Тарихи Туркистон. / Масъул муҳаррир З. Чориев. Сўзбоши ва изоҳлар муаллифи Ш. Воҳидов. Араб ёзувидан табдил Ш. Воҳидов ва Р. Холиқова. Тошкент: Янги аср авлоди, 2008. – Б. 97-98.

## **2.2 Xiva xonligi, Qo‘qon xonligi va Buxoro amirligida yer egaligi, soliq va majburiyatlar**

Xonlikda asosan o‘zbeklar dehqonchilik tumanlarida yashab ko‘pchilikni tashkil qilganlar. Shuningdek, turkmanlar, qoraqalpoqlar, kam miqdorda tojiklar, eronliklar, yahudiylar, arablar ham istiqomat qilishgan.

Ijtimoiy hayotda xon va uning amaldorlari va diniy ulamolarning mavqei yuqori bo‘lib, iqtisodiy hayotning asosini tashkil qiluvchi yer ham asosan ular qo‘lida bo‘lgan. Kam yerli va yersiz dehqonlar ulardan ijaraga yer olib ishlaganlar va ahvoli juda og‘ir bo‘lgan. Sun‘iy sug‘orishga asoslangan dehqonchilik mamlakat iqtisodida muhim o‘rin tutgani uchun Amudaryodan chiqarilgan kanallarni qazish davlat ahamiyatiga molik ish hisoblangan. Shuningdek, chorvachilik, hunarmandchilik, savdo-sotiq ham iqtisodiy hayotda muhim o‘rin tutgan.

Xiva xonligi Buxoro, Qo‘qon, Eron va Rossiya kabi qo‘shni davlatlar bilan savdo-sotiq ishlarini olib borgan. Soliqlar barcha musulmon davlatlaridagidek xiroj, zakot, boj va jiz‘yadan iborat bo‘lgan. Shu bilan majburiy mehnatning ba‘zi turlari amalga oshirilgan.

Xiva xonligining soliq daftarlari o‘sha davr iqtisodiyotini o‘rganishda muhim manba hisoblanadi. Soliq hujjatlari yer egalari soliq solish vaqtida ularning mulki va daromadini hisob qilishda asosiy manba bo‘lib xizmat qilar edi. Yer solig‘ining miqdori yerning katta-kichikligiga qarab belgilangan. Xonlikda dehqonchilik qilinadigan yerlarning beshdan bir qismiga paxta ekilgan. Yerlarning qolgan qismi taxminan bab-baravar bo‘linib, bug‘doy, jo‘xori, arpa, sholi, zig‘ir kunjut, qovun, tarvuz ekilar edi. Soliq solinishi jihatidan mulk yerlari 3toifaga bo‘lingan:

5 tanobgacha yeri bo‘lganlar pastki toifadagi dehqonlar sanalib adno deb atalar edi. 5-10 tanob yeri bo‘lganlar avsat, 10 tanobdan ortiq yeri bo‘lganlar a‘lo deb atalar edi. Shunday qilib, adno va avsat toifasidagi dehqonlarda 64 ming tanob. A‘lo toifasidagi mulkdorlar qo‘lida 70 ming tanob. Podsholik yerlari 170

ming tanob yer bo'lgan. Yuqorida aytib o'tilgan yerlarning hammasi 348 ming tanob yerni tashkil qilgan.<sup>84</sup>

Arxiv ma'lumotlariga qaraganda, Xiva shahrida mayda hunarmand-kosiblarning 700 dan ziyodroq do'kon-u ustaxonalari bo'lgan. Shu jumladan, 54 ta bo'yoqchilik, 37 ta etikdo'zlik, 37 ta rangdor etikdo'zlik, 16 ta ko'nchilik, 4 ta sarroflik ustaxonalari bo'lgan. Rossiyadan Hindistonga va Xitoyga boradigan karvon yo'llari xonlik hududidan o'tgan bo'lib, xorijda beda urug', jun, mevaga bo'lgan qiziqish tobora ortib borgan. Rossiyadan Xivaga mo'yna, metall buyumlar, qand, shakar keltirilgan. Qishloq xo'jaligidan olinadigan soliqlardan bir yilda 40 ming tillo mablag' tushgan. A.L.Kunning aytishicha, xon xazinasiga jami soliqlardan tushadigan rasmiy mablag' 172 ming 784 tillo bo'lgan.<sup>85</sup>

Shuningdek, xonlikda "shoyi", "abbas shoyi", "yarim shoyi" deb nomlanadigan pul birliklari ham ishlatilgan. Ularning qiymati 10 tiyindan 40 tiyingacha o'zgarib turgan. Xiva xonligida zarb qilingan pullarda, tangalarda va tillalarda odam rasmi tasvirlanmas, balki arab imlosida, qaysi xonlik tomonidan va nechanchi yilda zarb qilingani yozilar edi. Xiva oltinlari va pullari mahalliy va chet eldan keltirilgan oltinlarga bo'linar edi. Xiva oltinlari o'zining yaltiroqligi, mustahkamligi, umuman sifati jihatidan ajralib turardi.<sup>86</sup>

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, qo'ng'irotlar sulolasi davrida Xiva xonligida pul muomalasi va soliq tizimida ijobiy ishlar ham qilindi. Bu tadbirlar xonlikning moliyaviy ahvoliga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. XIX asr boshlarida Xiva xonligida Buxoroda zarb etilgan mis pullar muomalada bo'lib, pulning qadrsizlanish darajasi kuchayib bordi. Muhammad Rahimxon I Xivaning Ko'hna Ark saroyida maxsus zarbxona tashkil etib, xonlikning o'z pullari-oltin, kumush va mis pullar zarb etiladi. Oltin tanga rus pulining 1s. 60 t. qiymatiga, kumush tanga 20 t. qiymatga ega bo'lgan. Pul zarb qilish Sayid Muhammadxon va Muhammad Rahimxon II davrida ham davom etadi. Shu xonlikda pul

---

<sup>84</sup> Davlatyor Rahim.Muhammad Murod devonbegi.T.:2016.-B-15

<sup>85</sup> Davlatyor Rahim.Muhammad Murod devonbegi.T.:2016.-B-17

<sup>86</sup> Maqsud Matkarimov.Xorazm Respublikasi:davlat tuzilishi, nozirlari va iqtisodi.Urganch.1993.B-66-67.

muomalasi, uning qadri oshadi. Muhammad Rahimxon I davrida xonlikda soliq tizimida ham jiddiy o'zgarish yuz beradi. Avvalgi mahsulot solig'i-xiroj o'rniga pul solig'i solg'ut joriy qilinadi. Yangi soliq tizimining yeri va daromadi qanchalik pasaysa, soliqni shunchalik kam to'lagan. Demak, u fuqarolarda xususiy mulkni ko'paytirishdan manfaatdorlikni oshirgan. Shuningdek, harbiy xizmatdagi navkarlar, ruhoniylar, boquvchisini yo'qotgan oila va nogironlar xonlikning soliq va natural (qozuv, qochuv, begor) majburiyatlaridan ozod etilgan.<sup>87</sup>

Shuningdek, Qo'qon xonligida ham yer egaligi, soliq va majburiyatlar o'ziga xos bo'lib, Xonlikning iqtisodiy hayotida dehqonchilikning salmog'i yuqori bo'lgan. Bu sohada Farg'ona vodiysi alohida muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Xonlikning boshqa hududlarida suv yetarli bo'lganligi uchun sug'orma dehqonchilik ishlari yaxshi yo'lga qo'yilgan va O'rta Osiyo mintaqasiga xos bo'lgan deyarli barcha ekin turlari yetishtirilgan. Ayniqsa, XIX asrga kelib paxta yetishtiriladigan maydonlar kengayib bordi va paxtaning asosiy haridori Rossiya hisoblangan. Yerga egalik qilishning an'anaviy usullari saqlanib qolingan bo'lib, yerlarning asosiy qismi davlatga, xususiy shaxslarga va diniy muassasalarga qarashli bo'lgan. Harbiy xizmatlar uchun «Tanxo», «Tarxon» shaklidagi yerlar berilgan va undan foydalanish avloddan-avlodga meros bo'lib o'tmagan.

Chorvachilik ham iqtisodiy sohaning asosiy tarmoqlaridan biri bo'lgan. Bu soha Toshkent vohasi va Turkistonda yaxshi rivojlangan edi. Chorvachilikning eng rivojlangan sohasi qo'ychilik va yilqichilik hisoblangan. O'troq aholi orasida uy chorvachiligi keng tarqalgan.

Hunarmandchilikning asosiy markazlari Qo'qon, Toshkent, Andijon, Marg'ilon, O'sh, Turkistonda yaxshi rivojlangan edi.

Bu soha vakillari to'qimachilik, miskarlik, kulolchilik. Zargarlik, ipak va shoyi matolar to'qish va boshqa ko'plab hunarmandchilik turlari va kasb

---

<sup>87</sup> Matyoqub Matniyozov, Abdulla Sotliqov. Jahon tarixi va madaniyatida Xorazm. "Xorazm" nashriyoti. 1999. B35-37.

sohalarida o'z mahsulotlarini san'at asarlari darajasiga yetkazib tayyorlash bilan birga, aholining hunarmandchilik mahsulotlariga bo'lgan talablarini qondirish va tashqi bozorga ham chiqarar edilar.

Xonlikning ichki va tashqi siyosati birmuncha murakkab bo'lishiga qaramasdan ichki va tashqi savdo munosabatlari o'z taraqqiyotida davom etdi. Ichki savdoda Qo'qon, Marg'ilon, Andijon, Toshkent, Chimkent, O'ratepa va boshqa shu kabi yirik shaharlar asosiy o'rin egallasa, bu shaharlardagi ixtisoslashgan bozorlar va karvonsaroylar savdo-sotiq rivojining asosiy omillaridan edi.

Tashqi savdoda xonlik Rossiya, Xitoy, Hindiston va boshqa davlatlar bilan keng aloqalar olib borardi. Tashqi davlatlardan asosan fabrika mahsulotlari, choy va ziravorlar kabi tovarlar keltirilsa, tashqariga qishloq xo'jalik mahsulotlari, hunarmandchilik buyumlari asosiy tovarlar hisoblanardi.

Xonlikda asosiy soliq turi xiroj va zakot bo'lib, bundan tashqari turli xil soliqlar va yig'img'lar yig'ib olinardi. Shuningdek aholi turli vaqtlarda majburiy hashar ishlariga ham jalb etib turilardi. Harbiy harakatlar vaqtida esa soliqlar miqdori va turlari o'zgarib turardi. Mamlakatda xon eng katta va yirik mulkdor bo'lib, xonlik hududidagi barcha boyliklarga, yer, suv, qo'riq yerlar, ko'l-u anhorlarga egalik qilgan. Ulardan keladigan zakot, xiroj, tanobona va boshqa soliqlar shaklidagi daromadlar xon xazinasini muntazam ravishda to'ldirib turgan. Xon va uning qarindoshlari, saroy ahli va ma'muriyat, qo'shinlar va qo'shin boshliqlari asosan soliqlar hisobidan rag'batlantirilgan.

Xonlikda yer va suv hukmron tabaqalarniki hisoblanib, yerga egalik qilishning to'rtta turi mavjud bo'lib ular quyidagilar edi: 1. Xiroj yerlar – yer egalarining xususiy yerlari. 2. Davlat yoki amloq yerlari – xonga qarashli yerlar – o'rmonlar, to'qaylar, yo'lu-ko'priklar. 3. Xususiy yerlar – xonning maxsus farmoyishi bilan yirik amaldorlarga berilgan yerlar (suyurg'ol). 4. Vaqf yerlari – diniy muassalar, ya'ni, masjid, madrasa va mozorlarga qarashli yerlar.

Manbalarga ko'ra, amloq xon ixtiyoridagi yer bo'lib, u "**zamini xos**", deb atalgan. Bunday yerlar xon tomonidan ayrim guruh va mansabdor shaxslarga berilgan. Yerni olgan kishi unga o'z hisobidan ishlov berib, sug'organ. Olgan hosilidan esa xonga soliq to'lagan va bu soliq miqdori xiroj<sup>88</sup> dan ko'proq bo'lgan.

Yerga egalik qilishda mulk, ijara, urg'u, tanho shakllaridan ham foydalanilgan. **Mulk** – boylarga qarashli xususiy yerlar bo'lib, ular dehqonlarga ijaraga berilgan. Ma'lumotlarga ko'ra, **ijara** – muayyan shartlar asosida beriladigan barcha ko'chmas va ko'chadigan mulk-yer, ariq, tegirmon, tim, rasta, ulov va boshqalarni o'z ichiga olgan mulk shakli bo'lsa, urg'u – musodara qilish yo'li bilan xon mulkiga aylantirilgan yoki gunohkorni qo'lga olishda jonbozlik qilgan shaxslarga berilgan yer va mol-mulkdir.

**Tanho** – hukmdor tomonidan alohida xizmat ko'rsatgan kishilarga amlok yerlardan ba'zilar in'om etilishi tufayli paydo bo'lgan mulk shakli bo'lib, bunday yerlarda soliq yig'ish huquqi tanho egalari – tanhodorlarga berilgan. U o'ziga berilgan yer, bir nechta qishloq, hatto, katta mulkning yillik yoki yarim yillik daromadini hadya sifatida olgan. Ba'zan, amaldorlar bir umr tanhodor bo'lgan va o'g'li xon marhamatiga sazovor bo'lsa, tanhodorlik meros sifatida davom etgan. Harbiylarga tanho yoki xiroj taqdim etilsa, u tarxon deb atalgan.

Bu davrda xonlikning daromadi mahsulot va puldan iborat bo'lib, ular asosan soliqlar undirish yo'li bilan hosil qilingan. Soliq va majburiyatlar xonlikning barcha shahar va qishloqlarida deyarli bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Mamlakatda mavjud soliqlar joriy etilishiga ko'ra, to'rt turga: shariat qonun-qoidalariga binoan belgilangan asosiy soliqlar; rasmiy soliqlar; an'anaviy soliqlar; favqulodda joriy etilgan soliqlar.

Manbalarga ko'ra, shariat qonun-qoidalari asosida joriy etilgan asosiy soliqlar – **xiroj, ushr va zakot** hisoblangan. Dehqonchilikda donli ekinlar ekiladigan yerlardan olinadigan soliq – xiroj deb atalgan. Bu soliq hosilning

---

<sup>88</sup> Хироj - ҳосилнинг 1/5 дан 1/8 қисмигача ташкил этган.

beshdan bir qismini tashkil etib, 5 qop g'allaning bir qop miqdorida undirilgan. Soliqning bir qismi mahsulot, bir qismi esa pul bilan to'langan.

Ushr yerlari – **“zamini ushr”** deb yuritilgan yerlardan hosilning o'ndan bir qismi miqdorida ushr solig'i ruhoniylar foydasiga undirilgan. Zakot – mahsulotdan olinadigan savdo solig'i yoki chorva mollari hisobidan olinadigan soliq bo'lib, daromadning qirqdan bir qismini tashkil etgan. Xonlikning savdogarlik sarmoyalari aniq bo'lmaganligi sababli, sharoitga qarab daromaddan zakot olingan. Shuningdek, chorva mollaridan ham qirqdan bir ulush hisobida zakot olingan. Arxiv hujjatlarida an'anaviy zakotdan tashqari – bo'roqi zakoti, elatiya zakoti, sarkarda zakoti kabilar haqida ma'lumotlar bor.

Xonlikda joriy etilgan tanobona, xonsoliq, karvonlardan chegara yoki maxsus belgilangan shaharlarda, Sirdaryo kechuvidan olinadigan boj to'lovlari, tuz boji, bozorlarda savdogarlardan, xon mablag'iga qurilgan barcha inshootlardan olinadigan soliq kabilar rasmiy soliqlarga kirgan. Bog'dorchilik, sabzavotchilik, polizchilikda ekin ekiladigan yer maydonining hajmiga qarab tanob solig'i olingan. Soliq yig'uvchi amaldor tanobchi (har bir tanob yerdan soliq oluvchi), zakot solig'ini yig'uvchi amaldorlar zakotchi deb atalgan.

An'anaviy soliqlarga to'y marosimlaridan, meros bo'linishidan, tarozidan, daryodan o'tish uchun sollardan, qirg'iz va qozoqlarning chorvasidan olinadigan va shunga o'xshash soliqlar kirgan. Xonlikda bulardan tashqari yana turli xil favqulodda soliqlar mavjud bo'lib, u tilla puli va mis puli, ulov puli, alaf puli, nafsona, mushtak, kafsan, yaksara va boshqalardir.

Soliqlar qat'iy belgilangan miqdorda hamda o'z vaqtida yig'ilishi shart bo'lsa-da, xon va amaldorlarning ixtiyori bilan bu holat o'zgarib turgan. Harbiy harakatlar paytida, ayniqsa, soliqlarning turi va miqdori oshirilgan.

Xon xazinasiga kelib tushgan soliqlar – **xossachi**, bek xazinasiga tushgan soliqlar – bekklik deb atalgan. Manbalarga ko'ra, xon ixtiyoridagi yerlar **“zamini xos”** deb atalib, undan keladigan barcha daromad xonning ixtiyorida bo'lgan. Xon xazinasiga tushadigan soliqlarning deyarli barchasi Qo'qon shahri va uning atrofidagi qishloqlardan yig'ilgan. Chetdan xon ixtiyoriga mahsulot va

chorvadan yig'ildigan zakot, Sirdaryo kechuvdan olinadigan boj, tuzdan, xossachi joylardan, xon mablag'iga qurilgan barcha inshootlardan olinadigan soliq, to'y marosimlaridan va meros bo'lishdan yig'ildigan soliqlar tushgan.

Qo'qon xoligida soliqlardan ozod qilingan, ya'ni, "**mulki xur**" yerlar ham mavjud bo'lib, ularning egalari bo'lgan sayyid, xo'jalar, shayxlar va eshonlar xonning maxsus inoyatnomalari asosida barcha soliqlardan ozod qilinganlar. Shuningdek, xonzoda va to'ralar, ba'zi qozi, rais, amin, darvesh va so'filar ham tanob solig'idan ozod qilingan.

Soliqlardan tashqari aholi majburiy ravishda turli ishlarga – kanallar qazish, ariqlarni tozalash, obodonchilik ishlari, turli qurilishlarga, ayniqsa, hukmron tabaqalarning xizmatlariga jalb etilgan. Soliq, to'lov va majburiyatlarning yildan yilga oshib borishi natijasida Qo'qon xonligida xalqning noroziligi ortib borib, xonlikdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatning keskinlashuvi davlatning siyosiy inqirozini ta'minlab bergan edi.

O'rta Osiyoning barcha hududlarida bo'lgan kabi Buxoro amirligida ham agrar munosabatlar, ya'ni, yerga egalik munosabatlari iqtisodiy hayotning asosini tashkil etgan. Manbalarga ko'ra amirlikda yer egaligining quyidagi to'rtta turi: davlatga tegishli yerlar (mulki sultoniy); xususiy yerlar (mulk); diniy muassasalar ixtiyoridagi yerlar (vaqf) va qishloq jamoalariga tegishli yerlar mavjud bo'lgan. Arxiv manbalarida amlok yerlar, amloki sultoniy, podshoh yerlari kabi atamalar bilan atalgan davlat yerlari bilan bir qatorda mulki xirojiy, xiroj yerlari atamasi ham tilga olinadi.

Amir eng katta yer egasi hisoblangan. Davlat yerlarini rasman sotish, hadya etish hamda vaqfga berish ta'qiqlangan bo'lsa-da, bunga doimo ham amal qilinmagan. Davlat yerlari bo'sh yotgan yerlar (qamishzorlar, toshloq, to'qayzor, tog'oldi) ni o'zlashtirish hisobiga ko'paytirib turilgan. Bunday yerlarni o'zlashtirgan shaxslar bir necha yil soliqlardan ozod etilib, keyin belgilangan tartibda soliq to'laganlar.

Undan tashqari davlat (amlok) yerlari hukmdor olidida katta gunoh qilgan yirik yer egallaridan musodara qilingan yerlar hisobiga hamda merosxo'ri

bo'lmisdan vafot etgan shaxslarning yerlari davlat ixtiyoriga o'tishi hisobidan ham ko'paygan. Ayrim manbalarga ko'ra, davlat yerlaridan doimiy mavjud bo'lgan yer solig'i- xiroj olingan bo'lsa, boshqa manbalarda davlat yerlaridan hosilning katta qismi, ya'ni 40-50 foizi olinganligi qayd etiladi.

Amirlikda mavjud bo'lgan yana bir yer egalligi shakli mulk (xususiy) yerlar bo'lib, bu yer egaligi shakli qo'zg'almas mulk hisoblangan hamda hech qanday cheklanishlarsiz meros qilib qoldirish mumkin bo'lgan. Mulk yerlaridan olinadigan soliqlar haqida tadqiqotchilarning turli fikrlari mavjud. Yangi tadqiqotlar (R.Xoliqova) tahlili shuni ko'rsatadiki, mulki xurr yoki mulki xolis ayrim yirik yer egalariga tegishli bo'lgan yer egaligi shakli hisoblangan. Mulki xurr egasi doimo amaldagi hukmdor tomonidan berilgan yorliqqa ega bo'lishi shart bo'lgan va aynan shu yorliq tufayli u yer solig'idan ozod qilingan.

Amirlikda dehqon ahli foydalanayotgan yerlarga nisbatan mulki xiroj atamasi ishlatilgan. Bunday yerlarga ega bo'lgan yer egalari o'z yerlarini erkin sotish, meros qoldirish va hadya qilish huquqiga ega bo'lganlar. Bunday yerlardan rasman hosilning uchdan biri miqdorida soliq belgilangan bo'lsada, amirlikning har biri hududida o'rnatilgan va belgilangan tartib hamda urf-odatlariga ko'ra, soliq miqdori hosilning uchdan biridan to beshdan birigacha bo'lgan.

### **2.3 XVIII-XIX asrlarda O'rta Osiyo davlatlaridagi mansab egalari va ularning vazifalari**

Sh.Vohidov va R.Xoliqovanning "Markaziy Osiyodagi davlat boshqaruvi tarixidan" kitobida Xiva xonligida unvon, mansablar va ularni egalarining vazifalari, saroydagi unvon va mansablar, xonlik doirasida tahlil etilgan. Muhimi mahalliy manbalar, rus sharqshunoslari va arxiv hujjatlariga tayanib, mansab egalarining ismi shariflari ham keltirib o'tilgan.<sup>89</sup>

---

<sup>89</sup> Вохидов Ш., Холиқова Р. Марказий Осиёдаги давлат бошқаруви тарихидан. Тошкент: Янги аср авлоди, 2006. – Б. 59.

Manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, Xiva xonligida ham madrasada uzoq vaqt bilim olgan talabalar maxsus imtixonlardan o'tkazilgandan keyingina, turli diniy va dunyoviy mansablarga qo'yilganlar. Bunda Xiva xonlarining shaxsan o'zi diniy ulamolar bilan madrasa bitiruvchilari imtixonida ishtirok etgan<sup>90</sup>: "Shaharda madrasalardin va xilvatguzin bo'lg'an tolibi ilmlardin dars tamom etib, masoili diniya va ulumi ayniyag'a mahorat paydo qilg'anlarning otlarin xatg'a olib, fazlu kamollarin bilmak va podshohona tarbiyatg'a maxsus tutub, mansabdor qilmoq uchun barchasin bir necha oqshom muborak huzurig'a talab qildi. Va ulamoyi izom saromadlaridin aqza-l-quzot, mutooliyi darajot, jomeul-ulum va-l-masoyil qozi Abdurahim Eshon bila fazilatani, diyonatjalis, hoviyl-funun va-l-fazoyil Eshmurod raisni mummayyiz qilib, mazkur duomullolarning har birig'a tanhovaqt intishob kitoblardin uch kitobnikim, biri - "Tavzeh", biri - "Hidoya" va biri - "Mutavval"dur, berib, har biridin bir mas'ala o'qutub, ma'nododlig' qildurdi. Sof va durust mutolaa qilg'anlarni iltifoti xusravonasig'a mashmul tutub, shariat ahkomin joriy qilmoq uchun mamoliki mahrusani muzofotu aqtoridag'i shaharlarning va qal'alarning burung'i qozi va rais va o'zga mansabadorlarin ma'zul etib, alarning o'runlarig'a qoziyu rais va muftiyu mudarris qildi"<sup>91</sup>.

Mansabda o'tirgan, lekin azbaroyi yumshoqligi va odamlar bilan muomalani o'rniga qo'ya olmaydigan mansabdorlarni ham podsho almashtirar edi<sup>92</sup>: "Arkoni davlat akobiridin Muhammad Ya'qub mahramkim, ko'p muddatdin beri Toshhavz qal'asining hukumati va tarokima tavoyifidin toza qo'ngrot sipohining va qarodoshlu lashkarining sarkardaligi anga mufavvaz erdi, bag'oyat devonavor va majnunshior kishi erdi. Aning bu ... af'loi va ... aqvoli va nopisandida muomala va gustoxliklari hazrat zilli subhoniyni xotiri adolat tavomonig'a yoqmay, hamul mansablaridin ma'zul etib, ostoni sipehrnishon xizmatig'a kelturdi. Va aning o'rnig'a rabi'us soniy oyining yigirmasida,

<sup>90</sup> 1282 yil muharram / 1865 yil may-iyun oyi voqealari o'rnida.

<sup>91</sup> Мухаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огахий. Шоҳиду-л-икбол (Иқбол шаҳодати). Нашрга тайёрловчи Н.Шодмонов. Тошкент: Мухаррир, 2009, 57-58-бетлар.

<sup>92</sup> 1282 yil 20 rabius soniy / 1865 yil 11 sentyabr voqealari o'rnida.

dushanba kuni umaroyi sohibshavkat uzamosidin qipchoq dumonig'a foyiqi izzatnishon Hakim Niyoz otaliqni Toshhavz qal'asining elatig'a nomzod qildi. Va Qiyot xonadonining muntaxabi rif'atmakon Bobo biyni qarodoshlu ulusinnig sardorliqi bila sarafroz etti"<sup>93</sup>.

Xiva xonligida davlat boshqaruvi tartiblarini, mansabga tayinlash tartiblarini yoritganda yana bir muhim masalaga e'tibor qaratish kerak. Chunki, Xiva xonligida Buxoro amirligi va Qo'qon xonligidan farqli ravishda doimiy faoliyat ko'rsatuvchi Kengash amal qilgan. Bu Kengash (devon) ma'lum mansab va unvon egalaridan, chunonchi: inoq, mextar, naqib, qushbegi, devonbegi, shayx ul-islom, mutavalli, mirob, qozi, farmonchi, darg'a, arbob, miroxo'r va boshqalardan iborat edi. Eng yuqori lavozimdagi amaldorlar a'zo bo'lgan bu Kengashning vakolatlari cheklangan, barcha qarorlar amalda xon tomonidan qabul qilingan bo'lsada, lekin saroy a'yonlarining, qabila boshliqlarining, mahalliy hokimlarning davlat boshqaruvidagi o'rnini e'tirof etish zarur. Kengash majlisida boshqa amaldorlardan ham ko'proq mextar, qushbegi, devonbegi, inoq, shayx ul-islom va yasavulboshi hal etuvchi ovozga ega edilar. Kengash masalalarini hal etish darajasiga qarab xon xohishi bilan majlis bo'lar edi<sup>94</sup>.

Xonlikda sud ishlari o'zbek tilida bo'lib, Buxoro va Qo'qondan farqli o'laroq barcha farmonlar, davlat hujjatlari faqat o'zbek tilida yozilgan.<sup>95</sup>

Tarixchi olim M.Yo'ldoshevning ma'lumotiga ko'ra, Xiva xonligida zakot yig'ish va bozorlarda joy puli olish ishlarini ham devonbegi o'z mahkamasi orqali boshqarib turgan va to'plangan pullarning sarflanishini ham nazorat qilgan. Devonbegi xonlikda mavjud 130 dan ziyod madrasaga don - dun, meva-cheva, sabzavot yetkazib berilishi va talabalarning ta'minotini ham o'z

---

<sup>93</sup> Мухаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огаҳий. Шоҳиду-л-икбол (Иқбол шаҳодати). Нашрга тайёрловчи Н.Шодмонов. Тошкент: Мухаррир, 2009, 65-бет.

<sup>94</sup> Сагдуллаев А., Аминов Б., Норкулов Н., Мавлонов Ў. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти. – Тошкент: Академия, 2000. – Б. 241–242; Сагдуллаев А., Мавлонов Ў. Ўзбекистонда давлат бошқаруви тарихи. – Тошкент: Академия, 2006. – Б. 126–127; Эшов Б. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2012. – Б. 395–396

<sup>95</sup> Murtazayeva R.H. O'zbekiston tarixi. T.: 2003-B-326-327

e'tiborida tutgan. Xonlikda 16 ta viloyat, 24 ta beklik va 1183 machit-qavm bo'lgan. 1873-yilga kelib Xivada masjidlar soni 1578 taga yetgan.<sup>96</sup>

Mahram-eng yaqin qarindosh, ulfat, hamdam, safdosh, xususiy xizmatchi ma'nolarini bildiradi. Xiva xonligi davlat boshqaruvida mahramlar bevosita xon maslahatchilaridan bo'lib ular ichon (ichki) va tashqi mahramlarga bo'lingan. Tashqi mahram saroydan tashqi ishlarda xonga yaqindan yordam bergan va xonning tansoqchisi hisoblangan. Ichon mahram saroyning ichki ishlarini boshqargan. Tarixchilarning yozishiga qaraganda, "ayrim davrlarda ichon mahramlarning obro'si mehtar darajasiga yetgan".<sup>97</sup>

Xiva xonligida bu davrga kelib markaziy boshqaruv qayta tashkil etiladi. Abulg'ozi tomonidan to shu kungacha davlat boshqaruvida mavjud bo'lgan 360 lavozim qisqartirilib, ular o'rniga ishchan va ixcham 100 ta lavozim ta'sis etildi. Bu lavozimlar bilimli, tajribali amaldorlar bilan mustahkamlandi. Ularning faoliyati shaxsan xon nazorati ostida bo'ldi. Viloyat hokimlaridan to saroy amaldorlarigacha mansab darajasiga qarab xazinadan ish haqi belgilandi. Quyi lavozimdagilar yiliga 3 tillo, yuqori lavozimdagilar 350-500 tillogacha ish haqi olganlar. Muhammad Rahimxon I tashkil etgan saroydagi eng yuqori mahkamalardan biri Oliy Kengash edi. Oliy Kengash o'sha vaqtda qonun chiqaruvchi, ma'muriy boshqaruv va oliy organi vazifasini bajargan. Oliy Kengashda saroyda eng nufuzli 11 nafar amaldor –mehtar, qushbegi, devonbegi, inoq, otaliq, shayxulislom, bosh qozi, biy va boshqalar qatnashgan. Kengash ishiga shaxsan xonning o'zi boshchilik qilgan. Kengash majlisi har juma kuni o'tkazilib, unda tegishli qarorlar qabul qilingan. Yana saroyda kichik kengash faoliyat ko'rsatib unda xon o'z yaqinlari bilan kundalik masalalarni muhokama etgan.

Mehtar va qushbegi saroydagi vazirlik lavozimiga to'g'ri keladi, ularning huquqi deyarli teng. Ularga juda katta vakolat berilgan. Ular xonlikda turli xo'jalik va irrigatsiya qurilishlariga, qazuv, qochuv, soliq to'plash, lavozimlarga

---

<sup>96</sup> Davlatyor Rahim. Muhammad Murod devonbegi. T.: 2016. B-15

<sup>97</sup> Xudoyberganov K. Xiva dunyodagi eng ko'hna qal'a. T.: 2016. B-13

tayinlash, qo'shin to'plash xorijiy elchilarni qabul qilish kabi ishlar bilan shug'ullanganlar. Shu lavozimga juda obro'li, bilimli kishilar tayin etilgan.

Qushbegi- xonlikning shimoliy viloyatlaridan, mehtar esa janubiy viloyatlaridan to'planadigan soliq majburiyatiga javob berganlar. Xonlikning barcha amaldorlari ularga itoat etgan.

Devonbegi (besh devon) esa saroydagi 3 ta devonlarni ishiga rahbarlik qilgach Devonlar saroyda xo'jalik, ijtimoiy-siyosiy, harbiy va boshqa ishlarni hujjatlarni rasmiylashtirish vazifasi bilan shug'ullanib kelganlar. Ular o'ta savodli, olim odamlar bo'lgan, arab, fors va xatto rus tillarini mukammal bilganlar. Xonlikda Yusuf mehtar, Muhammad Rahim mehtar, Hasan qushbegi, Otamurod qushbegi, Muhammad Murod devonbegi, Husaynbek devonbegi kabi e'tiborli amaldorlar o'tgan. Matmurod devonbegi 1873-yilda chorizm istilosiga qarshi kurash qahramonlaridan edi. Husaynbek devonbegi esa ilg'or ijtimoiy harakat-yosh xivaliklar harakatining yetuk rahbarlaridan biri edi.

Xazinachi xonlikning kirim va chiqim hamda sarf-xarajatlarini yuritib, bu haqda xon yoki qushbegiga hisob berib turar edi. Saroyda mirzaboshi, munshiy, maxramboshi kabi mansabdorlar ham bo'lgan.

Sayid Muhammad (1856-1864) zamonida Xivada yana bir oliy lavozim-vaziri Akbar, ya'ni bosh vazir lavozimi ta'sis etildi. Sayid Islom Xo'ja (1870-1918) to umrining oxirigacha ana shu lavozimda ishlab keldi.

Xonlikda yana amir ul-umaro, naqib, inoq, otaliq, biy lavozimlari ham bo'lgan. Bu lavozimlar endi faxriy unvonlarga aylanib, eng yuqori lavozimdagi amaldorlarga berilgan. Bunday lavozimga ko'tarilganlar xonga eng yaqin kishilar bo'lib, ular soliqlardan ham ozod qilinganlar. Bunday lavozimga tayinlanganlar xon farmoni orqali e'lon qilingan va ularning qo'lga yorliq berilgan.

Amir ul-umaro unvoni xonning eng yaqin qarandoshlariga berilgan. Inoq, naqib- bu ilgari qabila boshliqlariga, otaliq esa urug' boshliqlariga berilgan. Xonlikda

mirob va bosh miroblik lavozimi ham bo'lib, ular irrigatsiya qurilishlari suv taqsimotiga mas'ul edilar.

Xonlikda yana yasovul va yasovulboshi lavozimlari bo'lgan, ular qal'a soqchilariga boshchilik qilgan. Mirshablar (politsiya)- ular shahar va qishloqlardagi tartib intizom, osoyishtalik ishlariga javobgar edi. Shahar darvozalarini muhofaza qilish ular ixtiyorida bo'lgan.

Mirza lavozimi ham bo'lib, uning vazifasi saroydagi davlat hujjatlarini rasmiylashtiruvchi kotib-devonlarga boshchilik qilgan. Mashhur shoir, bastakor, olim Komil Xorazmiy va o'g'li Muhammad Rasul mirzaboshilari ana shu mas'ul lavozimda xizmat qilganlar. Musulmon ruhoniylari ham xonlikning ijtimoiy –siyosiy hayotida alohida rol o'ynaydilar. Ular xonning maslahatchilari bo'lgan. Saroyda birorta kengash ularning ishtirokisiz o'tgan emas.<sup>98</sup>

Xiva tarixchisi Abdulla Boltayev bergan ma'lumotlariga qaraganda, XIX asr o'rtalarida Xiva xonligida 1363 ta masjid, 120 madrasa, 164 ta qorixona va 2009 ga yaqin diniy maktablar diniy-ma'rifiy ishlar bilan shug'ullanib kelganlar. Ularning ko'pi Xiva shahrida faoliyat ko'rsatganlar. Ana shu diniy muassasalarga qarashli vaqf mulklari 170-175 ming tanobni tashkil etgan.

Xiva xonligida tubandagi diniy lavozimlar ham bo'lgan: Shayx ul-islom, qozi kalon, qozi askar, a'zam muftiy, a'lam, mudarris, imom, rais, mutavalli va hokazo.

Shayx ul-islom - xonlikda islom marosimlarining aniq bajarilishini nazorat qilgan. Shuningdek, u barcha musulmon ruhoniylariga boshchilik qilgan.

Qozi kalon (bosh qozi) -xonlikda barcha qozilarning boshlig'i. Qozilar sud vazifasini bajargan. Qozi askar-harbiy xizmatdagilar sudi. Muftiylar – qozilarning huquqshunoslari, a'zam esa muftiylarning boshlig'idir. Qori mudarrislar madrasa muallimlari diniy va dunyoviy ilm sohiblari. Raislar – shahar va qishloqlarda diniy qoidalarining bajarilishi, bozorlarda narx-navo, tosh-tarozining to'g'riligini nazorat qiluvchilar bo'lgan.

---

<sup>98</sup> Matyoqub Matniyozov, Abdulla Sotliqov. Jahon tarixi va madaniyatida Xorazm. "Xorazm" nashriyoti. 1999. B-39

Mutavalli bo'lsa vaqf yerlaridan kelgan daromadlarni boshqarib borganlar. Yuqoridagi diniy muassasalar vaqf hisobiga yashab kelganlar. Chorizm istilosidan keyin xonlikda masjid va madrasalar soni birmuncha kamaygan. Bayoniyning guvohlik berishicha, Xiva xonligi o'zining muntazam armiyasiga ega bo'lgan. Qo'shinning asosiy yadrosi turkman otliqlaridan iborat bo'lib, ular navkarlar deb yuritilgan. Muntazam armiyada 13 mingdan ortiq turkman otliqlari xizmat qilgan. Sarbozlar deb yuritilgan piyoda qo'shin ham bo'lgan. Ularning soni hatto 100 ming kishiga yetgan. Navkarlarga xazinadan maosh to'langan. Yana har bir turkman otlig'iga 30 tanobdan yer ajratib berilgan. Xiva qo'shinlari 10 ming minglik va yuzlik qismlarga ajratilgan. Xiva xoni qo'shinning harbiy sarkardalari ham edi. Harbiy masalalar, shu jumladan, taktika masalalari saroyda harbiy kengashda muhokama etilgan. Xon harbiy kengash raisi tajribali sarkardalar uning a'zolari bo'lgan.<sup>99</sup>

Mirob-suv va sug'orish tizimini nazorat etuvchi amaldor sifatida faoliyat ko'rsatishi lozim bo'lgan. Biroq, Munis ma'lumotlariga qaraganda, Xorazmda mirob ko'pincha xon yurishlari va ovlarida doim unga hamrohlik qilib yurgan ahli uzangilardan biriga aylangani ma'lum.<sup>100</sup>

Aholining ko'pchilik qismini o'zbeklar tashkil qilib, ulardan eng kuchli va ko'p sonlilar qo'ng'irot, nayman, qiyot, uyg'ur, nukuz, qang'li, xitoy, qipchoq qabilalari edi. O'zbek qabilalari asosan Amudaryo tarmoq yoygan qismda, kanal bo'ylarida joylashgan. Aholining anchagina qismini (taxminan to'rtidan birini) turkmanlar tashkil etgan.<sup>101</sup>

Xiva xonligi aholisi va uning tuzilishini o'rganishda akademik M.Yo'ldoshevning "Xiva xonligida feodal yer egaligi va davlat tuzilishi" kitobi (Xiva xonlari arxivining ma'lumotlari asosida yozilgan) katta ahamiyatga ega. Ushbu kitob bugungi kunda bir qancha tadqiqot ishlariga manba bo'lib xizmat

---

<sup>99</sup> Matyoqub Matniyozov, Abdulla Sotliqov. Jahon tarixi va madaniyatida Xorazm. "Xorazm" nashriyoti. 1999. B-40

<sup>100</sup> Munis va Ogahiy. "Firdavs ul-iqbol". "Yangi asr avlodi". T.: 2010. B-6

<sup>101</sup> R. Shamsutdinov, X. Mo'minov. O'zbekiston tarixi. "Sharq" nashriyoti. T.: 2013. B-328

qilmoqda.<sup>102</sup>

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Xiva xonligida mansablarga to'g'ri kelgan layoqatsiz kishilar tayinlanmagan. Aksincha, ma'lum bir hurmat va e'tiborga sazovor bo'lgan, boshqarish qobiliyati va muomala madaniyati yuqori bo'lgan kishilar qo'yilgan.

Shuningdek, Qo'qon xonligida unvonlar va mansablar ular ijrochilarining vazifalari hamda martabalariga qarab harbiy, harbiy-ma'muriy, saroy unvon va mansablari hamda ma'muriy vazifalari, diniy mansab va unvonlar hamda diniy qozixona amallariga bo'linar edi. Xon saroyida quyidagi harbiy mansab va unvonlar joriy etilgan:

- **Amir ul-umaro** – amirlar amiri. Xon tomonidan keng vakolatlar berilgan (davlatdagi muhim ishlar, amaldorlarni amalga qo'yish va olish, davlatdagi ichki tartibni saqlash, saroydagi tartib – intizom kabilar) shaxs bo'lib, xondan keyingi eng yuqori mansab hisoblangan;
- **Amirlashkar** – amir ul-umarodan keyingi mansab. Qo'qon xonligida mingboshi harbiy unvonining vazifalari, darajasi amirlashkarlikka teng bo'lgan;
- **Mingboshi** – ma'mur sifatida ming nafar otliq askar beradigan mulkning hokimi. Bu unvondagi shaxs harbiy yurishlar vaqtida qo'shinni boshqarib, lashkarboshi unvonini olgan. Bu unvonning egasi vazirlikka ham da'vogar bo'lgan. Bu unvon Sheralixon davrida (1842-1844 yy.) yuqori darajadagi vazifaga aylanib ketgan;
- **Botirboshi** – botir, bahodirlar boshlig'i. Besh yuz kishidan ko'p lashkarga boshchilik qilgan. Viloyatlarda botirboshi harbiy va qo'shin ishlariga mas'ul edi. Botirboshi ba'zan qurilish hamda sug'orish ishlariga ham boshchilik qilgan. (Ulug' nahr arig'i, Otabek botirboshi).
- **Qo'shbegi** – harbiy qo'shinning boshlig'i. Bu mansab yurish va jang vaqtlarida berilib, uning egasi mingboshi unvonini olishga

---

<sup>102</sup> Йўлдошев М. XIX аср Хива давлат ҳужжатлари. II том. Тошкент, 1960. 401 бет. Йўлдошев М. Хива хонлигида феодал ер эгалиги ва давлат тузилиши. Тошкент, 1959.

da'vogarlik qilgan hamda alohida viloyatga ham hokim bo'lishi mumkin edi.

- **Voli yoki voliy** (noib, muovin) – tobe etilgan viloyat va tumanlarda xonning o'rinbosari. Viloyatlarda lashkar unga itoat etgan hamda u viloyatning harbiy ma'muriy ishlariga boshchilik qilgan.

- **Qal'abon yoki kutvol** – Qo'qon xonligining chegaralarida joylashgan qal'a va istehkomlarining hokimi bo'lib, shu hududlarning harbiy-ma'muriy, xiroj va boj olish ishlariga javobgar bo'lgan. Harbiy maqsadga ko'ra, qal'abon vazifasiga dodxohdan qo'shbegigacha bo'lgan shaxslar tayinlangan.

- **Qo'rboshi** – qo'rxona ya'ni aslahaxona boshlig'i. Bu mansab egasi xon va mingboshiga itoat etgan. Qo'rboshi qo'rxona, miltiqxona, to'pxonalarga boshchilik qilib, xomashyo topib kelishdan tortib to tayyor mahsulot ishlab chiqarish va ularni xon qaroriga binoan tarqatib berish jarayoniga javobgar bo'lgan.

- **Yofar** – soqchilar boshlig'i. Bu mansab egasining guruhi yuz nafar askardan iborat bo'lgan. Yofar o'z guruhining hisob-kitobi, yillik xarajatini askarlari uchun xazinadan olib bergan. Manbalarda yofarlar g'allagir (g'alla oluvchi), javgir (bug'doy oluvchi) va sarpo oluvchi sifatida ham qayd etilgan.

- **To'pchiboshi** – to'pchilar, zambarakchilar guruhi boshlig'i.

- **To'qsabo** – o'zlarining tug'iga ega bo'lgan harbiy guruhning boshlig'i.

- **Ponsadboshi** – besh yuz nafar askardan iborat guruh rahbari.

- **Yuzboshi** – yuz kishilik harbiy dasta boshlig'i.

- **Panjohboshi** – ellikboshi, ellik nafarli harbiy guruh boshlig'i.

- **Dahboshi** – o'n kishilik harbiy guruh boshlig'i.

- **Qorovulbegi** – soqchilar va qorovullar boshlig'i.

Harbiylar qatoriga askar, sarboz, nukar, sipohi, mergan, mahram, botur, to'pchi, zanbarchi, qo'rchi, qorovul kabilar ham kirib, qo'shin safida,

nog'orachi, surnaychi, to'g'chi (bayroqdor) kabilar ham xizmat qilganlar. Bu harbiy unvonlar orasida mingboshidan ponsadboshigacha bo'lganlari oliy unvonlar, qo'rboshidan qorovulboshigacha bo'lganlar o'rta unvonli mansablar, qolganlari esa past unvonlar hisoblangan. Ellikboshidan mingboshigacha bo'lgan harbiy lavozimdagi amaldorlar o'z xizmatlariga mulozimlar olganlar. Ponsadboshidan yuqori mansabdagi harbiylarga yana mirzolar va munshiylar ham xizmat qilgan. Manbalarda harbiylarga saroydan yiliga turli hajmdagi maosh berilganligi qayd etilgan.

Qo'qon xoligidagi saroy unvon va mansablari quyidagilar edi:

- **Otaliq** – xon yoki xonzodaning murabbiysi, ularning homiylari. Ular tarbiyalagan xonzoda taxtga o'tirganidan so'ng, otaliqlar ham yuqori mansab va unvonlarni egallaganlar.
- **Beklarbegi** – beklarning begi. Bu unvon xonning vorisiga yoki ba'zi viloyatlarning hokimiga berilgan.
- **Biy** – turkiy qabilalarning boshliqlari.
- **Devonbegi** – xon devonining boshlig'i, Qo'qon xonligi viloyatlaridan Toshkent va Dashti qipchoq mulkida ham devonbegi mansabi bo'lgan.
- **Xazinachi** – davlat xazinasining hisob-kitobiga javobgar shaxs. Xazinachilar viloyat markazlarida ham faoliyat yuritgan.
- **Inoq** – xonning xos va sirdosh mulozimi.
- **Eshikog'asi yoki chehraog'asi** – eshik oldidagi soqchi, posbon. Xon mahramlari va soqchi-mulozimlarining boshlig'i. Notanish kishilarni xon huzuriga ijozatsiz qo'ymaslikka javobgar shaxs.
- **Parvonachi** – bu unvon egasi xon nomiga kelgan xat va arizalarni saroyga olib kirib, javobini olib chiqqan. Bu unvon boshqa unvon sohiblariga ham berilgan.
- **Dodxoh** – xon oldiga fuqarolarning xohish-istak hamda maqsadlarini bayon etish huquqiga ega mansab, saroy unvoni.

- **Dasturxonchi** – xon dasturxoniga, umuman, oshxonasiga javobgar saroy mansabi.
- **Saroy qorovulbegisi** – xon o‘rdasining soqchilariga boshliq bo‘lgan saroy amaldori.
- **Tunqator** – tun bo‘yi uyg‘oq bo‘ladigan soqchi. Xonning dam olishi va yurishlari vaqtida qo‘riqchilik qilib, xonning yaqin kishilaridan tayinlanadigan amaldor.
- **Oftobachi** – xonning xos mulozimlaridan bo‘lib, uning yuvinishi va tahorati vaqtida xizmat qiladigan amaldor.
- **Sharbatdor** – eng oliy va faxriy unvonlardan bo‘lib, xonning xos majlislari va safarlarida hizmatda bo‘lgan.
- **Hidoyatchi** – xon saroyiga yuborilgan tortiq va sovg‘alarni qabul qilib olib, xon nazaridan o‘tkazuvchi amaldor.
- **Shig‘ovul** – saroyga tashrif buyurgan elchilar va choparlarni xon huzuriga boshlab kiruvchi amaldor. Manbalarga ko‘ra, bu mansabdagi amaldorning vazifalari keng bo‘lgan.
- **Sarkor** – saroydagi xon amaldorlarining boshlig‘i. Bu mansabdagi shaxs xonga tegishli shifoxonalar, korxonalar hamda qurilish ishlariga ham boshchilik qilgan.
- **Qushbegi** (miri shikor) – ov paytida xonga hamrohlik qiladigan mansab egasi. Qushbegining ovchi itlari, lochin va burgutlari bo‘lib, ov paytidagi xonning dam olish jarayonlariga ham bu shaxs javobgar bo‘lgan.
- **Salomog‘asi** – xon nomidan xalqqa salom beruvchi.
- **Kitobdor** – saroy kitobxonasi uchun javob beradigan amaldor.
- **Risolachi** – elchilar va ularning xat-xabarlariga javob berish uchun mas’ul bo‘lgan saroy amaldori.
- **Jam’og‘a** – xonning suhbatlari, qabul hamda bazmlariga ishtirok etuvchilarga xabar berib, chaqirib keladigan saroy amaldori.

- **Jarchi** – xalq yig‘iladigan ommaviy joylarda xonning farmon va buyruqlarini jar solib (baland ovoz bilan) e’lon qiladigan shaxs.
- **Chopquchi** – pichoq yasovchi, xon saroyidagilar uchun qurollar (pichoq, xanjar qilich) yasab, qo‘rchi vazifasini ham bajargan.
- **Shotir** – xon rikobi oldida yuradigan hizmatchi, odamlarni xon kelishidan xabardor etib, ularni ta’zimga chorlab turgan.
- **Udaychi** - xon rikobi oldida yurib, uning sha’niga baland ovoz bilan maqtovli so‘zlar va hamdu sanolar aytib boruvchi hizmatchi.

Yuqoridagi amal va mansab egalari o‘z hizmatlari evaziga yillik maosh (pul, ot, qo‘y, g‘alla ko‘rinishida) olganlar. Bundan tashqari, ularga tegishli yer-mulklar ham berilgan.

Butun o‘rta asrlar musulmon davlatlarida bo‘lgani kabi Qo‘qon xonligidagi musulmon ruhoniylari ham alohida imtiyozlarga ega bo‘lgan ijtimoiy tabaqa hisoblangan. Xonlikdagi davlat boshqaruvida, ta’lim – tarbiyada, sud ishlarida hamda jamiyat hayotining turli sohalarida ularning fikri katta ahamiyat kasb etgan. Qo‘qon xonligida quyidagi diniy va qozixona mansab, unvon hamda amallari mavjud bo‘lgan:

- **Shayx ul-islom** – dindorlarning eng oliy unvoni bo‘lib, 1818-yilda Umarxon tomonidan joriy etilgan.
- **Xoja kalon** – fikh olimi (huquqshunos) ning faxriy unvoni.
- **Xalifa** – o‘rinbosar. Qo‘qondagi naqshbandiya, qalandariya, yassaviya taraqqiyotlarining rahbarlari.
- **A’lam** – faqih, olim hamda shariat qonun – qoidalarining bilimdoni.
- **Oxund** – bilimli va madrasada o‘qiydigan kishi.
- **Sudur** – vaqf mulklarining daromadlari hamda hisob – kitobiga javobgar mansabdor.
- **O‘roq** – vaqf erlarining xiroj va soliqlariga mas’ul shaxs, O‘roq shaklidagi nishonni sallasiga taqib yurgan.
- **Mudarris** – madrasada ta’lim beruvchi ustoz.

- **Imom va imom xatib** – masjid imomi hamda juma nomozlarida xutba o‘qib xizmat qiladigan imom.
- **Muazzin** – musulmonlarni namozga chaqiruvchi, azon aytuvchi.
- **Qozi ul – quzzot** – qozilar qozisi (adliya vaziri).
- **Qozi kalon** – xonlik poytaxti hamda viloyatlar markazlaridagi qozilar va qozixonalar ustida nazorat qiluvchi amaldor.
- **Qozi askar** – qo‘shin qozisi.
- **Tarakachi** – meros qolgan mol-mulklarni merosxo‘rlarga taqsimlab (taraka) beruvchi shaxs.

Xonlikdagi diniy va qozilik lavozimida bo‘lganlar davlat tomonidan belgilangan maosh hamda turli ehsonlar hisobidan kun ko‘rganlar. Madrasa, masjid, mozorlar o‘zlarining vaqf mulklariga ega bo‘lib, shu mulk daromadidan o‘z xizmatchilariga maosh berganlar. Vaqf mulklariga muttavali mutasaddi – boshliq edi.

Avvalo, ta’kidlash lozimki, manbalar va adabiyotlarda Buxoro amirligida mavjud bo‘lgan unvon, mansab hamda amallarga oid ma’lumotlar juda chalkash, ko‘p hollarda bir-birini inkor etadi. So‘nggi yillarda Sh.Vohidov va R.Xoliqovalar o‘z tadqiqotlarida ushbu masalalarga aniqlik kiritishga harakat qilganlar. Quyida ularning tadqiqotlariga asoslanib amirlikdagi mansablar va unvonlar haqida so‘z yuritamiz.

Buxoro amirligidagi eng yuqori unvon va mansablar, avvalo mang‘it urug‘i vakillariga, **sayyidlarga, xo‘jalarga** hamda ulamolarga berilgan bo‘lib, davlatdagi eng yuqori unvon **amir ul-umaro, otaliq, hokim (valiy, bek), qo‘shbegi va devonbegilar** bo‘lgan. **Davlat amir, amir ul-umaro** tomonidan boshqarilib, u amalda va rasman cheklanmagan huquqlarga ega bo‘lgan. Oltin O‘rda davlatida joriy etilgan otaliq unvoni mang‘itlar davriga kelib otaliqqa olingan shaxsning maslahatchisi va ishonchli vakili, harbiy va ma’muriy ishlarda asosiy vakiliga aylandi. Amir Shohmurod davrida otaliqning vakolatlari cheklanib, unga Zarafshon daryosi suvining taqsimotini nazorat qilish, Buxoro kanali (**rud-i shahr**) va dorug‘alik vazifasi yuklanadi.

Bu davrda **qo'shbegi** yoki **qo'shbegiyi bolo** eng oliy saroy mansabi hisoblanib uning mavqei juda baland bo'lgan. Amalda bosh vazir vazifasini bajargan bu mansab egasi iqtisodiy, siyosiy va harbiy masalalar bo'yicha amirning eng yaqin odami bo'lgan. Saroydagi oliy mansablardan yana biri devonbegi bo'lib, bu mansabdor vazir vakolatlariga ega bo'lgan. Devonbegi moliya ishlari, daromad va xarajatlar hamda soliq yig'ish ustidan to'la nazorat qilish ishlariga javob bergan.

Amir Shohmurod davrida (1785-1800 yy.) amaldorlarning unvon va mansablari tartibga solindi.

Amir Olimxon davriga kelib eng yuqori darajadagi amallar qo'shbegi, devonbegi parvonachi, inoq, dodxoh, to'qsabo, to'pchiboshi bo'lib qolgan edi. Amir Olimxon mansabdorlari va harbiy amaldorlariga xizmatlari uchun Aleksandr III ordenini berar edi.

Olimxon davrida qozi kalon, Raisi kalon va rais mansablariga a'lam va mufti askarlaridan tayinlanar edi. A'lam-oxund, oxund-shayx ul-islom, oxirgisi esa naqib va mir asad bo'lishi mumkin bo'lgan<sup>103</sup>.

Buxoro qozi kaloni Sadri Ziyo – Muhammad Sharifjon ibn qozi Abdush-Shakur o'zining esdaliklarida Buxorodagi amal va unvonlar va ular egalarining vazifalari haqida keng ma'lumotlarni beradi<sup>104</sup>. Ular orasida ahli qalam va kitobat, ta'lim va tarbiya bilan quyidagi amaldorlar mashg'ul bo'lishgan:

“...Qalam ahlining amallari ham to'rtta bo'lgan. Birinchisi *devoni kalon* (katta devon). Tanxoh, xiroj va shunga o'xshash amir[lik] daftarlarining aminligi uning qo'lida edi. Ikkinchisi *mushrif*. Sultonning in'om va hadyalari, ya'ni bayroq, jibba, sovut, ot, yarog' va shunga o'xshash narsalarni ro'yxatga olish uchun mutasaddi bo'lgan shaxs. Uchinchisi *daftardor*. Bu amaldorning vazifasi saroydagi barcha marosimlarning sarf va xarajatlarini katta daftarga yozib borishdan iborat bo'lgan. To'rtinchisi *devoni tanobona*. Bu amaldor vazifaxo'rlar xiroji va sultoniy yerlarning mahsulotlariga javobgar edi.

<sup>103</sup> Тарих-и нофеи. 29 - 30 бетлар.

<sup>104</sup> Қаранг: Воҳидова Т. «Садри Зиё. Бухоро ҳукмдорлари даврида маълум бўлган амаллар». // Бухоро мавжлари, 2007, № 4 – Б. 37-42.

Ahli qalamning yana to‘rt amali bo‘lgan. Birinchisi *munshiy*. U muboraknomalar va manshur (farmonlar)ni yozishga mas’ul. Ikkinchisi *devoni arbobi daruni shahr* (shahar ichkarisidagi arbobning devoni)dir. Ariq va zahkashlarning hashar ishlari va jinoyatchilarning sulton farmoniga binoan jazolanishi unga yuklangan. Uchinchisi *devoni arabxona*. Arablar jamoasidan navkar (sarboz) olinishni nazorat qilar va qalbakilashtirish, tovlamachilikka qarshi ishlarni olib borardi. To‘rtinchi *devoni tavjih*. U devoni daftardor va devoni tanobonadek kirim ishlarini nazorat qilardi.

Yana to‘rtta amal mavjud. Birinchisi *kitobdor*. Sulton kutubxonasining mas’ul amaldori. Ulamo, vazirlar va fozillar tomonidan tortiq qilinadigan risolalar va [devoni] ash’orlarni qabul qilib olishga javobgar. Ikkinchisi *devoni baxshi*. Kutvol, ya’ni sulton qurilishi va imoratlari, ularning sarfu xarj ishlariga mutasaddiy amaldor. Uchinchi *devoni sayisxona* (sayisxona devoni). Sayisxonaning barcha ishlariga javobgar. To‘rtinchi *to‘shakxona devoni*. Saroy va haramdagi barcha paloslar [va kerakli narsalar], ularning sotib olinishi, almashtirilishi, hisob-kitobi uning qo‘lida bo‘lgan.

Yuqoridagilardan pastroq darajadagi yana to‘rt amal bor. Bular *mushrifi xurd*, *poygirnavis*, *devoni mahram*, *devoni yasovul*. (Ular aniq va ma’lumligidan bayon etilishini lozim topmadik).

*Muharrir* (kotib, mirzo) ham to‘rtta bo‘lgan. *Devoni sarkor muharriri*, *amlak*, *axbor* va *kutubxona muharriri*...<sup>105</sup>.

Buxoro mamlakatida mudarrislar maxsus izzat-ehtiromga ega edilar.

XX asrning boshlarida Buxoroda mudarrislar soni 800 nafarga yetgan ekan<sup>106</sup>. Sadri Ziyo ma’lumotiga qaraganda XX asrning boshida Buxoro shahrida 80 ga yaqin katta va kichik madrasalar bo‘lgan<sup>107</sup>.

<sup>105</sup> Каранг: Садри Зиё. Мажмуа // Қўлёзма. Ўзбекистон ФА Абу Райхон Беруний номидаги Шарқшунослик институти, № 2193. Батафсил каранг: Воҳидов Ш., Холиқова Р. Марказий Осиёдаги давлат бошқаруви тарихидан. Тошкент: Янги аср авлоди, 2006. Садри Зиё ҳақида қаралсин: Воҳидов Ш., Чориев З. Садри Зия и его библиотека (Из истории книги и книжной культуры в Бухаре в начале XX века). Ташкент: Янги аср авлоди, 2007. С.3-34.

<sup>106</sup> Тарих-и нофеи. — Б. 33-35.

<sup>107</sup> Муҳаммад Шариф ибни Абдушукур Садри Зиё. Мадрасаҳо-и шаҳри Бухоро. //Қўлёзма. ЎзФА ШИ, №-2493, охириги варақлари.

Amirlikdagi markaziy davlat boshqaruvida Buxoro shahri alohida o‘rin egallagan. Jumladan, Buxoro shahri hokimi **amirning birinchi vaziri** va boshqa viloyatlar boshqaruvchisi hisoblangan. Shahardagi jamoat tartibini saqlash mirshablarga topshirilgan bo‘lib, ular shahar mirshabboshisiga bo‘ysunishgan. Buxoro shahri mirshabboshisiga boshqa barcha shaharlar mirshabboshilari bo‘ysungan. Mang‘itlar davrida Buxoroda qo‘shbegi, qozikalon, bosh rais va mirshabboshi birgalikda “**chor hokim**”, ya’ni, “**to‘rt hokim**” deb yuritilgan.

Amirlikning boshqaruv tizimida bosh rais alohida ahamiyatga ega bo‘lgan. Ushbu amal yarim diniy, yarim targ‘ibotchi usulida edi. Amirlikda bosh rais odatda eshon rais yoki rais-ush shariat deb atalgan bo‘lib, unga barcha mahalliy raislar bo‘ysungan. Bosh rais ularni vaqti-vaqti bilan amir oldida tekshiruvdan o‘tkazib turgan. Eshon rais qozikalondan keyin turadigan amaldor bo‘lib, uning mahkamasiga vaqtincha o‘rinbosarlik qiluvchi **xalifa, noib, mulozimlar, mirzalar, miroxo‘rboshi, tergovchi, shahar mirobi** kabilar kirgan.

Amir saroyida ijro hokimiyatini amalga oshiruvchi lavozimlar qatoriga shahar xavfsizligiga javobgar bo‘lgan mirshab va uning qo‘l ostidagilar, suv ta’minotiga javobgar bo‘lgan mirob va uning qo‘l ostida ishlaydiganlar kirgan. Mirshab qo‘l ostida **yasovulboshi, devonbegi, mahramboshi, mirzalar, dahboshi, shabgard (kechki qorovul), farroshboshi** kabilar bo‘lgan. Mirob tasarrufida esa **mahram, mirzalar, bakovullar, miroxo‘rlar, suv tarmoqlari nazoratchilari, mahalla, mavze va qishloq oqsoqollari** faoliyat yuritganlar.

Amirning ikkinchi vaziri qo‘shbegiyi poyon, ba’zi manbalarda mir poyon deb atalgan bo‘lib, unga yasovulboshi, miroxo‘rboshi, xazinachi, mirzalar, bakovulboshi, zakotchilar bo‘ysungan. Miri poyon ularni bevosita o‘z nazoratiga olib turgan.

Buxoro amiri huzurida yuqori lavozimdagi mansabdorlar bilan birga quyi amaldagi mansabdorlar ham mavjud bo‘lgan. Amir farmonlarini yetkazuvchi parvonachi, amirga doimo hamroh bo‘lib yuruvchi hidoyachi, amir maslahatchisi va xorijiy mehmonlarni kutib oluvchi shig‘ovul, amir

osoyishtaligi va tinchligini muhofaza qiluvchi **tongotar (tunqator)**, amirga qaratilgan salom va ta'zimlarni qabul qiluvchi javobgar salom og'asi, amir dasturxoniga javobgar dasturxonchi, amir safari chog'ida nomozga chorlovchi imomi jilov, amir safari chog'ida qonun bilan shug'ullanuvchi mufti jilov, amir maslahatchilari guruhi jam'og'a kabilar shular jumlasidan. Amirga bo'lgan sadoqati va xizmati uchun alohida shaxslar dodhoh, inoq, to'qsabo, otaliq, eshikog'asi kabi unvonlarga ega bo'lganlar.

XVIII-XIX asrning birinchi yarmida amirlikda eng oliy diniy mansab shayxulislom hisoblangan. Ammo, bu davrda uning vazifalari ancha toraygan edi. XIX asr o'rtalaridan boshlab shayxulislom o'rnini qozikalon egallaydi. Yuqorida eslatilgan amir huzuridagi kengashda din vakillaridan qozikalon, shayxulislom, naqib va rais qatnashgan.

Amir Muzaffar davridan boshlab amirlikdagi barcha huquqiy normalar qozilar tomonidan hal qilingan. Barcha fuqarolik, xo'jalik va jinoiy ishlar Qur'on asosida ko'rib chiqilgan hamda jazolar tayinlangan. Qozilar amir irodasiga ko'ra qozikalon tomonidan tayinlangan. Shariat bo'yicha boshqaruv qozilar qo'lida bo'lgan. Qozikalon amirlik poytaxtining bosh qozisi bo'lishi bilan birga, davlatdagi boshqa qozilar boshlig'i hisoblangan.

Amirlikda rasman uchta diniy unvon – o'roq, sudur va sadr mavjud bo'lgan. Manbalarga ko'ra, madrasani tugatgan shaxs mulla, qozi, rais amallarini egallashi mumkin bo'lgan. Yuqoridagi amallarda bir necha yil ishlaganidan so'ng shariat huquqlari sohasida to'plagan bilim va tajribalari asosida bunday shaxslarga dastlab o'roq, keyin sudr va so'ngra sadr unvonlari berilgan. Eng oxirgi diniy unvoni bo'lgan shaxslar qozikalon, muftiy, a'lam, oxun kabi diniy amallarni egallashi mumkin bo'lgan.

Amirlikda harbiylar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar va ularning shikoyatlarini shu masalalar bilan shug'ullanuvchi maxsus amaldor-qozi askar ko'rib chiqqan. Harbiy jinoyatlar bo'yicha fatvo tayyorlash muftiy askar zimmasida bo'lgan. Demak, amirlikdagi harbiylar va fuqarolik ishlari alohida-alohida mahkamalar tomonidan ko'rib chiqilgan.

### **III BOB. O'rta Osiyo davlatlarining ma'muriy tuzilishi: qiyosiy tahlil (manbalar asosida)**

#### **3.1 O'rta Osiyo davlatlarining ma'muriy bo'linishi va undagi boshqaruv (manbalar asosida qiyosiy tahlil)**

XVI-XIX asrlar davomida Xiva xonligi hududlari doimo o'zgarib turgan. Dastlab, xonlik hududi Xorazm vohasidagina joylashgan bo'lsa, keyinchalik uning chegarasi kengaygan. Xonlik janubda Eron, sharqda Buxoro amirligi, g'arbda Kaspiy dengiz, shimolda qozoq juzlari bilan chegaradosh edi. Suvsiz va poyonsiz Qoraqum, Qizilqum sahrolari Xiva xonligini geografik jihatdan boshqa mamlakatlardan ajralib qolgan edi. Ruslar bosqinidan keyin Amudaryoning chap qirg'og'ida 62237,2 km<sup>2</sup> yer maydoniga ega kichik vassal davlatga aylanib qolgan.<sup>108</sup> Amudaryo sohillarida joylashgan Xiva, Urganch, Kat, Ko'hna Urganch, Xazorasp, Qo'ng'irot, Xo'jayli, Kurdar (hozirgi Chimboy shaharlari xonlikning yirik shaharlari hisoblanar edi, O'rta Osiyoning eng boy savdo markazlaridan biri bo'lgan Xiva shahri 2 qism –Ichan qal'a(shaharning ichki qismi-Shahriston) va Dishan qal'a(shaharning tashqi qismi)dan iborat edi. Ichan qal'ada xon qarorgohi va harami, 17 ta masjid, 22 ta madrasa, karvonsaroy va bozor joylashgan. Xivaning rabod qismi Dishan qal'ada hunarmandlar, savdogarlar, mardikorlar, qisman dehqonlar istiqomat qilganlar.

Xiva shahri esa xon, bosh vazir (inoq) va qushbegining izmida bo'lgan. Shahar ichki tartiblari va osoyishtaligi mirshabboshi, jinoiy ishlarni ko'rish va jazo tayinlash shahar qozisi poytaxtni tasodifiy hujumlardan himoyalash to'pchiboshi va ichan qal'a va dishan qal'a kutvoli zimmasida bo'lgan.

Arxiv ma'lumotlariga qaraganda, Xiva shahrida mayda hunarmand-kosiblarning 700 dan ziyodroq do'kon-u ustaxonalari bo'lgan. Shu jumladan, 54 ta bo'yoqchilik, 37 ta etikdo'zlik, 37 ta rangdor etikdo'zlik, 16 ta ko'nchilik, 4 ta sarroflik ustaxonalari bo'lgan. Rossiyadan Hindistonga va Xitoyga boradigan karvon yo'llari xonlik hududidan o'tgan bo'lib, xorijda beda urug', jun, mevaga bo'lgan qiziqish tobora ortib borgan. Rossiyadan Xivaga mo'yna, metall

---

<sup>108</sup> R.Shamsutdinov, X.Mo'minov. O'zbekiston tarixi. "Sharq" nashriyoti. T.: 2013. B-326

buyumlar, qand, shakar keltirilgan. Qishloq xo'jaligidan olinadigan soliqlardan bir yilda 40 ming tillo mablag' tushgan. A.L.Kunning aytishicha, xon xazinasiga jami soliqlardan tushadigan rasmiy mablag' 172 ming 784 tillo bo'lgan.<sup>109</sup>

Bu davrda Xorazmda 60 dan ortiq hunarmandchilik turi bo'lganligi ma'lum. Bular naqqoshlik, ganch va yog'och o'ymakorligi, duradgorlik, xarrotlik, misgarlik, zargarlik, to'qimachilik, gilamchilik, ko'nchilik, temirchilik, kulolsozlik kabi san'at turlaridir. P.P.Ivanov ma'lumotiga ko'ra, Xivada bu davrda 6 ta kigizfurush ustaxonasi, 17 nafar ipak to'quvchi, 26 nafar xarrot, 18 nafar nonvoy, 38 nafar misgar, 16 nafar choponfurush, 17 nafar sovunchi, 18 nafar ko'nchi, 80 nafar qassob, 83 nafar juvozchi, 60 nafar bo'yoqchi, 22 nafar qulfgar, 40 nafar etikdo'z, 42 nafar zargar va boshqa kasb-hunar egalari bo'lib, ular tayyorlagan mahsulotlar shahar bozorlarida sotilgan<sup>110</sup>.

Shuningdek, Qo'qon xonligining ma'muriy tuzilishi, davlat boshqaruvi, mansab va amallari to'g'risida Mullo Olim Mahdum Hojining "Tarixi Turkiston" asarida<sup>111</sup> xonlikning siyosiy boshqaruvi va mansab va amal egalarini 24 darajaga bo'lib, ularning har birining vazifalari borasida, Muhammad Aziz Marg'iloniyning "Tarixi Aziziy" kitobida<sup>112</sup> amir ul umaro egasi va uning vazifasi, ayni paytda shu lavozim egalari tasnif bergan, Muhammad Hakimxonning "Muntaxab at-tavorix" kitobida<sup>113</sup> saroy unvon va mansablari to'g'risida va Muhammad Yunus Shig'ovulning "Tarixi Aliquli amirlashkar" asarida<sup>114</sup> elchilik aloqalari, saroy unvonlari va ularning egalari haqida qimmatli ma'lumotlar berilgan.<sup>115</sup>

XVIII asr oxirlarida xonlikning hududi faqat Farg'ona vodiysidan iborat bo'lib, bu davrda Norbo'tabiy vodiydagi barcha beklik va viloyatlarni o'z

---

<sup>109</sup> Davlatyor Rahim. Muhammad Murod devonbegi. T.: 2016. - B-17

<sup>110</sup> Иванов П.П. Архив Хивинских ханов. -Л., 1940. - Б.138-139.

<sup>111</sup> Мулло олим Махдум Ҳожи. Тарихи Туркистон. - Т. Туркистон генерал-губернаторлиги нашриёти, 1915.

<sup>112</sup> Муҳаммад Азиз Марғилоний. Тарихи Азизий. Нашрга тайёрловчилар, Ш.Воҳидов, Д.Сангирова. - Маънавият, 1999.

<sup>113</sup> Муҳаммад Ҳақимхон. Мунтахаб ат-таворих. II жилд. Душанбе, 1984.

<sup>114</sup> Муҳаммад Юнус Шиг'овул. Тарихи Алиқули амирлашкар. // Шарқ юлдузи., 1996. №№1-2.

<sup>115</sup> Воҳидов Ш., Холиқова Р. Марказий Осиёдаги давлат бошқаруви тарихидан. Тошкент: Янги аср авлоди, 2006. - Б. 15. Ушбу китобда юқоридаги манбаларда келтирилган маълумотларга тўхталинган.

itoatiga kirgizib, ularni Qo‘qonga bo‘ysundirdi. Uning davrida Andijon va Marg‘ilon viloyatlari vodiydagi eng katta mulklar edi. Olimxon davrida xonlik hududlari Toshkent va uning atrofidagi yerlar hisobidan ancha kengaydi. Tarixiy manbalarda Toshkent mulki - viloyat, shahar, Toshkent va Dashti Qipchoq viloyati nomlari bilan tilga olinadi. Uning hududlariga Ohangaron, Chinoz, Toshkent atrofi, Sirdaryo bo‘ylaridagi Turkiston shahri va uning atroflari kirgan. Bu mulkning hokimlari manba va hujjatlarda hokim, hukmdor, voliy, noib atamallari bilan tilga olinadi. Umarxon davrida Xo‘jand, O‘ratepa va Jizzax atrofidagi yerlarga ham ketma-ket yurishlar qilinib, 1817-yilda O‘ratepa bosib olinadi.

Muhammadalixon davrida xonlikning hududlari yanada kengayadi. Bu davrda xonlik shimolda Rossiyaga qarashli Tashqi Sibir okrugi bilan, g‘arbda Xiva va Buxoro amirligi bilan, janubda Qorategin, Darvoz va undan uzoqroqdagi yerlar – Shug‘non, Ro‘shon va Vaxon (bu hudud Qo‘qonga nomigagiga qaram bo‘lgan) Ko‘lob bilan, sharqda Qashg‘ar bilan chegaralangan. Xonlik yerlariga Sirdaryo bilan Qorategin o‘rtasida joylashgan Farg‘ona hududlari, Sirdaryoning o‘ng qirg‘og‘ida joylashgan Namangan, Xo‘jand va boshqa shaharlar, Buxoro amirligi va Qo‘qon xonligi o‘rtasida joylashgan Qurama viloyati, Turkiston, Sirdaryoning quyi oqimidagi to Balxash ko‘ligacha bo‘lgan qirg‘izlar yashaydigan yerlar, ko‘chmanchi qirg‘izlar yashaydigan Billur tog‘ining sharqiy etaklari, 1830-yildan boshlab g‘arbiy etaklari ham kirgan.

Buxoro amirligi boshqaruv ishlarida yirik sarkardalar, qo‘shin boshliqlari, qo‘mondonlar va amirlarning harbiy mahorati katta ahamiyatga ega. Amirlikda ichki va tashqi xavfni bartaraf etish, davlat sarhadlarini kengaytirish hamda qilinadigan yurishlarda qo‘shinlarning soni, harbiy tayyorgarligi, jang usullari, qurol-yarog‘lar, qo‘shin boshliqlarining harbiy mahorati kabilarga katta e‘tibor qaratganlar. Davlatda qo‘shin to‘plash, qo‘shinning ta‘minoti, uning tarkibi, qo‘shinni jangga tayyorlash, qurol-aslahalar, harbiy va qorovullik xizmatini o‘tash, harbiy harakatlarni olib borish odat tusiga kirgan. Amirlikning siyosiy

hayoti, boshqaruv tartibi, ma'muriy tuzilishi va harbiy siyosati to'g'risida tarixiy manbalarda ma'lumotlar keltirib o'tilgan<sup>116</sup>.

O'rta Osiyo xonliklari ichida Buxoro amirligi alohida mavqeiga ega bo'lgan, katta hududlarni egallagan davlat edi. Manbalarga ko'ra, XVIII asrning o'rtalariga kelib Buxoro amirligi hududlarida birmuncha o'zgarishlar sodir bo'ladi. Bu davrda Buxoro hukmdorlari o'z tasarruflarida Buxoro shahri va uning atrofidagi Vobkent, G'ijduvon, Qorako'l, Vag'oz tumanlari, Qashqadaryo va Miyonqol vohalarini saqlab qolgan edilar. Xo'jand, Toshkent, Hisor vaqti-vaqti bilan esa G'uzor, Shahrisabz, Nurota, shuningdek, Amudaryoning o'ng sohilidagi Balx, Andxay, Maymana, Badaxshon va Shibirg'onlar ham Buxoroga vassal bo'lishiga qaramay unga itoat etmay qo'yg'nanlar. Siyosiy parokandalikning asosiy sababi – so'nggi ashtarxoniylar davridagi o'zaro kurashlar, markazdan qochuvchi kuchlar mavqeining o'sishi edi.

XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab, ya'ni mang'itlar sulolasi hukmronligi o'rnatilgach, Buxoro amirligi yana asta-sekin mustahkamlana boshlaydi. Shu asrning 70-80-yillariga kelib, Buxoro amirligining markaziy hududini Samarqand va Buxoro shaharlarini o'z ichiga olgan Zarafshon vohasi tashkil qilar edi. XIX asrning boshlariga kelib Buxoro amirligi hududiga Zarafshon hamda Qashqadaryo vohalaridan tashqari Surxon vohasi, Hisor, Xo'jand, O'ratepa, Panjikent kabi aholi zich joylashgan tumanlar, Janubiy Turkmanistonning katta qismi, jumladan Chorjo'ydan to Murg'ob daryosigacha bo'lgan hududlar kirar edi. Bu davrda Buxoro amirligi hududlarining kengayishiga asosiy sabab – mang'itlar sulolasining markazlashgan davlat barpo etishga intilishi edi. XIX asr boshlarida Buxoro amirligi bir tomondan Eron va Afg'oniston, ikkinchi tomondan Xiva xonligi, uchinchi tomondan qozoq juzlari va to'rtinchi tomondan Qo'qon xonligi hududlari bilan

---

<sup>116</sup> Вохидов Ш., Холикова Р. Марказий Осиёдаги давлат бошқарув тарихидан. Тошкент: Янги аср авлоди, 2006. – Б.24.

chegaradosh edi. Amirlikda valiahdga qarashli mulk Qarshi hisoblanar edi.<sup>117</sup> XIX asrda Xorazmda yozilgan tarixiy asarlarda Qo‘qon xonligi bilan bo‘lgan diplomatik munosabatlarga oid materiallar ham keltirilgan. Jumladan, 1259/1843 yili «zu-l-qa’da oyining o‘n to‘rtida chahorshanba kuni Rahimquli Xo‘qand elchisi Qorabosh dodxohg‘a Bobobekni elchilik yo‘suni bila qo‘shub, muhabbatnoma bilan Xo‘qand viloyatiga yubordi»<sup>118</sup>.

### **3.2 O‘rta Osiyo davlatlari: Xiva xonligi, Qo‘qon xonligi va Buxoro amirligining beklik va noibliklarga bo‘linishi**

Xiva xonligining aniq chegaralari haqida ma’lumotlar saqlanmagan. Chunki xonlik paydo bo‘lgan dastlabki davrlardan boshlab siyosiy vaziyat va harbiy harakatlarga qarab davlat chegaralari doimiy ravishda o‘zgarib turgan. XIX asrga kelib xonlik tarkibiga turkman, qozoq, qoraqalpoq va boshqa xalqlarning qo‘shilishi natijasida Muhammad Rahimxon I mamlakatda markazlashgan davlat barpo etishga harakat qilib, xonlikda ma’muriy boshqaruvda, moliya pul muomalasida, soliq tizimida muhim islohotlar o‘tkazdi. Muhammad Rahimxon I xonlikni ma’muriy boshqarishda yangi tartib joriy etib, xonlik hududining kentlarga ajralishini bekor qildi va mamlakatni ma’muriy jihatdan hokimlikka bo‘ldi. Viloyat hokimliklari esa, o‘z navbatida masjid – qavmlarga ajraldi. Xonlikda jami 1578 ta masjid–qavm bo‘lgan va bu islohot mustaqil hokimlik tarafdori bo‘lgan bekliklarning o‘zboshimchaligiga nuqta qo‘ydi.

Xiva xonligida ma’muriy boshqaruv ham o‘ziga xos tartibda edi. Muhammad Rahimxon I davrida 15 ta hokimlik mavjud bo‘lgan bo‘lsa, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida 26 ta hokimlik tashkil etilgan. A.Boltaevning ma’lumotlariga ko‘ra, Asfandiyorxon zamonida xonlikda quyidagi bekliklar bo‘lgan: Hazorasp – hokimi Ismoilxo‘ja Islomjonning akasi, Ostona – hokim (?) SHayx ul-islom, Urganch – hokimi Olloberganbiy, Kat – hokimi Abdulla inoq,

<sup>117</sup> Хотираҳои Амир Олимхон. (Амир Олимхон хотиралари). Душанбе: Адиб. 1992.- Б.29.

<sup>118</sup> Веселовский Н.И. Очерк историко-географических сведений о Хивинском ханстве. – № 5364/III., – 404<sup>a</sup>.

Toshhovuz – hokimi Jumaniyoz mahram, Qo‘shko‘prik – hokimi katovul, Oqdarband – hokimi Niyoz mahram, Gurlan – hokimi Muhammad SHarifboy, Ko‘k Qahka – hokimi (?), Qo‘ng‘irot – hokimi Qutlimurodboy, Ko‘hna Urganch – hokimi Nur Muhammad devon, Ilonli – hokimi Bobo devon, Taxta – hokimi (?), Xonqa – hokim Muhammadxo‘ja Hojiboy, SHobboz – hokimi Bektosh otaliq, Manoq – hokimi Nurjon Bahodir, G‘aziobod – hokimi (?) yuzboshi, SHayx – hokimi (?) yuzboshi, Mang‘it – hokimi Muhammad Niyozboy, Xo‘jayli – hokimi Yor Muhammadboy, Xo‘jayli – hokimi Azizbiy xo‘ja, CHumanay – hokimi Abdurahimboy, To‘rchi – hokimi (?), Oqtepa – hokimi (?), Qorog‘on – hokimi (?), Xitoy – hokimi (?) <sup>119</sup>.

XIX asr boshidan boshlab, Xiva xonligida 2 noiblik (Beshariq va Qiyot-Qo‘ng‘irot) bo‘lgan. H.Ziyoevning tadqiqotlarida ularning joylashgan o‘rni, aholisi haqida quyidagi ma’lumotlar keltirilgan: “... Xiva, Yangi Urganch, Kesh, Shovot shaharlarida va atroflarida o‘zbeklar, Amudaryo etaklarida..... qoraqalpoq xonadonlari, Tamagur va Ilalli va boshqa joylarida qizilboshlar deb yuritiladigan sobiq eroniy asirlar, Ilalli va Toshovuz oralig‘ida asirlar tagjoylik bo‘lib ketgan”<sup>120</sup> ligi ta’kidlanadi.

Ruslar bosqini arafasida Xiva xonligining umumiy maydoni 1305909 kv. km. bo‘lib, o‘ng qirg‘oqdagi yerlar Amudaryo bo‘limi ixtiyoriga tortib olingach, 54 698 kv. km. maydon qolgandi, xolos. Xiva xonligining so‘l qirg‘oqda qolgan maydonining uzunligi 360 va kengligi 10-60 chaqirimni tashkil qilardi. O‘zlashtirilgan yerlar 2005520 tanob bo‘lib, u umumiy yer maydonining 35 % tashkil etardi. Xonlikda muhim o‘rin egallagan xalqlar orasida o‘zbeklar, turkmanlar, qozoq, qoraqalpoq, rus, tatar, boshqird, eroniy urug‘ – qabilalarga mansub aholi bor edi. Ularning milliy tarkibi va soni haqidagi ma’lumotlar bir-biriga mos kelmas, ba’zi vaqtlarda strategik maqsadlarda ham yashirilib turilardi. Aholi soni haqida bir vaqtlar Xivaga kelgan rus ofitserlari qoldirgan

---

<sup>119</sup> Каранг: Болтаев А. Хоразм тарихига оид ҳужжатлар // Қўлёзма. ЎзФА ШИ. – № 9320. Яна муфассал каранг: Воҳидов Ш., Холикова Р. Марказий Осиё давлатлари бошқаруви тарихидан. –Т.: Янги аср авлоди, 2006. – Б. 80.

<sup>120</sup> Зиёев Ҳ. Тарихнинг очилмаган саҳифалари. – Т.: Меҳнат, 2003.-Б92.

ma'lumotlar diqqatga sazovordir. 1819-yilda kapitan N.N.Muravev xonlik aholisi 300 ming kishi, 1842 -yilda podpolkovnik G.I.Danilevskiy – 294 ming kishi, 1843-yilda savdogar M.N.Ivanin – ko'chmanchilar bilan birga 650 ming kishi, 1861-yilda sharqshunos V.V.Grigorev 300 mingdan oshmaydi va 1873-yilda polkovnik L.F.Kostenko xonlikdagi xonadonlar 40 ming va aholi soni 700 ming kishi, agarda bunga qullar ham qo'shilsa, 800 mingdan oshiq deb yozgandilar.<sup>121</sup> Rus ma'muriyati 1897-yilda ilk bor imperiyadagi aholini ro'yxatga olish ishlarini amalga oshirdi. Shu jumladan, Turkiston o'lkasi bilan bir qatorda Buxoro amirligi va Xiva xonligida yashayotgan fuqarolar sonini aniqlashga harakat qilindi. Xiva xonligida 519437 kishi yashaganligi va ularning 488 924 nafari (94,1 %) o'troq, 30515 nafari (5,9 %) ko'chmanchilik bilan kun kechirayotganligi ma'lum bo'ldi. <sup>122</sup>Eltuzarxon (1804-1806 yy.) davrida xonlikning hududi uncha katta bo'lmasdan, shimoliy chegarasi Orol-Qo'ng'iroq hokimligi, janubiy chegarasi esa Darg'onota bilan chegaradosh bo'lgan. XIX asr o'rtalariga oid rus manbalarida xonlikning g'arbiy chegarasi Kaspiy dengizigacha, janubda esa Marv vodiysi orqali Eronga tutashib ketganligi, shimolda esa Ural daryosigacha cho'zilganligi qayd etilgan. Shunday qilib, Xiva xonligi ma'muriy jihatdan hozirgi Xorazm viloyati, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Qozog'iston va Turkmaniston Respublikalarining bir qismini o'z ichiga olgan davlat edi.<sup>123</sup>

Shuningdek, Qo'qon xonligi ham beklik va noibliklarga bo'lingan bo'lib, XIX asr manbalarida Qo'qon xonligi beklik, ba'zan viloyat va sarkorlik sifatida tilga olingan ma'muriy – hududiy qismlarga bo'lingan hamda ularni xon tomonidan tayinlanadigan beklar, hokimlar va sarkorlar boshqargan. Ayrim manbalar (A. Kun) Qo'qon xonligidagi 15 ta beklikning nomini keltiradi. Bular: Qo'qon va uning atrofi, Marg'ilon, Shahrison, Andijon, Namangan, So'x, Mahram, Buloqboshi, Aravon, Baliqchi, Chortoq, Navkat, Koson, Chust va Bobo darhon. "Turkestanskije vedomosti" (1876, №13) to'plamida esa Asaka,

<sup>121</sup> Йўлдошев М.Хива хонлигида феодал ер эгалиги ва давлат тузилиши. –Б.240.

<sup>122</sup> Йўлдошев М.Хива хонлигида феодал ер эгалиги ва давлат тузилиши. –Б.111-114.

<sup>123</sup> Эшов Б. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув. Тошкент, Янги аср авлоди, - Б.380.

Marg‘ilon, Baliqchi O‘sh, So‘x, Koson va O‘zgan sarkorlik sifatida ham tilga olinadi.

Hokimlar va hududiy bo‘linma boshliqlari xon oilasi a‘zolari, unga yaqin guruhlar, yuqori tabaqa vakillari hamda yetakchi qabilalar sardorlari orasidan tayinlangan. Misol uchun, Xudoyorxon davrida yettita beklik xonning o‘g‘illari va yaqin qarisdoshlari tomonidan boshqarilgan. O‘z navbatida hokimlar viloyat hududlarini o‘zlarining farzandlari va qarindoshlariga bo‘lib berganlar. Qo‘qon xonligining ma‘muriy-hududiy boshqaruv tizimida bek (hokim, voliy) va uning o‘rdasi alohida o‘rin egallagan. Xon tomonidan tayinlangan hokim va qozi ko‘plab vakolatlarga ega bo‘lgan.

Bek o‘rdasida ham xon saroyidagidek yuzlab amal va unvonlar joriy etilgan bo‘lib, ular mahalliy aholidan yig‘iladigan soliq hamda to‘lovlar hisobidan kun kechirishgan. Beklar xonning itoatkor vassallari bo‘lib, mamlakatni idora etishida uni qo‘llab-quvvatlashlari, zarur bo‘lganda unga yordam berishlari, uning hurmat-izzatini joyiga qo‘yishlari, kerakli vaqtda o‘z qo‘shinlari bilan harbiy yurishlarda ishtirok etishlari va sovg‘a-salomlar yuborib turishlari lozim bo‘lgan.

Shuningdek, Buxoro amiri qushbegisining devoni arxivida saqlanayotgan ma‘lumotlar asosida amirlikning quyidagi viloyatlari (1914-1916 yillar ma‘lumotlari asosida) aniqlangan. Bular Boysun, Baljuvon, Burdalik, Darvoz, Dehnav, Ziyouddin, Yakkabog‘, Qubodiyon, Qorategin, Karki, Karmina, Qarshi, Kelif, Kitob, Kulob, Qo‘rg‘ontepa, Nurota, Sarijo‘y, Usti, Xatirchi, Hisor, Huzor, Chorjo‘y, Chirog‘chi, Shahrisabz, Sherobod, Shug‘non.<sup>124</sup>

“Tarix-i nofeyi” ma‘lumotiga qaraganda, alohida viloyatlarga tobe bo‘lgan shahar va nohiyalar ham bo‘lgan. Masalan, Mo‘minobod Ko‘lobga; Xovaling va Qo‘ng‘irot Baljuvonga; Dushanbe va Qoratog‘ Hisor hokimiga, Romitan, Haydarobod, Bahovuddin, Xo‘ja Bo‘ston, Xo‘ja Ubon, Xo‘ja Orif,

---

<sup>124</sup> Вохидов Ш., Холикова Р. Марказий Осиёдаги давлат бошқаруви тарихидан. Тошкент: Янги асп авлоди, 2006. – Б. 24.

Vobkent va Zandana Buxoro shahriga tobe bo'lgan ekan.<sup>125</sup> Professor SH.Vohidov ushbu ma'lumotlarni Muhammad Ali Baljuvoniyni tarixiy asariga tayanganligini aytib o'tadi.<sup>126</sup>

XVIII asr oxirlarida xonlikning hududi faqat Farg'ona vodiysidan iborat bo'lib, bu davrda Norbo'tabiy vodiydagi barcha beklik va viloyatlarni o'z itoatiga kirgizib, ularni Qo'qonga bo'ysundirdi. Uning davrida Andijon va Marg'ilon viloyatlari vodiydagi eng katta mulklar edi. Olimxon davrida xonlik hududlari Toshkent va uning atrofidagi yerlar hisobidan ancha kengaydi. Tarixiy manbalarda Toshkent mulki - viloyat, shahar, Toshkent va Dashti Qipchoq viloyati nomlari bilan tilga olinadi. Uning hududlariga Ohangaron, Chinoz, Toshkent atrofi, Sirdaryo bo'ylaridagi Turkiston shahri va uning atroflari kirgan. Bu mulkning hokimlari manba va hujjatlarda hokim, hukmdor, voliy, noib atamallari bilan tilga olinadi. Umarxon davrida Xo'jand, O'ratepa va Jizzax atrofidagi yerlarga ham ketma-ket yurishlar qilinib, 1817-yilda O'ratepa bosib olinadi. Muhammadalixon davrida xonlikning hududlari yanada kengayadi. Bu davrda xonlik shimolda Rossiyaga qarashli Tashqi Sibir okrugi bilan, g'arbda Xiva va Buxoro amirligi bilan, janubda Qorategin, Darvoz va undan uzoqdagi yerlar – Shug'on, Ro'shon va Baxon Ko'lob bilan, sharqda Qashg'ar bilan chegaralangan. Xonlik yerlariga Sirdaryo bilan Qorategin o'rtasida joylashgan. Farg'ona hududlari, Sirdaryoning o'ng qirg'og'iga joylashgan Namangan, Xo'jand va boshqa shaharlar, Buxoro amirligi va Qo'qon xonligi o'rtasida joylashgan Qurama viloyati, Turkiston, Sirdaryoning quyi oqimidagi to Balxash ko'ligacha bo'lgan qirg'izlar yashaydigan yerlar, ko'chmanchi yerlar, ko'chmanchi qirg'izlar yashaydigan Billur tog'ining sharqiy etaklari, 2830 yildan boshlab g'arbiy etaklari ham kirgan.<sup>127</sup>

---

<sup>125</sup> Воҳидов Ш. “Тарих-и нофеи” Бухоро амирлиги тарихига оид муҳим манба.// Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. 1997. № 9.

<sup>126</sup> Муҳаммад Али ибн Муҳаммад Сайид Балжувони. “Тарих – и нофеи”. Душанбе, 1994.-Б.120 (Тоҷик тилидан таржима, сўзбоши ва изоҳлар муаллифи Ш.Воҳидов,З.Чориев.Тошкент: Академия, 2001.- Б.94.).

<sup>127</sup> Эшов Б. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув. Тошкент, Янги аср авлоди, - Б.344.

Buxoro mamlakati 28 viloyat va 11 tumanlardan iborat edi.<sup>128</sup> Hamma tumanlar (tumanot) Buxoro shahri atrofida joylashgan. Ulardan ikkitasi Shimoliy Rud va Janubiy Rud 1915-yilga kelib tuman nomini oldi.<sup>129</sup> Buxoro shahridan oqayotgan Shohrudning shimoli va sharqida joylashgan bu tumanlarning ma'muriy markazi yo'q edi. Mazkur tumanlarning aholisi Buxoro sadr raisiga soliqlarini to'lardilar. Qolgan tumanlarda ma'muriy va moliya hokimiyati qozikalon itoatida bo'lgan shu tumanlar qozilarining qo'lida edi.

Aksar tumanlar aholi yashaydigan eng katta mahallalar nomi bilan ham atalgan edi. Masalan, G'ijduvon – Xarqonrud, Komot – Vobkand, Simjon - Romitan<sup>130</sup> nomlari bilan ham tilga olingani manbalarda qayd qilingan<sup>131</sup>.

XIX asrning 50-yillarida Buxoro amirligi bir necha **viloyatlardan** tashkil topgan bo'lib, ulardan Buxoro va Samarqand o'z navbatida tumanlarga bo'lingan edi. Viloyat hukmdorlari **hokim** deb atalgan. Keyinchalik viloyat o'rniga bekliklar paydo bo'lgach ularning hukmdorlari **bek** deb atalgan. Yangi ma'lumotlarga ko'ra, bu davrda Buxoro amirligida 44 ta beklik mavjud bo'lgan.

Mirzo Badi Devonning "Majma' ul-arqam" asaridagi ma'lumotlarga ko'ra, amirlik quyidagi ma'muriy-hududiy bo'laklarga: 100 ming tanobdan iborat sug'oriladigan yer **tumanga**, 50 ming tanobdan iborat sug'oriladigan yer hazoraga, 25 ming tanob sug'oriladigan yer **nimhazoraga**, 10-15 ming tanob sug'oriladigan yer **obxo'riga**, 400 tanob sug'oriladigan yer qariyaga, 300 tanob sug'oriladigan yer **ma'razaga (ekinzor)** bo'lingan. Bunday tartibda bo'linish bo'yicha **xiroj**, **zakot** va boshqa turdagi soliqlarni yig'ish va olish qulay bo'lgan.

Tadqiqotlar natijalariga ko'ra, mahalliy ma'muriyat namoyondalari **mavzeni** qishloq va masjidlardan kattaroq hududiy bo'linma deb ta'riflanganlar. Misol uchun, Karki viloyati mavzelarga bo'linsa ham ular o'z navbatida **bekchalarga** bo'lingan, bekcha qishloqlardan iborat bo'lgan. Pomir

<sup>128</sup> Кар: ЎзМДА Ф.И.-126. 1 тавсиф. 51 йиғма жилд.

<sup>129</sup> Тамкин Абдурахмон Бухорий. Матолиб ал-фохира ва матолиб ат-тариха.// Қўлёзма. Ўз ФА ШИ фонди № 8245. 207 б – 208<sup>а</sup> вар.

<sup>130</sup> Бартольд В.В. Сочинения.Т.1. С.172; Т.3. С.200.

<sup>131</sup> Тамкин Абдурахман Бухорий. Қўрсатилган асар. 207вар.

viloyatlaridagi Ro‘shon va Shug‘non ma‘muriy tumanlari oqsoqollik deyilgan. Aholi yashaydigan punktlar manbalarda uchta atama- **qishloq, mavze, daha** nomlari orqali qayd etilgan.

Ma‘lumotlarga ko‘ra, Buxoro amirligi aholisi XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab tez ko‘paya boshlaydi. XIX asrning boshlariga kelib amirlik aholisi taxminan 2 mln.dan oshiq, 50-yillariga kelib taxminan 2,5mlndan ortiq kishini tashkil etgan. Buxoro shahrida taxminan 60 mingdan ziyodroq, Samarqanda shahrida esa taxminan 50 mingdan ortiq aholi istiqomat qilgan.

Turkmanlar ham Buxoro amirligi aholisining son jihatdan katta qismini tashkil etganlar. Ular amirlikka qarashli bo‘lgan Amudaryoning ikki qirg‘og‘ida joylashgan yerlarda, ya‘ni, amirlikning janubiy va g‘arbiy hududlarida istiqomat qilishgan. Buxoro amirligi hududida aholining kichik qismini arablar tashil etgan bo‘lib, ular asosan Qarshi va Sherobod bekliklarida yashaganlar. So‘nggi tadqiqotlarda (R.Xoliqova) amirlik aholisining joylashuvi, yashash tarzi, xo‘jalik yuritishi va etnik tarkibi quyidagicha beriladi:

### **Buxoro amirligi aholisining hududiy joylashuvi**

| <b>Hududlar (vodiy va vohalar)</b>                                      | <b>Istiqomat qiluvchi aholi soni (taxminan)</b> | <b>Foiz hisobida</b> |
|-------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------|----------------------|
| Zarafshon vohasida                                                      | 700.000                                         | 31.8                 |
| Qashqadaryo vohasida                                                    | 500.000                                         | 22.2                 |
| Qizilqum va Yaksuv bo‘yidagi vohalarda                                  | 225.000                                         | 12.0                 |
| Amudaryo bo‘yidagi vohalarda (Surxonning quyilishidan to Chorjo‘ygacha) | 300.000                                         | 14.0                 |
| Qolgan hududlarda                                                       | 430.000                                         | 20.0                 |
| Butun amirlik bo‘yicha                                                  | 2.155.000                                       | 100.0                |

### **Buxoro amirligi aholisining yashash tarzi bo‘yicha taqsimoti**

| <b>Aholining yashash tarzi</b> | <b>Aholi soni</b> | <b>Foizda</b> |
|--------------------------------|-------------------|---------------|
| O'troq aholi                   | 1.399.606         | 65.0          |
| Yarim ko'chmanchi aholi        | 322.986           | 15.0          |
| Ko'chmanchi aholi              | 430.648           | 20.0          |
| Jami:                          | 2.153.240         | 100.0         |

### **Buxoro amirligi aholisning xo'jalik yuritish bo'yicha taqsimoti**

| <b>Aholining xo'jalik yuritish tarzi</b>        | <b>Aholi soni</b> | <b>Foizda</b> |
|-------------------------------------------------|-------------------|---------------|
| Dehqonchilik va chorvachilik                    | 1.830.254         | 85.0          |
| Hunarmandchilik va savdo                        | 215.324           | 10.0          |
| Doimiy xo'jalik ish yuritishga ega bo'lmaganlar | 107.662           | 5.0           |
| Jami:                                           | 2.153.240         | 100.0         |

### **Buxoro amirligi aholisining etnik tarkibi**

| <b>Etnik guruhlar</b> | <b>Jami aholiga nisbatan foiz hisobida</b> | <b>Aholi soni</b> |
|-----------------------|--------------------------------------------|-------------------|
| Turkiy xalqlar        | 85.0                                       | 1.830.254         |
| Eroniy xalqlar        | 12.0                                       | 258.389           |
| Boshqa elatlar        | 3.0                                        | 64.597            |
| Jami:                 | 100.0                                      | 2.153.240         |

Shuningdek, amirlik hududida hindlar, eroniylar, yahudiylar, lo'lilar, afg'onlar, qoraqalpoqlar, qozoqlar va qalmiqlar ham istiqomat qilganlar.

Buxoro amirligida istiqomat qilgan nomahalliy xalqlar, jumladan, hindlar va yahudiylar ijtimoiy qatlam sifatida to'la huquqqa ega emas edilar va ular alohida

mavzelarda yashaganlar. Amirlikda o'troq aholidan tashqari tog' oldi va dasht hududlarda ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi aholi ham yashagan.

## **Xulosa**

Yuqorida ko`rib o`tganimizdek, har bir davlatning boshqaruv tizimida amaldor shaxslarning o`rni kattadir. O`rta Osiyo xonliklarida ham oliy hukumdor o`z hokimyatini maxsus amaldorlar va xizmatchilar orqali amalga oshirgan. O`tmishda qaysi bir davlatning markazlashtirilgan hokimiyati mustahkam bo`lsa, u davlat rivojlangan. Shu o`rinda O`rta Osiyo davlatlari tarixida muhim ahamiyatga ega bo`lgan ma`muriy boshqaruv va davlat tuzilishi manbashunoslik va tarixshunoslik asosida o`rganildi. Xonliklar va amirlik manbalari orqali siyosiy ijtimoiy-iqtisodiy hayot ko`rsatib o`tildi. Xiva va Qo`qon xonliklari hamda Buxoro amirligi siyosiy tarixi XVIII –XIX asrlar davriy chegarasida ijtimoiy-siyosiy hayotga ta`siri o`rganildi. Xiva xonligi, Buxoro amirligi va Qo`qon xonligi tarixi, davlat boshqaruvi, mansab, unvonlar va ularning egalarini vazifalari ya`ni saroy mansab va unvonlari, harbiy va diniy mansab va unvonlar, ularning egalarining vazifalarini keng qamrovli tarzda o`rganish, o`z o`rnida ularning egalarining vazifalari qiyoslab tahlil qilindi.

O`rta Osiyo davlatlarining ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy hayotini mahalliy va xorij tarixshunosligi asosida yoritish uchun manbalar o`rganildi. O`rta Osiyo davlatlarining XVIII-XIX asrlardagi davriy chegarasi bilan bog`liq tarixini ko`proq e`tibor qaratgan holda o`rganildi.

O`rta Osiyo davlatlarida XVIII-XIX asrlarda mavjud bo`lgan mang`itlar sulolasi, qo`ng`irotlat va minglar sulolalari davridagi davlat tuzilishi va boshqaruvi; unda mavjud mansab, unvon egalarining o`rni va boshqaruvdagi ahamiyatini talil qilindi.

Amirlikdagi boshqa mansab va unvon egalari bilan xonliklardagi lavozim egalarining qiyoslagan holda o`ziga xos nufuzini o`rganildi. Ulardagi ijtimoiy - siyosiy va iqtisodiy muhit bir –biriga qiyoslangan holda o`rganildi.

Xiva xonligining ma`muriy boshqaruvi va davlat tuzilishi tarixini manbalarda yoritilishi, Buxoro amirligining ma`muriy tuzilishi, boshqaruvi va davlat

tuzilishi manbalari, Qo'qon xonligi ma'muriy va boshqaruv tartiblari bir-biriga qiyoslangan holda boblarda yoritib berildi. Har bir bob so'nggida qisqacha xulosalarning berilishi dissertatsiya mavzusini yanada mustahkamlashga e'tibor qaratildi.

Bu esa mavzuni kengroq o'rganishga, mavzu bo'yicha mavjud bo'lgan adabiyotlardan qo'ldan kelgancha foydalanib, ulardan fanda zarur bo'lgan tushuncha va xulosalar olishga e'tibor berildi.

Dissertatsiya mavzusini yoritishda rahbariy adabiyotlar, manbalar, asosiy va qo'shimcha adabiyotlar, davriy nashrlar, dissertatsiyalar va internet saytlaridan keng foydalanildi.

XVIII asrdan XIX asrgacha bo'lgan davrdagi ijtimoiy-siyosiy hayot (bosqichma-bosqich) tahlil qilindi.

1. Xiva va Qo'qon xonliklari, Buxoro amirligi harbiy ish tarixi va uning takomillashuvini ishonchli manba va arxiv hujjatlari orqali o'rganish;

2. Xonliklar va amirlikning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy hayotini har tomonlama tahlil etish;

3. XVIII-XIX asrlar O'rta Osiyo davlatlari boshqaruv tizimi tarixini yanada chuqurroq o'rganish;

4. Mavzu bo'yicha muhim va asosiy adabiyotlarni izlab topish;

5. Buxoro amirligining davlat va ma'muriy boshqaruvdagi o'ziga xos takrorlanmas jihatlarini Xiva va Qo'qon xonliklari bilan taqqoslash orqali o'ziga xos tomonlarini o'rganish bo'yicha yanada ko'p izlanishlarni olib borish lozim.

6. Mavzuga doir ilmiy maqolalarni va davriy nashrlarni o'rganib borish .

Yuqorida ko'rsatilgan taklif va tavsiyalarga e'tibor qaratish umumta'lim maktablarining yuqori sinf o'quvchilarini o'qitishdan boshlansa maqsadga muvofiq bo'lardi.

### **Rahbariy adabiyotlar**

1. I.A.Karimov Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. "Sharq" nashriyoti. Toshkent.1998.
2. I.A.Karimov Barkamol avlod orzusi. "Sharq" nashriyoti. Toshkent. 1999.
3. I.A.Karimov Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. " Ma'naviyat" Toshkent. 2009.
4. Sh.M.Mirziyoyev Erkin va farovon, demokratik O'zbekiton davlatini birgalikda barpo etamiz (O'zbekiston Respublikasi prezidentligi lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisdagi nutqi ) Toshkent. "O'zbekiston"-2017
5. Sh.M.Mirziyoyev Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash- yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinishining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza).Toshkent. "O'zbekiston"-2017

### **Manbalar**

1. Абдуллоҳ Хўжа Абдий. Тазкират-уш-шуарои мутаахирини Бухоро. // Қўлёзма. Абу Райҳон Беруний номидаги Ўзбекистон ФА ШИ, № 64. Айни С. Бухара. Воспоминания. Кн. 1, 2. – М.,1961.
2. Афзал махдум Пирмастий. Афзал-ут-тазкор. // Қўлёзма. Абу Райҳон Беруний номидаги Ўзбекистон ФА ШИ, №63,лл. 62б-64 б.
3. Идрис Махдум Рожий. Рисолаи хушнависон // Қўлёзма. Абу Райҳон Беруний номидаги Ўзбекистон ФА ШИ, 2193.
4. Неъматуллоҳ Мухтарам. Тазкират-уш-шуаро. // Абу Райҳон Беруний номидаги Ўзбекистон ФА ШИ қўлёзмаси, инвентар рақами 2252/ II.
5. Садри Зиё Муҳаммад-Шарифжон. Силсилаийи салотини манғитийа. Мажмуа./ Қўлёзма, ЎЗР ФА ШИ, № 2193. 188<sup>б</sup> вар.
6. Садри Зиё Шарифжон Махдум. Рисолаи хаттотон. – Б. 257.

7. Садри Зиё. Асоми ал-кутуби кутубхонаи хусусии Шарифжон Махдум.// Қўлёзма. Абу Райҳон Беруний номидаги ШИ.– № 2461.
8. Садри Зиё. Мажмуа // Қўлёзма. Ўзбекистон ФА Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик институти, № 2193.
9. Садри Зиё. Набзе аз гузоришоти аҳволи бандаи шикастабол ал-мутахаллис ба Зиё Мирзо Мухаммад Шариф. // Қўлёзма, Абу Райҳон Беруний номидаги ЎзР ФА ШИ, № 1304/Ш, 145 в.
10. Садри Зиё. Рўзнома // Қўлёзма, Абу Райҳон Беруний номидаги Ўз ФА ШИ, № 2277,50-б, 52-б вв.
11. Садри Зиё. Таржумаи аҳволи обои узом ва аждоди кироми абавайни тарафайн ва волидайни муаззамайн. // Қўлёзма, Абу Райҳон Беруний номидаги Ўз ФА ШИ, № 2277. 251 в.
12. Тамкин Абдурахмон Бухорий. Матолиъ ал-фохира ва матолиб ат-тариха.// Қўлёзма. Ўз ФА ШИ фонди № 8245.
13. Шаръий Азим Ходжа. Тазкират ал-шуъаро.// Қўлёзма. Ўз ФА ШИ, 3393/3.
14. Бахтовархон. Хатлар ҳақида рисола (Рисолайи хаттотон) // Қўлёзма. Абу Райҳон Беруний номидаги Ўзбекистон ФА ШИ, №202 88-89 бетлар

### **Adabiyotlar:**

1. Абдурахмонов А., Зоҳидий А. Закий Валидий Туғоннинг Туркистонга илмий сафари. Тошкент: Фан, 1997.
2. Ахмедов Б.А.Ўзбекистон тарихи манбалари.Т.2001
3. Азамат Зиёев Ўзбек давлатчилиги тарихи.Т.
4. Ахмеджанов Г. А. Российская империя в Центральной Азии. (История и историография колониальной политики царизма в Туркестане). – Ташкент, 1995.
5. Ахмеджанов Г. А. Советская историография присоединение Средней Азии к России. – Ташкент, 1989.

6. Ахунджанов Э. А. Очерки по истории книги и книжного дела в Средней Азии. Древность. Средние века. - Ташкент, 1993.
7. Бартольд В. В. Бухара // Сочинения. Т. III. – М., 1965.
8. Бартольд В.В. Культура мусульманства. Сочинения. Т. VI. М., 1966.
9. Вахидов Ш., Бабаджанов Б. Равнаки. /Ислам на территории бывшей Российской империи. Под ред. М.С. Прозорова. Выпуск 3. - Спб, 2001.– С.81-82.
10. Вахидов Ш., Бабаджанов Б. Садри Зия. /Ислам на территории бывшей Российской империи. Под ред. М.С. Прозорова. Выпуск 3. - Спб, 2001.– С.86-87.
11. Вахидов Ш., Бабаджанов Б. Факири. Ислам на территории бывшей Российской империи. Под ред. М.С. Прозорова. Выпуск 3. - Спб, 2001.– С.107-108.
12. Вахидов Ш., Эркинов А. Шахрисабзские поэты и каллиграфы./ Шахрисабз: наследие тысячелетий. Альбом. Ташкент: Шарк, 2002.– С.114-118.
13. Веймарн Б.В. Искусство Средней Азии. М., 1940.
14. Веймарн Б.В. Проблема изобретательности в искусстве феодального Востока. // Искусство, 1968. – № 5.
15. Вексельман М. И. Российский монополистический и иностранный капитал в Средней Азии (конец XIX-начале XX вв.). – Ташкент, 1987.
16. Вильданова А. – Б. Подлинник бухарского трактата о чинах и званиях. / Письменные памятники Востока. Ежегодник, 1968. – М., 1970.
17. Волконский А. Бухарские войска // Разведчик, 1894, – № 3.
18. Воҳидов Ш. "Тарих-и нофеи" Бухоро амирлиги тарихига оид муҳим манба. //Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. 1997. №№ 9-10-11
19. Воҳидов Ш., Холиқова Р. Марказий Осиёдаги давлат бошқаруви тарихидан. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2006.

20. Вохидов Ш., Чориев З. Садри Зия и его библиотека. Из истории книги и книжной культуры в Бухаре начала XX века. / Книги, библиотеки, каталоги. Книга 1. Ташкент: Янги аср авлоди, 2007. – 352 с.
21. Гафуров Б., Прохоров Н. Н. Падение Бухарского эмирата. – Душанбе, 1940.
22. Генис В. Л. Разгром Бухарского эмирата в 1920. // Вопросы истории, 1993. – № 7. – С. 39-53.
23. Гоипов Ғ. Таърихи Ҳисори Шодмон, Чағониён ва Душанбе. - Душанбе, 1999.
24. Давлатёр Рахим. Мухаммад Мурод девонбеги. Т.2016
25. Эшов Б.Узбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи.Т 2012
26. Залесов Н. Г. Письмо из Бухары // Военный сборник, 1860. – № 4.
27. Заметка о Бухарской и Коканской артиллерии // Русский инвалид, 1888.– № 40.
28. Зиёдов Ш., Муминов А. Библиотека Дукчи Ишана. В «Манокіб-и Дукчи Ишан» (Аноним жития Дукчи Ишана–предводителя Андижанского восстания 1898 г.) Перевод с турки, введение и комментарии Б. М. Бабаджанова. Тошкент-Берн-Алматы: Дайк-Пресс, 2004. С. 344–385.
29. Зиёев Ҳ. З. Туркистонда Россия тажовузи ва ҳукмронлигига қарши кураш. (XVII- XX аср бошлари). – Тошкент: Шарқ, 1998.
30. Зиёев Ҳ. З. Ўрта Осиё ва Сибирь (XVI-XIX асрлар). – Тошкент, 1962.
31. Зиёев Ҳ.З. Ўзбекистон мустақиллиги учун курашларнинг тарихи. (милоддан олдинги асрлардан то 1991 йил 31 августгача). – Тошкент: Шарқ, 2001.

32. Зияев Х. Завоевание Бухарского и Хивинского ханства царизмом // Общественные науки в Узбекистане. – Ташкент, 1990. – № 8. – С. ??
33. Иванов В.А. Списки рукописей Бухарской коллекции. / Памятники письменности Востока. М. 1970. – ? с.
34. Искандаров Б. И. Восточная Бухара и Памир во второй половине XIX в. ч. 12. – Душанбе, 1962.
35. Искандаров Б. И. Из истории Бухарского эмирата: (Восточная Бухара и западный Памир в первой половине XIX в.) – М., 1958.
36. Исмаилова Э. М. Искусство оформления
37. История Бухары. С древнейших времен до наших дней (Б. В. Лунин, Я. Г. Гулямов, Г. А. Пугаченкова и др.). – Ташкент, 1976.
38. Ишанов А. И. Бухара в период первой русской революции // Известия АН Уз ССР, 1955, – № 12.
39. Казиев А.Ю. Художественно-технические материалы и терминология средневековой книжной живописи, каллиграфии и переплетного искусства. Баку. 1966. – ?? с.
40. Қосимов Ф. Ўзбек давлатчилиги тарихида Бухоро хукмдорларининг ўрни // Тарих, мустақиллик, миллий ғоя. – Тошкент, 2001. – Б.192-193.
41. Munis va Ogahiy. “Firdavs ul-iqbol” T.2010
42. Мухаммад Ризо Эрнийёзбек угли Огахий. Шохид-ул икбол.Нашрга таёрловчи Н.Шодмонов. Т.2009
43. Matyoqub Matniyozov,Abdulla Sotliqov Jahon tarixi va madaniyatida Xorazm.”Xorazm”nashriyoti.1999
44. Maqsud Matkarimov.Xorazm Respublikasi:davlat tuzilishi, nozirlari va iqtisodi.Urganch.1993.
45. Масалиева О. Амир Музаффарнинг тарихнавис ўғиллари. // Мозийдан садо, 2004. – № 2 (22). – С. 32.

46. Масалиева О. Бухоро амирлигида давлат бошқаруви (хорижлик муаллифлар асарлари асосида) // Ҳаёт ва қонун, 1991. – № 2.
47. Murtazayeva R.H. O'zbekiston tarixi.T.:2003.-B-325
48. Munirov Q.Ogahiy.Ilmiiy va adabiy faoliyati.-O'zFa nashri1959.B25-26
49. Муродов А. Ўрта Осиёда хаттолик санъати тарихидан. Тошкент, 1967. – ??б.
50. Муҳаммаджонов А. Р., Неъматов Т. Бухоро ва Хиванинг Россия билан муносабатлари тарихига доир баъзи манбалар. – Тошкент, 1957.
51. Ne'mat Polvonov,Ismoil Bekchanov. Xorazm safari kundaliklari.T.2009
52. Нуржонов К Маданиятимиз дурдоналарини излаб // Хоразм хакикати,1990 йил 18март.
53. Одилов А. Абдумалик Тўра бошчилигидаги халқ озодлик ҳаракати тарихидан // ЎзМУ хабарлари, 2002. – № 2.
54. Одилов А. Бухоро амирлигида XIX асрнинг 60-йилларида озодлик ҳаракати тарихи // Илмий тўплам. Т., 1995. – Б. 96-98.
55. Одилов А. Муҳаммад Раҳимхон-манғитлар сулоласи асосчиси // Бухоро мавжлари, 2005. – №. 3. – Б. 36-37.
56. Одилов А. Озодлик фидойиси // Тафаккур, 2001. – № 2.
57. Ражабов З. Маорифпарвар Аҳмади Дониш. Душанбе: Ирфон, 1964. Адабиётлар 397-307 бб.
58. Ражабов Қ. Амир Ҳайдар ёхуд амири Саййид // Бухоро мавжлари, 2006. – №.2 – Б. 40- 42.
59. Ражабов Қ. Амир Шохмурод ёхуд «Амири маъсум» // Бухоро мавжлари, 2006. – № 1. – Б. 36–38.
60. Ражабов Қ. Бухорога қизил армия босқини ва унга қарши кураш. – Тошкент: Маънавият, 2002.

61. Ражабов Қ. Муҳаммад Дониёлбий оталиқ: бийлик мансабидан амирлик рутбасигача // Бухоро мавжлари, 2005, – №4. – Б. 26–27.
62. Файзиев Т. Бухоро феодал жамиятида куллардан фойдаланишга доир хужжатлар (XIX аср). – Тошкент, 1990.
63. Фомченко А. П. Русские поселения в Бухарском эмирате. – Ташкент, 1958.
64. Ҳакимова К. З. Крестьянство Бухарского эмирата в конце XIX- начале XX в. – Ташкент: Фан. 1991.
65. Халфин Н.А. Россия и ханства Средней Азии: (Первая половина XIX в.) – М., 1974.
66. Ҳамроев У. Нодир асарлар хазинаси. // Ўзбекистон маданияти, №1/721, 1963.
67. Холиқова Р. XIX аср охири ва XX аср бошларида Бухоро амирлиги // Жайхун, ТерДУ хабарлари, 2005. – № 1. – Б. 32-37.
68. Холиқова Р. XIX асрда Бухоро амирлиги // Жамият ва бошқарув, 2000. – № 3.
69. Холиқова Р. Амирликдаги амаллар ва унвонлар // Фан ва турмуш. 2000. – № 4.
70. Холиқова Р. Бухоро ҳукмдорлари. Автобиографик очерк (XIX-XX аср бошлари) // Жамият ва бошқарув, 2004. – № 2.
71. Холиқова Р. Вассал Бухоро амирлигида маҳаллий бошқарув // Тарих, мустақиллик, миллий ғоя. Тошкент, 2001. – Б. 209-210.
72. Холиқова Р. Вассал Бухоро амирлигининг маъмурий-сиёсий тузилиши // Тарих, мустақиллик, миллий ғоя. – Тошкент, 2001. – Б. 206-208.
73. Холиқова Р. Марказий давлат бошқаруви тарихига бир назар // Мулоқот. 2004. – № 1.
74. Холиқова Р. Россия-Бухоро: тарих чорраҳасида. – Тошкент: Ўқитувчи, 2005. – 236 б.

75. Хотираҳои Амир Олимхон. (Амир Олимхон хотиралари). - Душанбе: Адиб. 1992, 3-бет.
76. Чабров Г.Н. У истоков узбекской полигарфии. Хивинская придворная литография. 1874-1910 гг. / Книга. Исследования и материалы. Вып. 4. М., 1961.
77. Шакури М. Садри Бухоро. Душанбе: Деваштич, 2005.
78. Шодмон Воҳид. Қўқон хонлиги ва Бухоро амирлигида унвон ва мансаблар. – Тошкент, 1996.
79. Эргашев Б. Идеология национально-освободительного движения в Бухарском эмирате. – Ташкент, 1991.

### **Dissertatsiyalar**

1. N. Polvonov O'zbeistonda ijtimoiy harakatlar va siyosiy partiyalar tarixi (Xorazm misolida 1990-1925yy.)
2. G. Xusayinbekova Xorazm vohasidagi madaniy jarayonlar (1925-1941)
3. M. Matyakubova Xiva xonligida kitobat va kutubxona tarixi (XIX asrning ikkinchi yarmi-XX asrning boshlarida)

### **Internet saytlari**

1. Tarix.uz
2. Google.uz
3. Ziyonet.uz
4. Referat.uz